O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Andijon davlat pedagogika instituti

ONA TILI FANIDAN MASHQLAR TO‘PLAMI

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun

o‘quv qo‘llanma

Andijon – 2023

UO‘K 811.512.133
KBK 81.2
A 33

Ushbu qo‘llanma Andijon davlat pedagogika instituti Kengash yig‘ilishining 2023-yil 30.03. kuni o‘tkazilgan 9-sonli yig‘ilishida nashrga tavsiya etilgan.

Hozirgi kunda yurtimizda ta’lim sohasida juda katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ona tili faniga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaydi. Ona tili fanini o‘qitishda yangi zamonaviy usullardan foydalangan holda uning jamiyatdagi mavqeyini yuksaltirish uning qadr-qimmatini yanada oshirish hozirgi zamonaviy ta’limning asosiy maqsadlaridan biridir. An’anaviy ta’limda ko‘proq nazariy masalalar birinchi o‘rinni egallagan bo‘lsa, hozirgi zamonaviy ta’limda esa olingan nazariy bilimlarni amaliyotda keng qo‘llay olish malakasini shakllantirish bosh mezon qilib olindi.

Mazkur qo‘llanma 60110500 – Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun Ona tili fanidan amaliy mashg‘ulot darslarida foydalanish uchun tuzilgan. Qo‘llanma tilshunoslikning fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksikologiya, morfemika, morfologiya hamda sintaksis bo‘limlariga oid bo‘lgan nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun mashqlar, topshiriqlar hamda o‘rganilgan mavzular asosida tuzilgan testlardan iborat. Berilgan mashq va topshiriqlarni bajarish yo‘llari ham belgilangan bo‘lib, bu jarayonda talab qilingan shartlar asosida mashq va topshiriqlarni bajarish davomida talabalarning nazariy bilimlarni yanada mustahkamlanadi va ularning o‘z ustida mustaqil ishlashlariga erishiladi. Testlar ham mavzular asosida tuzilgan bo‘lib, bu talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichini aniqlashga yordam beradi. Mazkur qo‘llanmada ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqlik tamoyili asosida mashqlar tarkibiga kiritilgan xalq maqollari va hikmatli so‘zlar tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lib, ular yosh avlodning ma’naviy tarbiyasida muhim o‘rin tutishi e’tiborga olindi.

Qo‘llanmani tayyorlashda boshqa mualliflar tomonidan oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek tili o‘qitish bo‘yicha nashr etilgan darslik va qo‘llanmalar, mashqlar to‘plami, shuningdek, o‘zbek tilshunosligidagi nazariy va o‘quv-uslubiy adabiyotlar asos qilib olindi.

Tuzuvchi:
Azimov A. – Andijon davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi.
Taqrizchilar:
Sobirova D. – ADPI Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi f.f.d (PhD)
Nurmonova D. – ADU Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi dotsenti. f.f.d (DcS)

I bo‘lim. Fonetika haqida ma’lumot

1-mavzu: Til ijtimoiy, doim rivojlanib turuvchi hodisadir.

Reja:

1.Til ijtimoiy hodisa sifatida.

2.Til aloqa-aralashuv vositasi.

1-topshiriq. Jamiyatda tilning o‘rni qanchalik muhim ekanligi haqida guruh talabalari orasida bahs-munozara tashkil qiling.

2-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Tilga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar haqida ayting.
2. Tilning sofligini saqlash uchun qanday harakatlarni amalga ishirish zarur deb hisoblaysiz?
3. Ona tilimizga boshqa tillardan yangi so‘zlarning kirib kelish sabablarini tushuntiring.
4. Begona tillardan so‘z olishni cheklash imkoni bormi? Fikrlaringizni bayon qiling.
5. Tilning doimiy rivojlanib turuvchi hodisa ekanligini isbotlashga harakat qiling.
6. Til va jamiyat munosabati haqida qanday fikrdasiz.
7. Tilning inson hayotidagi eng muhim vosita ekanligini asoslang.
8. Til haqida qanay hikmatli fikrlarni bilasiz. Misollar ayting.
9. O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlarini ayting.
10. Hozirgi o‘zbek tiliga yosh avlodning munosabatini qanday baholaysiz?

1-mashq. Quyidagi hikmatli so‘zlarni ko‘chirib yozing hamda mazmunini izohlab bering.

Achchiq savol berib, shirin javob kutma. Achchiq til – zahri ilon, chuchuk tilga – jon qurbon. Bemorga shirin so‘z kerak, aqlsizga – ko‘z. Gapi to‘mtoqning o‘zi to‘mtoq. Gapi to‘ngning o‘zi to‘ng. Yomon so‘z egasiga qaytar. Yomon so‘zlab sovutma, jon og‘ritib ovutma. Ochiq til osh yedirar, achchiq til – tosh. Yomon gapning oyog‘i olti. Zahar til suyakni yorar. Aytilgan so‘z – otilgan o‘q. Anjom uy ziynati, so‘z inson ziynati. Ariqni suv bezar, odamni – so‘z. Aytar so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt.

2-mashq. Til haqidagi maqollarni o‘qing hamda ularning mazmuni tushuntirib bering.

Go‘sht-yog‘ berma, yaxshi til ber. Duo bilan el ko‘karar, yomg‘ir bilan yer ko‘karar. Duo olgan omondir, qarg‘ish olgan yomondir. Yo‘l quvgan xazinaga yo‘liqar, so‘z quvgan – baloga. Kishining o‘zi yetmagan yerga so‘zi yetar. Kuch egmaganni so‘z egar. Ko‘p gap – eshakka yuk. Mazali so‘zga quloq charchamas.

Muzdan suv tomar, so‘zamoldan – bol. Odam so‘zi bilan sinalar, osh – tuzi bilan. Oz gapir – soz gapir. Olim so‘zi oz, oz bo‘lsa ham soz. Orqadagi gap – og‘ildagi tezak. Og‘izga kelgan so‘z arzon, ovulga kelgan bo‘z arzon. Og‘rigan joyga qo‘l yugurar, og‘ritar so‘zga til yugurar. Pichir-pichirdan o‘t chiqar. Sevdirgan ham til, bezdirgan ham til. Sen ham bir og‘izdan, siz ham. Suv o‘z yo‘lini topar, so‘z – o‘z egasini.

3-mashq. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda “Davlat tili” haqidagi qonunlarda tilga oid davlat siyosati aks etgan moddalarni toping va ularni sharhlashga harakat qiling.

Uyga vazifa: “Til – millat ko‘zgusi” mavzusida bog‘lanishli matn tuzing. Unda hikmatli so‘zlardan foydalaning.

2-mavzu: Milliy va adabiy til

Reja:

1. Milliy til haqida ma’lumot

2. Adabiy tilning o‘ziga xos xususiyatlari

3. Milliy va adabiy tilning munosabati

1-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Milliy til deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy tilning o‘ziga xos xususiyatlari nimalarda ko‘rinadi?
3. Adabiy til haqida fikrlaringizni ayting.
4. Milliy va adabiy tilning o‘zaro munosabati haqida gapiring.
5. Tilning sofligini saqlash uchun qanday choralarni amalga oshirish zarur.

Qayerda yashashidan qat’i nazar bir millatga mansub bo‘lgan barcha insonlar tomonidan ishlatiladigan til **milliy til** deb yuritiladi. Milliy til o‘z tarkibiga sheva, so‘zlashuv nutqi, jargonlar, vulgarizm (so‘kish, qarg‘ish so‘zlari), varvarizm (tilda o‘rinsiz ishlatilgan chet so‘zlar) kabi guruh so‘zlarni qamrab oladi. Ayrim manbalarda milliy til tarkibiy jihatdan **jonli xalq tili** va **adabiy tilga** bo‘linib, birinchisi yana **jargonlar** va **dialektlarga**, ikkinchisi esa **og‘zaki** va **yozma** turlarga ajraladi.

Milliy tilning ma’lum qoidalarga bo‘ysundirilgan, muayyan qolipga solingan, olimlar, mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan, doim silliqlashtirilib, mukammallashtirilib boriladigan shakli **adabiy til** deb ataladi. Adabiy til shu tilda gaplashuvchilarning barchasi uchun tushunarli bo‘lishi kerak. Umuman, millatning barcha vakillari uchun tushunarli bo‘lish zarurati adabiy tilning yaratilishiga sabab bo‘lgan. Milliy o‘zbek tilida shevalarning ko‘pligi adabiy tilga bo‘lgan ehtiyojni

yuzaga keltirgan. Ayrim tillarda (misol uchun, **fin** tilida) shevalar kam bo‘lgani uchun adabiy tilga ehtiyoj yo‘q.

Rasmiy hujjatlar, badiiy va ilmiy adabiyot, vaqtli matbuot adabiy tilda yaratiladi, ommaviy axborot vositalari adabiy tilda ish ko‘radi. Adabiy tilning og‘zaki va yozma shakllari mavjud.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining og‘zaki va yozma shakllari bor, shu ikki shakl vositasida u xalqqa xizmat qiladi. Adabiy tilning og‘zaki shakli to‘g‘ri talaffuz me’yorlariga, eshitish orqali idrok qilishga tayanadi. Bu shaklning moddiy-material asosini fizik-akustik birliklar (nutq tovushlari, urg‘u, ohang, melodika, pauza, tembr, ritm, temp) tashkil etadi; uning tarixiy ildizlari xalq og‘zaki ijodi namunalarida - dostonlar, qo‘shiqlar, maqollar, hikmatli so‘zlar, topishmoqlar, ertaklar negizida rivojlanib, og‘izdan-og‘izga o‘tib kelgan, shu jarayonda uning hozirgi milliy adabiy tilga xos yagona talaffuz me’yorlari shakllangan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining og‘zaki shakli ko‘proq adabiy so‘zlashuv uslubida namoyon bo‘ladi, uning faoliyatida imo-ishora, nutq vaziyati kabi noverbal vositalar ham muhim rol o‘ynaydi. 2 Hozirgi o‘zbek adabiy tilining yozma shakli, avvalo, yozuv sistemasiga hamda shu sistema birliklarini ko‘rish va o‘qishga asoslanadi. Yozuv sistemasi, ma’lumki, grafika, orfografiya va punktuatsiya kabi komponentlardan tarkib topadi, demak, uning moddiy-material asosini optik-grafik vositalar tashkil qiladi. Adabiy tilning yozma shakli faoliyatida ilmiy uslub, rasmiy uslub, ommabop (publitsistik) uslub qoliplariga xoslanish xususiyatlari borligi ham ko‘zga tashlanadi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili taraqqiyotini belgilovchi omillar

Hozirgi o‘zbek adabiy tili taraqqiyotini belgilovchi omillar ikki xildir: **1. Lingvistik (lisoniy) omillar.** Bularga muayyan tilning strukturaviy va sistemaviy xususiyatlari – fonemalar tizimi, lug‘at boyligi, morfema tiplari, so‘z yasash modellari, grammatik qurilishi, leksik, grammatik birliklarning semantik va funksional xususiyatlari, ular o‘rtasidagi aloqa va munosabatlarni belgilovchi qoida-qonuniyatlar kiradi. Adabiy til taraqqiyoti, birinchi navbatda, ana shularga tayanadi. **2. Ekstralingvistik (nolisoniy) omillar.** Bularga tildan tashqarida mavjud bo‘lgan faktorlar kiradi: ijtimoiy tuzum formalari, tarixiy jarayonlar, xalqlar va millatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma’rifiy aloqalar, ilm-fan rivoji, ishlab chiqarish va texnika taraqqiyoti, ijtimoiy tafakkur, inson ruhiyati, his-tuyg‘ulari, til va yozuvga oid qonun va farmonlar shular jumlasidandir. Masalan, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy va ma’naviy hayotida ham jiddiy o‘zgarishlar

yuz berdi: bozor iqtisodiga bosqichma-bosqich o‘tish jarayoni boshlandi, milliy qadriyatlarga e’tibor kuchaydi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning yangi shakllari yuzaga keldi. Bularning barchasi o‘zbek tili leksikasiga ham ta’sir o‘tkazdi: sobiq ittifoqdagi davlat tuzumiga xos ayrim tushuncha nomlari (partkom, raykom, obkom, sovxoz, oblast kabi so‘zlar) iste’moldan chiqib, o‘zbek tili lug‘at boyligining tarixiy qatlamiga o‘tib qoldi, ularning o‘rnida hozirgi mustaqil O‘zbekiston hayoti taqozo qilgan yangi so‘z va atamalar (kollej, litsey, gimnaziya, litsenziya, reyting, test,marketing, minimarket, investitsiya, biznes kabilar) paydo bo‘ldi, hokim, hokimiyat, viloyat, tuman kabi leksemalaming mazmun mundarijasida hozirgi tuzumga xos yangi ma’no qirralari yuzaga keldi, natijada bunday so‘zlar eski qatlamdan zamonaviy qatlamga o‘tib qoldi. Keltirilgan ma’lumotlardan shu narsa anglashiladiki, milliy tilning, shu jumladan, milliy adabiy tilning taraqqiyotida lisoniy va nolisoniy omillar birga qatnashadi, ularning biri ikkinchisiga sharoit yaratadi, har ikkalasi bir butun mexanizm sifatida xizmat qiladi; til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur munosabatlari shuni taqozo qiladi.

Uyga vazifa: Jamiyatdagi o‘zgarishlarning tilda aks etishi haqida ma’lumotlar to‘plang. O‘zbek tilining taraqqiyotiga putur yetkazuvchi omillarga misollar toping.

3-mavzu: Fonetika va fonologiya

Reja:

1. Fonetika haqida ma’lumot.

2. Fonologiya va uning o‘ziga xos xususiyatlari

3. Fonema va tovush haqida.

1-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Fonetika qaysi masalalarni o‘rganadi?
2. Fonetikaning o‘ziga xos xususiyatlarini sanang.
3. Fonologiya deganda nimani tushunasiz?
4. Fonetika va fonologiyaning o‘zaro munosabati haqida fikrlaringizni ayting.
5. Tovush va fonema deganda nimani tushunasiz?
6. Fonemalarga misollar ayting.
7. Fonemalarning 3 tomonlama tasniflanishini tushuntirib bering.
8. Fonemalar tilda cheksizlik kasb etadi degan fikrga munosabatingiz qanday? Misollar bilan isbotlashga harakat qiling.

Fonetika

Fonetika tilshunoslikning bir bo‘limi bo‘lib, unda nutq tovushlari, ularning hosil bo‘lishi, turlari, o‘zgarishi, so‘z ma’nolarini farqlashdagi roli, shuningdek, urg‘u, intonatsiya nutqning fonetik bo‘linishi kabi masalalar o‘rganiladi.Fonetika ham o‘rganish obyektining hajmiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi:

1. Umumiy fonetikada dunyodagi barcha tillarning tovush tomoni va u bilan bog‘liq hodisalarni o‘rganadi. Bularga barcha tillarda unli va undosh tovushlarning mavjudligi, nutq apparati, tovush o‘zgarishlari kabilar kiradi.

2. Xususiy fonetikada muayyan bir tilning fonetik xususiyatlari o‘rganiladi. Masalan, o‘zbek tili fonetikasi, turkman tili fonetikasi, ingliz tili fonetikasi kabi. Fonetikaning bu turi tilning fonetik tomonini qay tarzda o‘rgashiga qarab ikki turga bo‘linadi: **1) tavsifiy fonetikada** muayyan tilning fonetik tizimi tarixiy jarayon va dalillarga bog‘lanmagan holda o‘rganiladi. **2) tarixiy fonetikada** ma’lum bir tilning fonetik tizimi til tarixi bilan bog‘liq tarzda o‘rganiladi.

3. Qiyosiy fonetikada bir-biriga yaqin tillarning fonetik xususiyatlari qiyoslab o‘rganiladi. Masalan, o‘zbek va rus tillarini qiyoslab o‘rganish maktablarda shu tillarni o‘qitishning metodik muammolarini hal qilishda yordam beradi.

4. Eksperimental fonetikada fonetik biliklar va hodisalar maxsus asboblar yordamida tekshiriladi. Bunda olingan natijalar nazariy xulosalarning ishonchliligi ta’minlanadi.

Fonologiya haqida umumiy ma’lumot

Fonologiya so‘zi tarjima qilinganda “tovush haqidagi ta’limot” degan ma’noni bildiradi (*phone* – tovush, *logos* - ta’limot). “Fonologiya, - deb yozadi Jorj Yul, - aslida tildagi nutq tovushlari tizimi va modellarini tavsiflashdir”.[1] Bu bo‘limda tovushlarning so‘z va qo‘shimchalar ma’nolarini farqlashdagi roli bayon qilinadi. Agar **fonetika** bo‘limida tovushlarning fiziologik-akustik xususiyatlari tekshirilsa, fonologiyada, ta’bir joiz bo‘lsa, tovushning ijtimoiy mohiyati o‘rganiladi. Fonetika va fonologiyaning o‘zaro munosabatiga kelsak, ikkinchisi birinchisining yuqori bosqichidir, ya’ni fonetika nutqqa daxldor bo‘lsa, fonologiya tilga daxldordir.

[1] George Yule. The Study of Language. CAMBRIDJE UNIVERSITY PRESS. 2010, 42-bet.

Tovush va fonema

Tovush va fonemaning o‘zaro farqi ham nutq va til o‘rtasidagi o‘zaro farqqa borib taqaladi. Boshqacha aytganda, tovush nutqqa tegishli tushuncha bo‘lsa, fonema tilga tegishli tushunchadir.

So‘zlar tarkibidagi nutq tovushlari ularning ma’nolarini farqlash uchun xizmat qiladi. Bu ularning asosiy vazifasidir: tob, toj, toy, tok, tol, tom, tor, top, tot, tosh, tog‘, toq. Ko‘rinyaptiki, bu so‘zlar o‘zaro bitta (oxirgi) tovush bilan farq qilyapti. So‘z ma’nolarini farqlash uchun xizmat qiladigan tovush **fonema** deb ataladi. Fonemaning aniq talaffuz qilingan, quloqqa eshitilgan ko‘rinishi **tovush yoki fon (allofon)** deb yuritiladi. Masalan, bir, bilan so‘zlaridagi qisqa **i**, biy, tiy so‘zlaridagi cho‘ziq **i**, qirq, G‘irot so‘zlaridagi ruscha **ы** ga yaqin aytiladigan **i fon (allofon)** hisoblanadi. Jorj Yul yuqorida zikr qilingan darsligida yozishicha, fonema ongda mavhum tushuncha sifatida mavjud bo‘lgan paytda, real nutqda uning turli variantlari hosil bo‘ladi.[2]

Fonemalarini tasnif qilganda ularni bir-biridan farqlantiruvchi belgilar **farqlovchi (differensial)** belgilar hisoblansa, shu tovushlar uchun umumiy belgilar esa **birlashtiruvchi (integral)** belgilar sanaladi: **b** va **p** tovushlari uchun lablar ishtirokida hosil bo‘lish va portlovchilik belgilari **birlashtiruvchi** belgilar sanalsa, jarangli-jarangsizlik belgisi **farqlovchi** belgidir.

Fonemalar quyidagi xususiyatlariga ko‘ra ikkita guruhga bo‘linadi:

№	Unli fonemalar	Undosh fonemalar
1.	Unli fonemalar hosil bo‘lishida o‘pkadan chiqayotgan havo og‘iz bo‘shlig‘ida hech qanday to‘siqqa uchramasdan o‘tadi.	Undosh fonemalarni hosil qilishda o‘pkadan chiqayotgan havo og‘iz bo‘shlig‘ida turli to‘siqlarga uchraydi va buning natijasida shovqin hosil bo‘ladi.
2.	Unlilarni cho‘zib talaffuz qilish mumkin.	Undoshlarni cho‘zib talaffuz qilib bo‘lmaydi
3.	Unlilar talaffuzida un paychalari albatta titraydi.	Undoshlar talaffuzida un paychalari titrashi ham (jarangli va sonorlarda), titramasligi ham (jarangsizlarda) mumkin.
4.	Unlilar bo‘g‘in hosil qiladi: *a-ka, o-i-la, mu-do-fa-a.*	Undoshlar bo‘g‘in hosil qilmaydi, ular bo‘g‘in tarkibida kelishi mumkin.

[2] George Yule. The Study of Language. CAMBRIDJE UNIVERSITY PRESS. 2010, 43-bet.

4-mavzu: Unli tovushlar.

Reja:

1. **Unli tovushlar haqida ma’lumot.**
2. **Unli tovushlarning o‘ziga xos xususiyalari.**

1-topshiriq. O‘zbek tilida unli tovushlar hosil bo‘lish tizimini tushuntiring.

Guruh o‘rtasida 3-guruhga bo‘lining. 1-guruh unli tovushlarning so‘z boshida, 2-guruh so‘z o‘rtasida, 3-guruh so‘z oxirida kelishiga misollar yozishi kerak. Bunda qaysi guruh a’zolari eng ko‘p so‘z yoza olsa, shu guruh g‘olib hisoblanadi.

Namuna: 1-guruh 2-guruh 3-guruh.
Akam maktab bola

2-topshiriq. Unli tovushlarning tasnifi masalasida guruh talabalari o‘rtasida bahs-munozara o‘tkazish va egallangan bilimlarni umumlashtirish.

1-mashq. Quyidagi gaplar tarkibidagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar tarkibidagi unli tovushlarni boshqa unli tovushga almashtirib ko‘chiring hamda gapning umumiy mazmunida qanday o‘zgarishlar bo‘layotganiga diqqat qiling.

Namuna: Oy – uy, tosh – tush.

1.**Oydan** tushayotgan shu’la ko‘chani anchagina yoritib turibdi. 2. O‘tgan kuni Salima xolaning uyida ko‘rgan allaqanday **tosh** Nasibaning ko‘nliga bir nohushlikni solib qo‘ydi. 3. Musiqa asboblari sotiladigan do‘konda rubob, dutor, doira va boshqa **torlarning** har xilini uchratish mumkin.4. Muzey burchagidagi “Bo‘yniga **dor** osilgan ayol” sur’ati hammaning e’tiborini o‘ziga tortdi. 5. Fevral oyining oxirlarida Chimyon to‘gi yon bag‘irlaridagi **qorlar** ajib manzarani kasb etadi.

2-mashq. Quyidagi berilgan matnni diqqat biling o‘qing va unda ishtirok etgan gaplar tarkibidagi unli tovushlarni tasnif qiling.

Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko‘ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi…Tollarning ko‘m-ko‘k sochpopuklari qizlarning mayda o‘rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g‘amli yuzlari kuldi, o‘zlari horg‘in-horg‘in oqsalarda, bo‘shalgan qul singari erkinlik nash’asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyog‘ochlarning uchlarida yakka-yakka qushlar ko‘rina boshladi. Birinchi ko‘ringan ko‘klam qushi birinchi yorilgan bodroq nash’asini beradi. Bultur ekilib, ko‘p qoshlarni qoraytirgan o‘sma ildizidan yana bosh ko‘tarib chiqdi... Muloyim qo‘llarda ivib, suvga aylangandan keyin go‘zal ko‘zlarning

supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko‘rar ekan bu ko‘kat! Erkaklarning gullik do‘ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro‘mol popuklari bilan hazillashib o‘ynagan salqin shabada. Ko‘klam nash’asi bilan sho‘xlik qiladi. Hayot nega bu qadar go‘zal va shirin bo‘ladi bahorda? (Cho‘lpon.)

3-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli unli tovushlarni qo‘ying va so‘zlarning talaffuziga e’tibor bering.

Manf…..t, mat…..t, mill……n, l……reat, t……tr, sh……ro, tab……y, vak……m, p……ma, ok……n, rad……, s……dat, m……shat, sh……r, d……m, ……la, stad……n, tab……t, m……mmo, r……ya, v……iy, b…f…yda, kashf…y…t, p…sh…ym…n, r…kl…m…, k…l…nd…r.

So‘zlar orasida yonma-yon holatda keladigan unlilar ishtirok etgan so‘zlarga mustaqil o‘zingiz misollar yozing.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asaridan parcha olib unda ishtirok etgan unli tovushlarni tasnif qiling.

5-mavzu: Undosh tovoshlar.

Reja:

1. **Undosh tovushlar haqida ma’lumot.**
2. **Undosh tovushlarning uch tomonlama tasnifi.**

1-topshiriq. Undosh tovushlarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida bahs yuriting.

b, p, v, f, m, n, l, r, t, d, s, z…. quyidagi undosh tovushlarning talaffuz qiling. O‘pkadan chiqayotgan havo o‘giz boshlig‘ining qayerida to‘siqqa uchrashini tushuntiring.

2-topshiriq. Guruh talabalari orasida **“Kim ilg‘or”** o‘yinini tashkil eting. Bunda tarkibida bir xil undosh tovushlar qatnashgan so‘zlardan eng ko‘p topgan talaba g‘olib bo‘ladi.

Namuna: dada, bobo, toat, mum,

1-mashq. Tushirib qoldirilgan undoshlarni o‘z o‘rniga qo‘yib, so‘zlarni ko‘chiring.

Makta..., odo.., beada.., dokla.., daroma.., mada.., zumra.., hasa..,yuzla..,g‘aza.., atayla.., mansa.., ma…sa.., tanqi.., ta’ki.., koti.., qas.., savo.., epizo.., tarti.., g‘oli.., inso.., isro.., ta...simot, tala..., xursan..., pas..., baro...ar, ...abab, shar...ona, shar...iy, bola...on, il...om, ka...it, a…bob, gul…an, bera…m, …iyla, …azm, maqsu…, odamo…un, noshu..., ta…t,

2-mashq. Gaplarni o‘qing. Ostiga chizilgan so‘zlardagi undosh tovushlarni tahlil qiling.

Namuna: d-undosh tovush; hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra til; til oldi undoshi; hosil bo‘lish usuliga ko‘ra portlovchi; sof portlovchi undosh; ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra shovqinli; jarangli undosh tovush.

1. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi. 2.Bu gaplarning barini Hafiza xomush va oqilona tinglardi. 3. Atrofi ko‘k panjaralar bilan o‘ralgan ulkan bog‘ darvozasidan kiraverishda uch qavatli shinam bino savlat to‘kib turibdi. 4. Yo‘lchi qishloqdan keltirgan xaltasini kampirga uzatdi. 5. Dard davosi bilan tarqaladi.

3-mashq. Berilgan gaplarni ko‘chiring, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni tovush tomondan tahlil qiling va ma’nosini izohlang.

1. Dehqonni yer davolaydi. Urug‘ bilan birga orzu, dard-hasrat, quvonchlarini ham yerga to‘kadi. 2. Gulnorning g‘oyib bo‘lishi Yo‘lchiga yashin urgan kabi ta’sir ko‘rsatdi. 3. Zufar Hakimovichning yuzida ham endi bezovtalik ifodasi yo‘q edi. 4. Ona mehriga tenglashadigan mehr-muhabbat olamda topilarmikan? 5. Rais uning ko‘ziga kamsavlatroq ko‘rindi. 6. Anjirlar obdan sarg‘aygan, anorlar endi piyoladay bo‘lib qizara boshlagan, kechki olmalarga rang kirayotgan, noklar hali ko‘m-ko‘k nosqovoqlarday osilib turgan fasl edi. 7. Farzand diydoriga tashna qalbi... Chinobod tomon parvoz qilishga undadi.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa: Badiiy asardan parcha olib unda ishtirok etgan undoshlarni uch tomonlama tasnif qiling.

6-Mavzu: Nutqning fonetik bo‘linishi haqida

Reja:

1. Nutq birliklari haqida ma’lumot.

2. Nutqning fonetik bo‘linishi.

1-topshiriq. Nutqning asosiy birliklarini sanang va guruh talabalari orasida bu haqida bahs munozara o‘tkazing.

2-topshiriq. Quyida berilgan so‘zlarni bo‘ginlarga ajrating va quyidagi jadvalga joylashtiring.

Ochiq bo‘ginli so‘zlar	Yopiq bo‘ginli so‘zlar	Aralash bo‘ginli so‘zlar

1. Bo‘ynidan bog‘langan tozi ovga yaramaydi. 2. Devorlari nurab qolgan hovlining kungay tomonidagi ayvonda keksagina bir xotin kamzuliga tugma qadab o‘tiribdi. 3. Amirzodamning so‘zlari qulingizga sari toj bo‘lsin! Ertagayoq novvoylarga un berib, ochlarga non yoptirib tarqatishni men o‘z zimmamga olurman! 4. Mehmonxona eshigini ochib gugurtni chaqqan vaqtida mehmonxonaning o‘rtasida ikki qulochini keng yozib Poshshoxon turardi. 5. Bilib qo‘ying, o‘rtoq Komilov, haqiqat egiladi, lekin sinmaydi! Kelajak va tarix sizning bu xatti-harakatlaringizni kechirmaydi! 6. Yigit yalt etib qo‘shni dalaga qaradi. U yerda xotin-xalajlar, bola-chaqalar chuvillashib paxta terishayotgan edi.

1-mashq. Gaplarni ko‘chiring va urg‘u tushgan bo‘g‘inlarni aniqlang.

1. To‘riga quyma tilladan yasalgan o‘ymakor kursi o‘rnatilgan salomxona nimqorong‘i edi. 2. U, usta Hazratqul bilan xayrlashar ekan, qurilish materiallari olish uchun yordam qilishga va’da berdi. So‘ngra, epchillik bilan Boychiborga mindi-yu, Oltinsoyga qarab yo‘l oldi. 3. Lekin u otlanib, uyiga qaytayotganda sal hovuridan tushdi-yu, Uzun Hasan aytgan so‘nggi gaplarda achchiq bir haqiqat borligini sezdi. 4. Xobgohdan ikki xona narida hashamatli tanobiy uyda allaqachon tuzib qo‘yilgan dasturxon Mirzoga muntazir edi. 5. Ko‘ksaroyning kungurador devorlari qorong‘ida cho‘ng qoyaday haybatli tuyuladi.

2-mashq. Gaplarni o‘qing va mantiqiy urg‘u olgan so‘zlarni aniqlang.

1. Murotali uning so‘zlarini chidam bilan tinglab, uncha ham ishonmaganday boshlarini chayqardi. 2. Ayvonda bosma gulli bo‘z ko‘rpa yopilgan pastakkina tanchada qizlar o‘tirardi. 3. To‘g‘ri, o‘tgan kuni saharda rasadxonaga kirib kelgan ustod bu to‘g‘rida so‘z ochmadi. 4. Salohdor fonusni baland ko‘targancha ro‘paradagi eshikni ochib unga yo‘l berdi. 5. Ummatali boshqa gap so‘ramadi. Bir-bir bosib tashqariga chiqdi. 6. Ishing bo‘lmasa kitob o‘qi, husnixat ol: sen kulolning qizi emassanki.

3-mashq. So‘z ma’nosini urg‘u orqali farqlang va ularni qatnashtirib gaplar tuzing.

Bog‘lar, so‘zlar, ko‘zlar, olma, qiyma, ag‘darma, ko‘chamiz, navbatchimiz, oqar, fizik, texnik, hozir, toza, yangi, burun, yara.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa. Bog‘lanishli matn tuzing unda ishlatilgan nutq birliklarini aniqlang.

7-mavzu: Nutq tovushlarining fonetik o‘zgarishlari

Reja:

1. **Nutqdagi tovush o‘zgarishlari**
2. **Tovush tushishi**
3. **Tovush ortishi**
4. **Tovush almashishi**

1-topshiriq. Ko‘chiring hamda so‘zlar tarkibida qanday fonetik hodisalar yuzaga kelganligini tushuntiring.

Sariq – sarg‘ay, o‘g‘il – o‘g‘lim, singil – singli, sust – susay, taroq-im – tarog‘im, o‘rtoq-im – o‘rtog‘im, bilak-i – bilagi, tirgak-i – tirgagi, sarimsoq-i – sarimsog‘i, turpoq-i – tuprog‘i, kirpik-im – kiprigim.

2-topshiriq. Quyida berilgan so‘zlarda ro‘y bergan fonetik o‘zgarishlarning turini aniqlang, ularni ustunchalarga joylashtiring va o‘zingiz ham mustaqil ravishda fonetik hodisalarga misollar yozing.

Tovush ortishi	Tovush tushishi	Tovush almashishi

Qornim, yuragi, o‘g‘lim, shahrim,ulg‘ay, unga, mening, sening, og‘zim, ko‘nglim, ulg‘ay, susay, issiq, achchiq, yasha, angla, o‘troq, ayrim, bo‘g‘zim, o‘rnim, ata, lovulla, parvoyim, jizza.

1-mashq. Gaplarni ko‘chiring, fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlarni topib, ularning turini ayting.

1. Shu sababli, biz o‘z mustaqilligimizni qanday qiyinchiliklar bilan, va qanday sinov va suronli kurashlar bilan qo‘lga kiritganimizni yana bir bor eslashimiz o‘rinli, deb o‘ylayman. 2. Men seni birorta ham kema yeta olmaydigan olis manzillarga olib ketishim mumkin, - dedi ilon. 3. Ko‘cha eshik g‘iyqillab ochilib yopilganidan keyin, Alimardon o‘zini yostiqqa tashladi. 4. Qishloq jimib qolgan, paxsa devorlar zax bosib ketgan, hali ko‘milmagan toklar egri-bugri qizg‘ish gavdasini yashirolmay, iymanganday osilib yotardi. 5. Anvar yumshoq o‘rindiqli kresloni Alimardonning oldiga surdi. 6. O‘tgan kuni boshliq Toshkentga ketar ekan, G‘iyosovni chaqirib: “Abbosovning jiyani keladi. O‘zi, yaxshi

bolamas”, - dedi. 7. Nega Nazarov ishga qiziqib ketib, bironta aspiranturaga kirishni ham o‘ylamayapti? 8. Nazarov dardiga doktorlar shifo topishi mushkul ekanini anglagach, Bekat qayerdasan, deb yo‘lga chiqdi.

2-mashq. Quyidagi berilgan qo‘shimchalar yordamida so‘zlar hosil qiling. Fonetik hodisalarni izohlang.

-la, -a, -ay,- il, -im, -ar, -q, -ni, -day, -ov, -cha, -ga, -aqa, -illa, -n, -qi,

3-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli harflarni qo‘yib ko‘chirib yozing.

Mas...id, i...tido, g‘i...jak, sara...jom, k...itansiya, oli...anob, ta...suf, istibdo..., muto...aa, me...yor, ta....jub, min...s, krep...eshin, parf...meriya, simpoz...um, vol...ybol, sup...rgi, majmu... , a...ditoriya, suver...nitet.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa. Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasini o‘qing, unda ishtirok etgan fonetik hodisaga uchragan so‘zlarni daftarizga ko‘chirib yozing.

II bo‘lim. Grafika

8-mavzu: Orfoepiya haqida umumiy ma’lumot.

Reja:

1. Orfoepiya haqida ma’lumot
2. Hozirgi ona tilining orfoepik me’yorlari
3. Unlilar orfoepiyasi
4. Ayrim undoshlar orfoepiyasi

1-topshiriq. Guruh talabalari o‘rtasida orfoepiya haqida bahs tashkil etish.

2-topshiriq. Avval sirg‘aluvchi, so‘ngra portlovchi **j** undoshini ifodalovchi harf ishtirok etgan so‘zlarni ajratib, ularni ikki ustun shaklida yozing.

Jasur, gijda, jamoat, jabra, jabr, jirafa, daraja, jumla, jadval, jandarm, abajur, anjir, jurnalist, zotiljam, ijozat, ijobiy, passajir, mavj, majlis, morj, projektor, reja, hajv, shajara, falaj, injener, javob, jo‘yak, jurnalxon, Jeneva, tajriba, iskanja, ajdar, mujda.

Sirg‘aluvchi j	Portlovchi j

1-mashq. Kichik bog‘lanishli matn tuzing. Unda ishtirok etgan so‘zlarning talaffuz qilinishi hamda fonetik hodisalarni tushuntiring.

2-mashq. Orfoepik me’yorga mos holda berilgan so‘zlarni o‘qing. Har bir so‘zning orfografik shaklini yozing, talaffuzi va yozilishidagi farqini izohlang.

Bangkir, ko‘ngilchang, mungqaymoq, to‘ngka, esangkiramoq, sho‘xchang, danggasa, boxcha, denggiz, ko‘langka, qizilo‘nggach, shtanga, shinggil, janggavor, banggi, quloxchin, qizixchilik, oxshom, zixna, to‘xson, jinggalak, soxchi, go‘shangga, vaxt, vaxtincha, o‘xtalmoq.

3-mashq. Assimilyatsiya, dissimilyatsiya va metatezaga uchragan so‘zlarni toping.

1.O‘nta qo‘yni qishdan omon chiqarsa, bitta qo‘zi ustama mukofot oladi. 2. Amirzodamning so‘zlari qulingizga sari toj bo‘lsin! Ertagayoq novvoylarga un berib, ochlarga non yoptirib tarqatishni men o‘z zimmamga olurman! 3. Tankka qarshi to‘plar, tanklarni yaqin, go‘yo mana-mana sapchish bilan bosib, yanchib keta oladigan masofaga keltirib, omonsiz o‘tga tutardilar. 4. “Bo, zaril keptimi!- Lobar labini burdi. - Ishim boshimdan oshib yotibdi”. 5. Menga qara, Hojiakbarri o‘g‘lisan-a, ertaga bir do‘ppi o‘rik beraman, mana shu xatti o‘qib ber. 6. Elmurod... turli noz-u ne’matlardan yeyotgan sallalilarga telmurdi. 7. “Sayr qilsa arziydigan tun, - dedi Ketrin. Bevosh kecha, nimasini aytasiz”. 8. Boshim aynaldi. U yo‘gini eslolmayman. 9. Gulsinbibi qizi Gulnorni po‘rasiga o‘tqizdi, mahsini yeshtirdi. 10. Aytmoqchi, kechka yaqin yana kirib o‘tarsiz.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa. Orfoepik me’yorlar buzilgan so‘zlarga 20 ta misol topib yozing.

9-mavzu: Grafika

Reja:

1. Grafika haqida ma’lumot
2. Orfografiya haqida ma’lumot
3. Ona tili grafikasi (yozuv tizimi) haqida ma’lumot
4. Harf tilning asosiy grafik vositasi ekanligi
5. Tovush va harf

1-topshiriq. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga o‘tishning maqsad va sabablari haqida o‘ylab ko‘ring. Bu mavzu yuzasidan guruh talabalari o‘rtasida bahs-munozara tashkil qiling.

2-topshiriq. Amir Temur o‘gitlarini o‘qing, tovushlarning aytilishi va yozilishiga e’tibor bering.

Bir kunlik adolat – yuz kunlik toat-ibodatdan afzal. Kechira olishlik – mardlik, kechira bilmaslik nomardlik sanaladi. Yaxshi odam yurt tuzar, yomon odam yurt buzar.

1-mashq. She’rda ilgari surilgan g‘oya haqida o‘rtoqlashing, unda qo‘llangan so‘zlarning yozilishiga diqqat qiling

Ey ko‘ngil, har dam chekarsan el g‘amini, g‘am dema,
Har damikim el g‘amidin holi o‘tsa, dam dema.
Xuddi joningdek o‘zingga mahram et el mehrini,
Bo‘lmasa el dardiga mahram, uni mahram dema,
Odamikim el uchun qayg‘urmasa, odam dema. (Alisher Navoiy)

2-mashq. Ko‘chiring va ushbu gaplarda qanday grafik vositalar qatnashganini ayting.

1. Mayli endi, azizim besh-olti yil emas, besh-olti, kun deyapti-ku? Kep qolar erta-indin. 2. Qani bir nay bo‘lsa, Yo‘lchi ham chalsa-da, butun ko‘ngil qayg‘ularini, oila o‘chog‘idan ayrilgan g‘arib, tanho ruhning to‘lqinlarini kechaning sukut to‘la og‘ushiga qo‘ysa... 3. – Shunaqami? U kishi ham diplom yoqladilarmi? – dedi Otaqo‘zi kesatib. 4. Ona yerim – oltin tuprog‘im. 5. “Ie, Hoji aka, sizga dori berish esimdan chiqibdi-ku, yuring!” – dedi va Hojini yetaklab chiqib ketdi. 6. Kampirlar bir-biriga qarashdi va hamma birdan: Nega, nega bo‘lmas ekan!- dedi. - Bo‘lsa nega indamaysizlar? Qani, To‘xta xola, gapiring!

3-mashq. Qismlari vertikal chiziqlar bilan ajratib berilgan so‘zlarni imlo qoidasiga muvofiq (qo‘shib, ajratib yoki chiziqcha bilan) yozing.

Oy/bolta, tosh/baqa, nim/pushti, orzu/umid, dov/daraxt, afsus/nadomat, oyoq/osti, bo‘lar/bo‘lmas, bir/zumda, bir/tomonlama, boy/o‘g‘li, atir/gul, azob/uqubat, ayiq/polvon, amaliy/nazariy, umum/ta’lim, dam/badam, beshik/tervatar, arz/dod.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa: O‘zingiz yoqtirgan badiiy asardan parcha olib, gaplar tarkibidagi so‘zlarning qaysi tamoyillar asosida yozilganini aniqlang.

10-mavzu: Ona tili imlosi va uning asosiy tamoyillari

Reja:

1. **Ona tili imlosi va uning asosiy tamoyillari haqida ma’lumot**
2. **Morfologik tamoyil haqida ma’lumot**
3. **Fonetik tamoyil haqida ma’lumot**
4. **An’anaviy tamoyil haqida ma’lumot**
5. **Differensiyal tamoyil haqida ma’lumot**

1-topshiriq. Berilgan so‘zlar izohiga diqqat qiling, ular ishtirokida gaplar tuzing va yozilishi bilan aytilishi o‘rtasidagi farqlarni tushuntirib bering.

Diskussiya [lotincha discussio – muhokama qilish, tadqiq etish] Biror masalani to‘g‘ri hal qilish uchun matbuotda yoki ilmiy yig‘inlarda o‘tkaziladigan erkin, ommaviy muhokama; munozara.

Jahongashta [forscha ko‘p sayohat qilgan, jahon ko‘rgan] Dunyo kezgan, ko‘p yerlarni ko‘rgan, ko‘p sayohat qilgan.

Liberallashtirish [lotincha liberaus – erkin, ozod] Mamlakat ijtimoiy hayotining barcha sohalarida keng erkinliklar berish; iqtisodiyotga va fuqarolar shaxsiy hayotiga davlat aralashuvini bekor qilish yoki kamaytirish.

2-topshiriq. Asosda qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni belgilang.

Angla, sanoqsiz, yashovchan, pasaymoq, susaymoq, yig‘loqi, dumaloq, qaynoq, sayroqi, so‘roqsiz, urna, qulog‘i, bo‘yog‘i, tomog‘i, tilagi, yuragi, shahrimiz, ko‘ngli, singlisi, mening, undan, bunday, ekkani, eshikka, bog‘ga, boqquncha, ekkuncha, chohga.

1-mashq. Matnda yo‘l qo‘yilgan imloviy xatoliklarni to‘g‘irlab ko‘chiring.

Ahmad yassaviy turkiston dagi yassi shahrida tavallud topdi. Uning otasi Ibrohim turkistonning taniqli shayxlaridan edi. Yosh Ahmad dastlab arslon bobodan, so‘ngra buxoroda Yusuf Xamadoniydan tahsil oldi. Tasavvuf ilmi bilan jiddiy shug‘ullanib, yassaviya tariqatiga asos soldi. Ahmad Yassaviydan bizgacha “Hikmatlar” yetib kelgan. Xalq orasida u “devoni hikmat” nomi bilan mashhur. hikmatlarga qul xoja ahmad, xoja ahmad yassaviy, ahmad ibn ibrohim, sulton xoja ahmad yassaviy, miskin ahmad kabi taxalluslar qo‘yilgan. Yassaviy she’rlarida nafsni yengish g‘oyasi asosiy o‘rinni egallaydi. Mana bir necha asrdan beri uning hikmatlari xalqimiz tomonidan sevib o‘qilib kelinmoqda.

2-mashq. Quyida berilgan gapdagi xatoliklarni to‘g‘irlab ko‘chiring. Nima sababdan so‘zlar bunday yozilishini izohlang.

1.Mehribon kishining pand nasihatlarini olgin ular seni saodatga yetaklaydi ko‘zing sog‘ida ezgulik qil mol dunyong borida ulash yedir. 2. Beva bechora mayib majruh xoru zor insonlarga ko‘ngildan chiqarib berilgan moddiy yordam pul non mayiz yong‘oq kiyim bosh va hokazoga xayr sadaqa deyiladi. 3. Go‘zalik shunday narsaki u insonda mehr muhabbat shodlik erkinlik va shunga o‘xshash tuyg‘ularni uyg‘ota olishi shart. 4. Poytaxt aatrofidagi ko‘plab so‘lim manzillarga boradigan avtobuslar shu yerdan jo‘naydi parkent so‘qoq kumushkon oqtosh chimyon sijjak.

3-mashq. Fonetik va morfologik tamoyil asosida yozilgan so‘zlarni toping va izohlang.

1. Bundan keyin yolg‘on gapiradigan bo‘lsang, bilib qo‘y, men oyingga o‘xshab og‘rimaydigan qilib urmayman-a! 2. Kechalari osmonga boqasan-u men yashaydigan, mening kulgim yangrayotgan yulduzlarning barchasi jilmayib kulayotganini ko‘rasan. 3. Umuman olganda, milliy valyuta davlat mustaqilligining asosiy belgisi hisoblanadi. 4. Shunday bo‘lgandan keyin majlisga jiddiy tayyorgarlik ko‘rib borilmasa bo‘lmaydi. 5. Qog‘ozga qancha yulduzim borligini yozib chiqaman-da, keyin shu qog‘ozni tortmaga solib qulflab qo‘yaman.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa: Bog‘lanishli matn tuzing. Unda imlo tamoyillari asosida yoziladigan so‘zlardan foydalaning.

III bo‘lim. Leksikologiya

11-mavzu: Leksikologiya va uning obyekti, turlari, vazifalari

Reja:

1. **Leksikologiya haqida ma’lumot**
2. **Leksikologiyaning obyekti, turlari hamda vazifalari**

1-topshiriq. Vatan haqida bitta she’rni daftaringizga yozing va bu she’r tarkibida nechta so‘z ishtirok etayotganini aniqlang.

2-topshiriq. Leksema va so‘z o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida o‘z fikrlaringizni bayon eting. So‘z deganda nimani tushunishingizni bayon qiling. So‘zlardagi ichki ma’noviy farqlarni izohlab bering.

Boshqacha – o‘zgacha – ajib – ajoyib – g‘alati – g‘aroyib – alomat – antiqa. Tuzuk – durust – bir navi – yaxshi – zo‘r – a’lo – gap yo‘q – mixdek.

1-mashq. Quyida berilgan gaplar tarkibidagi so‘zlarni lug‘aviy va grammatik ma’no anglatishiga ko‘ra farqlarini tushintiring.

1.Bir safar men bir kunda qirq uch marta quyosh botishini tomosha qilganman! 2. Nonushta vaqtim bo‘lib qoldimi deyman,-dedi u saldan keyin. Baraka topkur, menga yordam qilarsiz-a? 3. Anglashimcha, u jahongashta qushlar bilan birga parvoz qilishga qaror bergan. 4. Oxirgi kuni ertalab u odatdagidan ko‘ra boshqacharoq g‘ayrat bilan sayyorasini tozalashga kirishdi. 5. U o‘zining silkinib-silkinib yig‘layotganini Kichkina shahzoda ko‘rishini istamas edi. 6. Qirol gapini chalkashtirib, hatto birmuncha ranjigandek ham bo‘ldi. 7. Agar a’lo hazratlari amr-farmonlarining so‘zsiz bajarilishini xohlasalar, - dedi u, - u holda, menga hozir oqilona farmoyish berishlari lozim. 8. “Ha, shubhasiz, kattalar juda-juda g‘alati xalq”, deb xayolidan kechirdi yo‘lida davom etarkan. 9. Nima jiddiy, nima nojiddiy-buni Kichkina shahzoda kattalar singari emas, o‘zicha tushunardi. 10. Demokratiya ustun bo‘lgan jamiyatda konstruktiv sog‘lom oppozitsiyaning roli juda katta bo‘ladi.

2-mashq. Gaplarni ko‘chiring ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning leksik va grammatik ma’nosini izohlang.

1.Farzand umr bog‘ida hayotdek aziz, shirin. 2. Tuhmatning oyog‘i qisqa, uzoqqa bormaydi. Haqiqat to‘q danak, ko‘msa ham ko‘karib chiqadi. 3. Mehnat bilan topilgan non beminnat bo‘ladi. 4. Qahramon ota, jasur o‘g‘il, jafokash ona, hijronzada qalliq, hurmatli yodgorlik oldida uzoq bosh egib turdim. 5. Yaramas, fosiq odamlar bilan suhbatdosh bo‘lish ilonni asrashga o‘xshaydi. Ilon har qancha asralsa ham, zahari va ziyoni kamaymaydi, balki ko‘payadi.

3-mashq. Gaplarni o‘qing, o‘z va ko‘chma ma’noli so‘zlarni aniqlang. Ko‘chma ma’noli so‘z ishtirok etgan gaplarni ko‘chirib, ma’nosi ko‘chgan so‘zlarning tagiga chizing.

1. Agar derlar ko‘ngil yosh bo‘lsa, Oq soch o‘zi bir husn erur. 2. Oqsoch har baloni eplaydi, xumpar, nayrangdan shaytonga dars beradi. 3. Avval o‘z bolalaringni va jigarlaringni oq podshoh qo‘shiniga yuborib ko‘ringlar-chi. 4. Yuzim chaydim chiroyingga, oyingga. 5. Ishonmasdan qarardi Do‘ndiq, go‘zal yuzlarga. 6. Kechqurun u maktabga kelganda, kechaning tantanali qismi tugab, o‘yin-kulgi avjiga chiqqan edi. 7. Karim yo‘lda borar ekan, qulog‘iga Bibining ovozi eshitildi. 8. Bu suvning qulog‘iga yaqin, tekis yer edi. 9. Bir samovar bilan

bir necha choynak meniki bo‘ldi. 10. Otlarni saroyga bog‘lab, o‘zlari samovarga kirishdi.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa: Ushbu gaplardagi ma’no ko‘chishini izohlang.

Besh qo‘lini og‘ziga tiqmoq, besh qo‘l barobar emas, yuzlar, ko‘zlar boqar edi biz tomon, eshikka kiraylik. O‘zingiz ham yuqoridagiga o‘xshash ma’no ko‘chishga misollar yozing.

12-mavzu: Ona tili lug‘at tarkibining ma’no jihatdan tavsiflanishi.

Reja:

1. Lug‘at tarkibining ma’no jihatdan tavsiflanishi.

2. Ma’no ko‘chish turlari.

1-topshiriq. Temir so‘zining o‘z va ko‘chma ma’nosini aniqlang. Ko‘chma ma’no bilan to‘g‘ri ma’no o‘rtasida qanday bog‘liqlik borligini ayting. Shunday so‘zlarga bir nechta misollar toping.

2-topshiriq. Berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing. Omonim yoki polisemantik so‘z ekanligini aniqlang.

Do‘st, yosh, yuz, nafis, mol, oyoq, bel, tut, yengil, gul, sher, sana, uch, o‘ch, quloq.

1-mashq. Quyidagilar orasidan ko‘chma ma’nodagi so‘zlarni aniqlang.

1. Rangi biroz siniqqan, ammo ko‘rkam chehrasida qat’iyat balqib turgan yigit ko‘zlarini chirt yumib uxlab yotardi. 2. Anvar uning ko‘zlaridan o‘ziga qadrdon bo‘lib qolgan iliq mehrni sezdi-yu quvonib ketdi. 3. – Shoir bo‘lolmadingiz! – Muqaddam kulgi to‘la ovozda uning gapini kesdi. Keyin yupatdi: – Mayli, jurnalist bo‘ldingiz-ku! 4. Muqaddam ishga kelgan birinchi kuniyoq bu ayol qishloqda “Huri do‘xtir” deb tanilib ketganini, odamlar uni qattiq hurmat qilishini eshitgandi. 5. U yengil-yengil qadamlar bilan hovli tomonga yurib ketdi. 6. Alimardon hozir uning yuragiga bigiz sanchishidan zavqlanar, ich-ichidan toshib kelgan kulgisini arang bosib turardi. 7. –Xo‘sh, ishlar qalay endi, o‘rtoq direktor? Paxtaning mazasi yo‘q-ku? 8. Nazarov taxir, chuchmal suyuqlikni ichib yubordi – hayhot! Yarim soat orasida ko‘zi charaqlab ochilib ketgandek bo‘ldi! 9.O‘ktam ularni ko‘rib o‘rnidan turgan edi, o‘zlari qaraguncha chorpoya qoshiga suyanib turaverdi.

2-mashq. Quyidagi so‘zlarning har biri bilan ikkitadan gaplar tuzing. Ularning birida shu so‘z o‘z asl ma’nosida, ikkinchisida ko‘chma ma’noda qo‘llansin.

Shayton, tulki, ola, tor, yumshoq, dum, ajdaho, ilon, tomoq, luqma, dunyo, og‘irlik, shisha, tosh, karam.

3-mashq. Berilgan gaplardagi ma’no ko‘chish turlarini aniqlang.

1.“Abulfayzxon” dramasi Fitrat qalamiga mansub. 2. “Chorsu” mehmonxonasi. 3. “E, sizlar hukumat emasmi?” – dedi chol. 4. “Menga bir burda non bo‘lsa bas” degan so‘zi hamon yodimda. 5. “Oltin vodiy” poyezdi. 6. “Qalandar” muvofaqqiyat qozondi. 7. “Samsung” firmasi brendida negadir “A” harfining “belbog‘i” yozilmagan. 8. “Zarafshon” futbol komandasi. 9. Adashgan ekanman, bilsam, cho‘llarda, Mana endilikda tushunib yetdim. 10. Ahmad olti tom narida yashaydi. 11. Alisher Navoiy o‘z qalami bilan butun dunyoni zabt etdi. 12. Amarfuzin malhami. 13. Bizning qishloqda internet yo‘q. Bizning “internet” – mahalla ayollari. 14. Bo‘ston qishlog‘iga og‘ir-vazmin qadamlar bilan kuz kirib keldi. 15. Boshim qattiq og‘riyapti. 16. Bu oy yaxshi o‘tdi. 17. Bu ko‘zlar, bu qoshlar menga tanish. Qayerda ko‘rdim ekan? 18. Bu mehribon qo‘llar bizni ham chetga surib qo‘yishmadi. 19. Bu qasidam senga, xalqim, Oq sut-u tuz hurmati.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa: Ma’no ko‘chish turlariga 5 tadan misollar yozing.

13-mavzu: Lug‘at tarkibining shakl va ma’no munosabatlari jihatidan tavsiflanishi.

Reja:

1. Lug‘at tarkibining shakl va ma’no munosabatlari jihatidan tavsiflanishi.
2. Omonimlar va sinonimlar.
3. Antonimlar va paronimlar
4. Uyadoshlar so‘zlar.

1-topshiriq. Quyidagi so‘zlarning omonim ekanligini isbotlang.

Chopmoq, son, yoz, tut, qovoq, tilim, havo, rasm, yuz, mushak, rux, kadr, karam, ort, chog‘, band, tom, chang, oq, tik, o‘t, sog‘.

Namuna: chopmoq – yerni chopmoq va yugurmoq.

2-topshiriq. Sinonim so‘zlarga misollar yozing va ular ishtirokida gaplar tuzing.

1-mashq. Gaplarni ko‘chiring hamda gaplar orasidan omonim bo‘lgan so‘zlarni toping.

1. Tushga qolmay yukimiz ot aravaga otildi. Ahmad Mirzo bo‘sh kelmay, uning yo‘lini to‘sdi: – Tush pastga 2. Yolg‘onchining muruvvati bo‘lmaydi. U harinsonga zahar sochadi. Muqaddam uning qo‘llari chakkasidagi sochlariga tekkanini sezib, cho‘g‘ tekkanday seskandi. 3.Yuziga salqin shabada urildi, orom oldi. – Bunday qahramon yuz yilda bir marta tug‘iladi. 4. Ana, ko‘chada tramvay, trolleybuslar bor. Bor, toshingni ter! 5.Gul bag‘rini nasim tildi- to‘kildi. Muhabbatli, mehrli, go‘zal, janona tilim, Asl durdona tilim. 6.Rahmi kelib bulutning Yig‘lab to‘kar yoshini Tarixiy jarayonlarni yoshlarimiz, butun mamlakat ahli yangi ong hissi bilan qabul qildi. 7. “Alif”laring o‘q qilib ot ular ko‘ksiga Shu yerda turib o‘q otaman. 8. Do‘ppaygan qorni lip-lip ucharmish. To‘rt – besh bo‘yra eni qorni kurab yerni ochardi. 9.Keyin telefon trubkasini olib bog‘ni ulashni buyurdi. Yaxshidan bog‘ qolar, yomondan dog‘. 10.Amudaryo suvlaringdan o‘tolmayman. Dov-daraxt, o‘t-o‘lan xuddi yer kabi oltin tus oladi.

2-mashq. Ko‘chiring. Ajratib ko‘rsatilgan omonim so‘zlarning ma'nolarini izohlang.

1. Ayshingizni surib yura berasiz. Paxta har yili yuz! Pilla yuz. 2. Mayin kulimsar yuzi, Tajangliklardan yiroq. 3. Dunyoda bor ekan har narsaga chek. Bema'ni umringga bir oz qayg‘u chek. 4. Tegirmonchi Roziq degan chol, Cholning yuzi, ko‘zi doim un. 5. Dodlay desam chiqmas unim, Nima qildim, nima qildim?! 7. Bir masalaning hali uchun qoshingizga kelgan edim. 8. Bu atrofda hali ko‘p izg‘iydi u. 9. Yana bir kasb etgan baxtim sizsiz, azizim. 10. Mayli, lekin biron majlis sizsiz o‘tsa nima bo‘pti?

3-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning omonimlarini toping.

1. Xon shu kechasiyoq kampirga **chopar** yubordi. 2. Dildor yugurib borib Davlatbaxtning xonasidan g‘ijjak, tanbur, **daf** keltirdi. 3. **Belni** aldab-aldab ishga solmasak bo‘lmas. 4. Men ikkinchi **rang** harbiy vrachman. 5. U turtinib, plashchining bari butalarga ilinib, hansirardi. 6. Sog‘inib kutdim, **yoshim** marjon bo‘lib. 7. **Unga** musiqiydan dars berish uchun jaziramada, qoq to‘p paytida piyoda borib-kelib tursa, bu qanaqa muhabbat bo‘ldi.

4-mashq. Quyidagi gaplar orasidan sinonim so‘zlarni topib, sinonimik qatorni hosil qiling.

1.Bu ulkan lashkarning xatti-harakatlari go‘yo bulutdagidek aniq bir qoidaga bo‘ysunardi. 2. Shimoliy qutbdagi yagona fonusni yoqishi lozim bo‘lgan

charog‘bon bilan uning Janubiy qutbdagi hamkasbiga hammadan ham mazza edi. 3. U fonusini yoqqan paytda go‘yo yana bir yulduz chaqnagandek, yoki yana bir gul ochilgandek bo‘ladi. 4. Bir marhamat qiling, quyosh botsin, deb farmon bering. 5. Kechalari osmonga boqasanu men yashaydigan, mening kulgim yangrayotgan yulduzlarning barchasi jilmayib kulayotganini ko‘rasan. 6. Agar sen meni qo‘lga o‘rgatsang, qorong‘i turmushimga nur kirardi. 7. Bir lahzadan keyin ko‘z o‘ngidagi narsalar tag‘in siyrak tumanlik ichida yo‘qoldi-yu, yana alahlay boshladi.

5-mashq. Matnni o‘qing. Uning tarkibidagi lug‘aviy sinonimlarni topib, ularni alohida ko‘chirib yozing.

Har bir inson uchun o‘z muallimini va ustozini e’zozlash, hurmat va ehtiromini ado qilish shartdir. Negaki, bu zotlar har qanday insonning ruhini tarbiyalaydi, ma’naviy boylik bilan to‘ldiradi, har qanday ruhiy va maishiy kamchilik hamda illatlarni poklaydi, jaholat degan buyuk aybdan xoli va ozod qiladi.Muallim va ustoz shunday zotki, u insoniyatni ilm bezagi bilan ziynatlaydi, ularga chiroyli va yoqimli fazilatlarSavol va topshiriqlar bilan chiroy va oro beradi, tushuntirish bilan foydasiz narsalardan odamni xalos etadi, insonni haqiqiy komil inson darajasiga yetkazish bilan bilim xazinasini ularning qalblariga joylaydi. Muallim va ustoz shunday zotki, u sening insonlik haq-huquqlaring nimadan iborat ekanini tushuntirib beradi, yaramas, yomon ishlardan qaytaradi va eng yaxshi ishlar va fazilatlar sari yo‘l ko‘rsatadi. Ular sening yuksakliging va kamolga yetishingni o‘ylashib, hamisha jon kuydirishadi, el ichida o‘ylab, butun kuch va imkoniyatlaringni ishga solishadi. Muallim va ustozning vaqtlari qimmatli ekanligini bilib, aytganlariga diqqat bilan quloq sol. Bordi-yu, biror narsani tushunmay qolsang, odob va muloyimlik bilan qayta so‘rashing zarur. Muallim va ustozing nima so‘rasalar kulib turib, odob va ikrom bilan chiroyli so‘zlarni saralab javob ber. Ilm maskanidan tashqarida yoki ko‘cha-ko‘yda ularni ko‘rib qolsang ta’zim bajo qil, qo‘lingni ko‘ksingga qo‘yib salom ber.

6-mashq. Ishbilarmon so‘zidan turli xil so‘zlar hosil qiling.

Namuna: ish, bilim, armon, ishla ….

7-mashq. Gaplar tarkibidagi antonim so‘zlarni aniqlang.

1. Xullas, g‘am bosganda yig‘lamagandan yig‘lab o‘lgan yaxshi emish! 2. Shu boisdan ham sevishganlar odamlarning nazariga tez tushadilar. 3.Yana bilginki, tashqi dushmandan ham ko‘ra ko‘proq ularning aravasiga minganlar yomon. 4. Demak, bu tun o‘ylanadi, reja tuzadi. 5. Uch kun safarda bo‘ldim.

Nilufar lablari pirpirab, sekin burildi-da, olisroqda turgan yashil “Volga”ga qarab ketdi. 6. Odamning yaxshi yomonligi boylik-kambag‘allikka qaramaydi. 7. Shunda, to‘rimda o‘tirmish bir katta ko‘zlarini bet-boshim lo‘q etdi. 8. Qilich ikkinchi piyoladagi choyni ichib ulgurmay eshik ochilib, jussasi kichik, eti ustixoniga yopishgan, qaldirg‘och mo‘ylabi o‘ziga yarashgan odam ko‘rindi. 9. – Juda xokisorsiz-da, ustoz. Betayin jiyanni qidirish bir, katta boshingizni kichik qilib. 11. – Shu gapingga noma’qulni nonini yebsan! Olib tush pastga! Xiyobonning ikki tomonidan ikki to‘p kishi baland tovushda gapirib, kela boshlashdi. 12. Qoramtir, keng dala etagida traktor turibdi. 13. Ular tor ko‘cha boshidagi kattakon xarsangtosh oldida xayrlashdilar. 14. Buning ustiga dala, toza havo, tog‘asi bilan ovga chiqishi mumkin. 15. Nega desangiz, qipchoq degan iflos barchani ham jonidan to‘ydirdi,-dedi va nosqovog‘ini qoqa-qoqa bitr otimini tilining tegiga tashladi.

8-mashq. Antonim so‘zlarni juftlang va ular ishtirokida gap tuzing.

Yaxshi, urush, xafa, avval, yo‘g‘on, kecha, ilgari, ozg‘in, tinchlik, qora, ingichka, keyin, yolg‘onchi, xursand, dushman, yomon, bugun, hozir, qisqa, oz, keng, yer, kun, qari, semiz, rostgo‘y, uzun, ko‘p, tun, yosh, tor, osmon, do‘st, oq.

9-mashq. Katakchalarni to‘ldirib leksik birlikning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turini yozing.

Leksik birlik	**Sinonimi**	**Antonimi**	**Paronimi**

10-mashq. Gaplarni ko‘chiring va paronim so‘zlarni toping va ma’nolarini izohlang.

1. Mana shu uch buyuk qadriyatni xalqimiz asrlar davomida hamisha e’zozlab kelgan. 2. Naql qilishlaricha, bir yigit yov qo‘liga asir tushadi. 3.Vertolyot Ola Mo‘nguning oq qorli, ko‘k muzli dovonidan oshib o‘tib, bulutlar ortida ko‘zdan g‘oyib bo‘lgandan keyin ham Akbar yana anchagacha o‘ziga kelolmay, qalt-qalt titrab turdi. 4. 1409-yilda Durbek o‘zining «Yusuf va Zulayho» dostonini tugatadi va alohida devon sifatida turkiy xalqlar orasida tarqalib ketadi. 5. Ot egar-abzali og‘ib, oyoqqa turdi. 6. Sizning har bir so‘zingiz biz uchun tilladan afzal. 7.Ona quyosh dastlab qaldirg‘och qanotiga o‘xshab ko‘rinadi-da, zum o‘tmay tog‘ning yassi cho‘qqisida qip-qizil mis tovoqday tovlanib, vohaga ajib bir zar to‘kadi. 8. Ana endi, quyoshda mazza qilib, toblanib yotamiz. 9. Onamiz qalb amri bilan paxtakorlarga yordam bergich onaxon bo‘lib surat tushar bo‘ldi. 10. Buxoro amiri dorga torttirgan ziyo ahli orasida Shoakbar Zunnuniy ismli zotning

buyuk salohiyat egasi bo‘lgani haqid atarix kitoblarida bir qancha satrgina bor. 11. O‘n yildan beri kichik ilmiy xodimlikdan bir enlik ham siljimabdi. 12. Bundan ellik yil burun Jazoirda yashar, davra ko‘rgan, erka, bedard edim. 13. Zelixon sof ko‘ngilda to‘yona bergan bo‘lsa-da, gaplaridagi ohangda biroz manmanlik, minnat sezilgan edi.

11-mashq. Quyidagi so‘zlarning paronimlarini topib, paronimik juftlik hosil qiling.

Sig‘im, sof, undosh, bob, sutxo‘r, sirop, soliq, tanbur, siqim, tub, urush, amr, tong, daho, undash, so‘qmoq, sop, fol, dovon, abzal, sudxo‘r, enlik, tang, suqmoq, daha, urish, solih, devon, afzal, tup, bop, serob, amir, pol, ellik, tambur.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa: Badiiy asardan so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari ishtirok etgan 10tadan gaplarni yozing.

14-mavzu: Lug‘at tarkibidagi so‘zlarning kelib chiqishi, ijtimoiy guruhlar tomonidan qo‘llanishi jihatidan tavsiflanishi.

Reja:

1. Lug‘at tarkibidagi so‘zlarning kelib chiqishi, ijtimoiy guruhlar tomonidan qo‘llanilishi va tavsiflanishi

2. Tarixiy shakllanish jihatidan ona tili leksikasi

3. Hozirgi ona tili leksikasining ijtimoiy-dialektal tarkibi

1-topshiriq. Berilgan so‘zlarni o‘zbek tili lug‘at tarkibiga ko‘ra guruhlarga ajrating.

Anhor, asbob, bahor, bobo, dazmol, dehqon, duovit, elektr, eman, foto, gul, nihol, shamol, cho‘l, qor, amma, afsona, guruch, qaychi, tog‘ora, siz, qizil, sakkiz, go‘zal, qattaq, tog‘a, yulduz, daryo, men, o‘n, loykaster, qul, taxya, lizing, o‘jak, non, ketmon, oq, farzand, sariq, bo‘ron, randa.

2-topshiriq. Hozirda o‘zbek tiliga yangi o‘zlashgan so‘zlardan 10 ta misol topib yozing.

1-mashq. Quyidagi gaplar tarkibidan shevaga xos so‘zlarni aniqlang.

1. Ichkaridan Anvar chiqdi. Nima bo‘layotganini anglay olmay serrayib turdi. 2. Sen opang Jumagulning tob o‘zisan. 3. Ot jo‘q ekan-da, - dedi sherigi afsuslanib. – Jaxshi otdan ham qiymat bo‘ladi. Jur, ol, chig‘ayiq. 4.Oldindagi moshin qayoqqa yursa, biz ham ashaqqa yurovramiz. Aqqa-baqqa qaramasdan yurishasanlar, deb buyurishgan. 5. Bundaychikin polvonni yana qaytib davraga

yonoshtirmaslik kerak. 6. Yigit bilmas edi, shuning uchun bo‘lsa kerak, katta chiroyli ko‘zlarini javdiratib: - Nevlay, - dedi. 7. Dim yaxshi, men ham jiyanim Bahodirni sog‘ingan edim. 8. Bizning Tarlonga go‘balak doridi. 9. Hamza og‘a, karvich yetmayapti, - dedi maktab binosini qurayotgan ustalardan biri.

2-mashq. Gaplarni ko‘chiring, dialektal so‘zlarni aniqlang, ular qaysi shevaga xos ekanini va adabiy tildagi shaklini ayting.

1.Ma’lumki, tun bilan kunduz tenglashgan tongda ko‘katlar bulturgi ildizlaridan bosh ko‘tarib chiqadi, daraxtlar pindig‘i bo‘rtadi, tabiat uyg‘onib, yer ko‘pchiydi. 2. Bozordagilar: “Jinoyat amakimdi eshagining ham aytgani aytgan, degani degan”, deyishsa, qishloqdagilar: “Jinoyat oqsoqol eshagiga xalacho‘pdi ham birovning tolidan sindirib oladi”, - deyishardi. 3. Sen bilan biz baqlarda yuribmiz, xolos. 4. Huv o‘qishni bilgan axtig‘imdan aylanay, - deb buvisi nabirasining yelkasini qoqib qo‘ydi. 5. O‘rikka chiqib, g‘o‘ra uzib yeyishni, allaqachon o‘rgangan. 6. Yuraklarim ezilib ketdi, hadeb tushimga kirvotti. 7. To‘satdan oranglardan ola pishak o‘tdimi? 8. Saidahmadxon Eshonxon ko‘k choy suzib uzatgan piyolani oldi. 9. Shundan keyin tez-tez ko‘rishib turish odatga aylandi. Asosiy pakkamiz bog‘ning etagi. 10. Sekin, sekin, aya, birov eshitib qoladi.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa. O‘zingiz yashayotgan hududga oid bo‘lgan shevaga xos so‘zlardan misollar topib yozing.

15-mavzu: Lug‘at tarkibidagi ajralmas birikmalar - frazeologik birikmalarning ma’no va tarkib jihatdan tavsiflanishi.

Reja:

1. Lug‘at tarkibidagi ajralmas birikmalar – frazeologik birikmalarning ma’no va tarkib jihatidan tavsiflanishi

2. Frazeologiya haqida ma’lumot

3. Frazemalarning ma’no xususiyatlariga ko‘ra asosiy belgilari va turlari

1-topshiriq. Guruh o‘rtasida **“Yaxshi va yomon”** o‘yini tashkil eting. Bunda **“Yaxshi”** guruhi ijobiy ma’nodagi, **“Yomon”** guruhi salbiy ma’nodagi iboralarga misollar topishi kerak.

2-topshiriq. Quyidagi berilgan iboralar asosida gaplar tuzing.

Hafsalasi pir bo‘lmoq, ko‘zi ochilmoq, qulog‘i tom bitmoq, oyog‘ini qo‘lga olmoq, boshi osmonga yetmoq, ko‘zi uchib turgani yo‘q.

1-mashq. Gaplarni ko‘chiring va ular tarkibidagi iboralarni toping.

1. Elchi shayxni yerning tagidan bo‘lsa ham topib darhol g‘aznada hozir-u nozir qilish to‘g‘risida Sultondan farmon keltiribdi. 2. Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi. 3. Ertaga elning og‘ziga tushadi, unda nima degan odam bo‘lamiz, xalq nima deydi? 5. So‘zimni yerda qoldirmaslig‘ingizga ishong‘anim vajida, dedi Og‘acha jiddiy tus olib, siz bilan bu to‘g‘risida maxfiy bir-ikki og‘iz gaplashmoqchi edim. 6. Qani og‘zimga gap kelsa, tilim o‘lgurga kaltak keldi – qo‘ydi. 7. Nazirabonu qo‘lini boshi uzra ko‘targach faryod chekib, o‘zini sozandalar davrasiga urdi. 8. Devorning shundoqqina tagida, odamni chaqsa, yarim minutda til tortmay o‘ldiradigan bir ilon bo‘ynini gajak qilgancha Kichkina shahzodaga tikilib turardi. 9. U favvoradan ko‘z uzmay o‘tirar, chehrasi suv ichida aylanayotgan nurlar aksida goh qizarib, goh ko‘karib ko‘rinardi. 10. Lekin tabiatan ko‘ngli ochiq kishi bo‘lgani uchun Sodiqni ko‘rib, o‘rnidan turdi.

2-mashq. Quyidagi gaplar ichidan iboralarni toping va ma’nosini izohlang, gaplarni sintaktik tahlil qiling.

1. Shundagina u tark etilgan guliga behad achinib ketdi, dilini g‘ussa chulg‘adi. 2. U umrida faqat bir marta 16-17 yashar mahalida mana shunday yorug‘ kunlarni boshidan o‘tkazgan edi. 3. “Ha, shuning uchun og‘zi qulog‘ida ekan-da!” 4. Kelganiga ancha bo‘lgan ekan-da. Alimardon nima uchun quvonayotganini o‘zi bilmasa ham qizdan ko‘z uzolmay qoldi. 4. Alimardon uning har bir harakatini diqqat bilan kuzatar, miyasi g‘uvillab ketgan, chalkash tuyg‘ular ichida to‘lqinlanar edi. 5. Muqaddam shiftga tikilgancha yotar, xayoli chuvalashib ketgan, nimani o‘ylayotganini o‘zi bilmasdi. 6. Beruniy ko‘nglidagi g‘alayonini bosish uchun mo‘risimon qalpoqchasini to‘g‘irlab boshini xam qildi. 7. Barot chol katta choynakda choy keltirdi, stolning u boshiga qo‘yib, qo‘l qovushtirdi. 8. Biroq uning ko‘ngli juda yumshoq edi. 9. Notanish kishi kapitan ko‘prik hasiga qaytdi va kema panjarasiga tirsaklarini tiragancha tag‘in o‘yga cho‘mdi.

3-mashq. Iboralarni topib, turlarga ajrating; har bir turga oid ikkitadan gapni ko‘chirib, ma’nolarini izohlang.

1. Arava bo‘lsa almisoqdan qolgan, yana sinibdi. 2. Aravani quruq olib qochish evi bilan-da, avval burningni artsang-chi. 3. Ishqilib baraka topsin shu doktorlar, boshing yostiqqa yetganda joningga ora kirishadi. 4. Yo‘qlab kelibsan, boshim osmonga yetdi. 5. Qizlar har zamon ishdan bosh ko‘tarib, bir-biriga gap otishadi. 6. Qorasochning dili siyoh bo‘lib, birdan xo‘rligi keldi. 7. Amalda ishni izdan chiqarib yuboribsiz! 8. Kavushini to‘g‘rilab qo‘yish kerak: qurilishni ham,

kollektivni ham sariq chaqaga sotadi. 9. Hoji xola ko‘zi ilinib, endi xurrak ota boshlagan edi. 10. Uning ko‘zlari qinidan chiqayozdi.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa: Badiiy asardan iboralarga 10ta misol topib yozing.

16-mavzu: Leksikografiya

Reja:

1. Leksikografiya haqida umumiy ma’lumot

2. Lug‘atlar va ularning tiplari: ensiklopedik va lingvistik lug‘atlar

3. Bir tilli va ko‘p tilli lingvistik lug‘atlar. Bir tilli lingvistik lug‘atlarning tiplari

1-topshiriq. Berilgan so‘zlarning ma’nosini “O‘zbek tilining izohli” lug‘atidan aniqlang.

Achitqi, buyuk, bank, dastur, dehqonchilk, eksport, fusun, makon, imkon, insof, ziroatchilik, import, maktab, bop, asal, chiroy, ultimatum

2-topshiriq. Quyidagi berilgan lug‘at turlarining amaliy ahamiyati haqida o‘z fikringizni bildiring. Yana qanday lug‘at turlarini bilasiz?

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”, “O‘zbek tilining orfoepik lug‘ati”, “Imlo lug‘ati”, A.Hojiyev “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”, Sh.Rahmatullayev “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”.

1-mashq. Berilgan matndagi imloviy xatoliklarni aniqlab gaplarni ko‘chiring.

achchiqko‘l – farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumanidagi qishloq. achchiqko‘l – asli suv havzalaridan biri – ko‘lning nomi, ko‘l suvining achchiqligi, o‘ta sho‘r ekanligi, iste’mol qilish uchun yaroqsizligi ko‘lning shu tarzda nomlanishiga sabab bo‘lgan. Ko‘l hozirda yo‘q bo‘lib ketgan, lekin uning nomi shu atrofdagi aholi turar joyi atamasi sifatida saqlanib qolgan. aniqrog‘i ko‘l nomi asosida qishloq nomi vujudga kelgan. Xalqimizda “Ko‘l qurisa ham nomi qurimaydi” degan naql bor. Darhaqiqat respublikamizda garchi o‘zi qurib, yo‘qolib ketgan bo‘lsa-da, nomi hamon saqlanib qolgan ko‘llar anchagina topiladi. Ular hozirda qishloq nomlari sifatida yashab kelmoqda. shaytonko‘l oydinko‘l qorako‘l oqko‘l damko‘l qo‘g‘aliko‘l bordimko‘l darvozako‘l sho‘rko‘l chapko‘l polvonko‘l oltinko‘l bordonko‘l singari qishloq nomlari hozirda mavjuddir.

2-mashq. Guruh talabalari bilan “**Bu meniki o‘yini**” o‘yinini tashkil qiling. Bunda talabalar 2 guruhga bo‘linib, 1-guruh til undoshi bilan boshlangan, 2-guruh bog‘iz undoshi bilan boshlangan so‘zlarni aniqlab ajratib yozishlari kerak.

…atar, …ajviy, …ayr, …afsala, …alak, …omtok, …akam, …amsuhbat, …orijiy, …amdam, …izmat, …andalak, …ayrxoh, …assa, …iyla, …arakat, …olis, …avaskor, …avola, …onzoda, …ayvon, …ayajon, …olavachcha, …aykal, …ayron, …otira, …ibsxona, …urmo, …asham, …um, …isobot, …unuk, …imoya, …uruj, …okim, …usnixat, …urofot, …umoyun, …ushro‘y, …unarmand, …o‘ja, …ukm, …olat, …otirjam, …osila, …ovli, …ona, …uquqshunos, …omcho‘t.

3-mashq. Imloviy savodxonlikni tekshirish uchun sinov diktanti olinadi.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa: Atrof-muhitdagi imloviy jihatdan xato yozilga so‘zlarni aniqlang. Bundan holatlatlarning yuzaga kelishiga qanday omillar sabab bo‘lmoqda shu haqida fikrlaringizni bayon qiling.

IV bo‘lim. Morfemika

17-Mavzu: Morfemika va morfema haqida umumiy ma’lumot.

Reja:

1. Morfema haqida ma’lumot.

2. Yetakchi morfema va ko‘makchi morfema

3. Morfemalarning shakl va ma’no munosabati.

1-topshiriq. Berilgan qo‘shimchalarning omonim ekanligini isbotlang.

-siz, -sa, -ar, -ir, -a, -don, -kor, -dor, -xon, -kash, -gar, -m, -im, -ma, -oq, -uq, -an, -i, -qi, -chi, -qoq, -chak, -ish, -lab, -g‘in, -q, -qich, -y, -gir, bar-, -in, -li,- qir, -ch, -gi, no-, -g‘ich, -ik.

2-topshiriq. Qo‘shimchalar o‘rtasida sinonimlik va antonimlikka misollar yozing.

Namuna: shirali – sershira, mazali – bemaza.

1-mashq. Guruh talabalari orasida “**Ijobiy** va **salbiy**” o‘yinini tashkil qiling. Bunda so‘z tarkibidagi qo‘shimchaning yoki so‘zning antonimik juftini aniqlash orqali so‘zlar yoziladi.

Ijobiy:	**Salbiy:**
mehrli	**bemehr**
beozor	**dilozor**

2-mashq. Gaplarni ko‘chiring va gaplar tarkibidagi so‘z yasovchi qo‘shimchalarni toping.

1. Kapitan Gul havo o‘zgarishini kutishga majbur edi. 2. Anhor yuzi sekin-sekin qoraya boshladi. Qayerdadir chigirtka chirilladi. 3. Vovvillayotgan ovoz

eshitilyapti, shekilli. 4. Albatta, bu aytilgan gaplar yangilik emas. 5. U uzun yo‘lakning oxiriga yetib, o‘ng qo‘ldagi bir eshikni ochdi. 6. Muqarrar falokat tuyg‘usi tag‘in vujud-vujudimni muzlatib, karaxt qilib tashladi. 7.Muqaddam sarg‘ish jingalak sochli, serharakat, xushchaqchaq yigitni esladi. 8. Bularning barchasi oddiy bir haqiqatni yana bir bor tasdiqlaydi. 9. Munira ikkilanmasdan qaror qildi: u ketamiz desa, o‘zi qoladi. 10. Alimardon o‘ziga soddalik bilan tikilib turgan do‘stiga qarab, yana ataylab beparvo gapirdi.

3-mashq. So‘z yasovchi qo‘shimchalariga ko‘ra so‘zlarni guruhlarga ajrating.

Beodob, baxtli, paxtakor, noinsof, bevafo, guldon, gulla, farzandmand, nodavlat, unumdor, serfarzand, mardlarcha, terim, saylgoh, baodob, gulchi, ustachilik, sersuv, o‘yna, ixtirochi, issiq, serdavlat, qatnov, bema’ni, xalqaro, orombaxsh, bee’tibor, bemehr.

Qo‘shimcha + so‘z	**So‘z + qo‘shimcha**
Beodob	baxtli

O‘zingiz yuqoridagi jadvalni davom ettiring.

4-mashq. Berilgan gaplarni asos va qo‘shimchalarga ajrating.

1.Quyoshning so‘nggi nurlari qadalgan bulut parchalari shamday so‘nib, shamol asta-sekin tina bordi 2. Alimardon parparonday yelib ketgan mashinaning orqasidan qarab tishlarini g‘ijiriatib qoldi. 3. Baholarni boshqarib turmasdan O‘zbekiston sharoitida bozor munosabatlariga o‘tish qiyin. 4. Ular tepani kamardek o‘rab o‘tgan so‘qmoqlarni zinadek bosib pastga tushishdi. 5. Quduqdan sal narida ko‘xna tosh qo‘rg‘onning vayronalari saqlanib qolgan edi. 6. Anvar yumshoq o‘rindiqli kresloni Alimardonning oldiga surdi. 7. Bekat kasalxonasining bosh vrachi Qamariddin Shamsiddinovning otasi mashhur tabib o‘tgan. 8. Negaligini xudo biladiyu dilimni yana qo‘rg‘oshindek g‘ashlik qopladi. 9. Kuzatuv postidan yangragan qichqiriqni eshitgan yaxtadagilar kema bortiga tashlanib, g‘arb tomonga tikila boshladilar. 10. Orqada o‘tirgan Munira derazadan tevarakka tikilib, allanarsalarni o‘ylab borar edi.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa: Berilgan gaplar tarkibidagi so‘z yasovchi qo‘shimchalarni aniqlang. Gaplarni sintaktik tahlil qiling.

1. Bu quruqlik yoki biror orol bilan tutashgan burumasmikan? 2. U kuyovlardek yasanib, yangi kostum-shim kiyibdi. Ko‘kish yaltiroq galstuk taqib olibdi. 3. G‘allaning xarid narxi oshganligi g‘allakorlarga taxminan 3 milliard sof

foyda keltiradi. 4. Xona past, bozorga ochiladigan derazasining bir ko‘ziga qog‘oz yopishtirilgan, havosi bo‘g‘iq, achigan non, paypoq hidi kelar, lekin sim karavotlarga yap-yangi guldor ko‘rpalar solib qo‘yilgan edi. 5. Oxirgi kuni ertalab u odatdagidan ko‘ra boshqacharoq g‘ayrat bilan sayyorasini tozalashga kirishdi. 6. Anvar oyoqlarining uchigacha muzlab ketganini his qilib, Alimardonning beparvo ko‘zlaridan ma’no qidirib qoldi. 7. Bu fozil odam bo‘lib, matematika fanlariga moyilligi zo‘r edi. 8. – Shamshiddinov, bir soatga yaqin shu to‘g‘rida gaplashdik, xayolingiz mijozlaringizdamidi? 9. Negaligini xudo biladiyu dilimni yana qo‘rg‘oshindek g‘ashlik qopladi. 10. Anvar yumshoq o‘rindiqli kresloni Alimardonning oldiga surdi.

18-mavzu: O‘zbek tilida so‘z yasalishi

Reja:

1. So‘z yasalish tizimi

2. O‘zbek tilida so‘z yasalishi

3. Affiksatsiya va kompozitsiya usulida so‘z yasash usullari

1-topshiriq. Quyidagi qo‘shimchalar yordamida so‘zlar hosil qiling hamda ular ishtirokida gaplar tuzing.

-la, -siz, -don, -dosh, -kor, -lan, -dor, -li, -chi, -qi, -a, -q, -y, ba-, be-, -vchi, -gi, -ik, - sa, -n, -qin, -t, - soz.

2-topshiriq. Quyidagi so‘zlar yordamida qo‘shma so‘zlar hosil qiling.

Noma, sifat, qovoq, to‘qmoq, gul, baxsh, ham, qorin, quloq, qoqi, tosh, bolta, yurak, qarg‘a, qaychi, sovun, suv, tog‘.

Namuna: taklif+noma= taklifnoma, dev+sifat= devsifat.

1-mashq. Berilgan maqollar tarkibidagi yasama daftaringizga ko‘chirib yozing.

Daraxt ildizi bilan kuchli, inson – do‘stlari bilan. Qalbaki do‘st ochiq dushmandan yomon. Yo‘ldoshini tashlagan yo‘lda qolur. Yiqilganda bo‘lmasa tirak, vafosiz do‘st nimaga kerak? Rejasiz ish – qolipsiz g‘isht. Hushyorlik – mustahkam qo‘rg‘on. Ezgulikning cheki yo‘q. Bahorgi harakat – kuzgi barakat. Go‘zallik ilm-u ma’rifatda. Mard maydonda bilinadi, nomard – ishda. Do‘stlik barcha boylikdan afzal. Qo‘rqoqda uyat bo‘lmas. Aqlli o‘zini ayblar, aqlsiz – do‘stini. O‘qigan o‘qdan oshar, nodon turtkidan shoshar. Qo‘yni qassob so‘ysin, oshni oshpaz pishirsin. Nomard non ustida ham nolishini qo‘ymas. Itni qopag‘on qilgan egasi. Novvoyga non aziz, tegirmonchiga – un. Yer – don, dehqon – xazinabon.

2-mashq. Talabalar orasida **“Kim ilg‘or?”** o‘yinini tashkil qiling. Bunda har bir guruhdan bittadan talabalar chiqib xona doskasiga bittadan yasama so‘z yozsin. 1-guruh ot so‘z turkumiga, 2-guruh sifat va ravish so‘z turkumiga, 3-guruh fe’l so‘z turkumiga misollar yozishi kerak.

3-mashq. Berilgan qo‘shma so‘zlarni turkumlarga ajrating.

Namuna: Bilaguzuk – qo‘shma ot, olachipor – qo‘shma sifat.

Bilaguzuk, olachipor, tamom bo‘lmoq, shirinso‘z, achchiqtosh, sakkizoyoq, bodomqovoq, oltingugurt, tillaqo‘ng‘iz, e’lon qilmoq, kamunum, obod aylamoq, olib kelmoq, sarson etmoq, tumanlararo, biryo‘la, umumxalq, bir zumda, kinonigoh, sadarayhon, o‘zibo‘larchilik, tekintomoq, ikkiyoqlama, ta’zim aylamoq, kinoyulduz, olib sotar, g‘ayrat qilmoq, kirib chiqmoq, havorang, oshpichoq, kamsuv, biokimyo, umumshahar.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidan yasama so‘zlarga 30 ta misol topib ko‘chiring.

V bo‘lim. Morfologiya

19-20-mavzu: Grammatika va Morfologiya haqida umumiy ma’lumot. So‘zlarni turkumlarga ajratish tamoyili

Reja:

1. Grammatika haqida ma’lumot.

2. Morfologiya va so‘zlarni turkumlarga ajratish tamoyili.

1-topshiriq. Quyidagi qo‘shimchalar nechta so‘z turkum doirasida omonimlik hosil qiladi;

-in, -ma, -m , -dir, -chak, -lab, -choq, -qin, -i, -ik, -lik, -k, -ch, -kin, -da, -im, -ng. Misollar bilan isbotlang.

2-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni ziddi bilan juftlang:

Badavlat, gulsiz, notinch, beodob, shoxsiz, ko‘ngilsiz, beshira, beobro‘, o‘rinli, ko‘ngilli, iboli, davlatsiz, madaniyatsiz, sersuv, noo‘rin, sero‘t, beibo, shirali, aqlli, suvsiz, o‘tsiz, boobro‘, aqlsiz, sergul, tinch, shoxli, odobli, madaniyatli.

1-mashq. Matnni ko‘chirib oling. Qo‘shimchalarning turlarini aniqlab, yozilishini izohlang.

Bir vaqtlar bir odam yo‘lda yayov ketar ekan, o‘z-o‘ziga: Bu yerda, bu sahroyi biyobonda mendan ongsizroq, bechoraroq odam bormikan, - dedi. U yerdan o‘tib ketayotgan, ustiga yuk ortilgan eshak bu dardmand odamning so‘zini

eshitib, unga: Ey aqlsiz odam! Nega holingdan bunday shikoyat qilasan? Allohga shukur etib yo‘lingdan ketaver. Eshakka minmagansan, ammo men kabi yuk ostida emassan-ku! Holingga shukur qilmaysanmi? – dedi.

2-mashq. Guruh talabalari orasida “**Morfologiya”** bo‘limi qaysi masalalarni o‘rganishi haqida bahs-munozara tashkil qiling. So‘zlarni tukrumlarga ajratishda asosiy e’tiborga olinadigan jihatlar haqida fikrlaringizni ayting.

3-mashq. Berilgan gaplarni ko‘chiring hamda unda ishtirok etgan so‘zlarni turkumlarga ajrating.

1. Xurosonda bir davr yaratmoq lozimki, o‘zga xalqlar ibrat ola bilsinlar. 2. “Toshkent” mehmonxonasi, Navoiy teatri..., yigirma qavatli bino – ҳammasi xuddi kaftda turgandek aniq ko‘rinadi. 3. Ikki yildirki, Mosh ular xonadonining haqiqiy a’zosi bo‘lib qolgandi. 4. Hali u stolni yasatib ulgurmagan ham ediki, cho‘pon yigit “Moskvich”da to‘rxalta to‘la baliq olib keldi. 5. Kasalxona hovlisiga kirishlari bilan mashina to‘xtab, Chuvrindi tushib qoldi. 6. Juldur - juldur Ibodinsoqov chalpak bo‘lib uchadi. 7. - Bo‘riqul, chang‘aroqni yop-e, oftob tushib qoldi! 8. Abdulla chamadonini yerga qo‘yib, rovonga ko‘tarildi.

4-mashq. Mustaqil, yordamchi so‘z va alohida olingan so‘zlarni aniqlab, to‘liq morfologik tahlil qiling.

1. Osmon ko‘m-ko‘k edi. Unda-bunda suzib yurgan oq bulut parchalari go‘yo qishdan qolgan xiralik g‘uborni artib yuborganday. 2. Madrasa talabalari orasida hatto yigirma-yigirma besh yil mobaynida matonat va ijtihod bilan tahsil qiluvchilar borligini aytdi. 3. Qanaqa beg‘am bolasan? Ertaga to‘y bo‘lsa-yu, bu tentak allaqayoqlarda daydib yursa. 4. Gapiring tezroq nima demoqchisiz? – dedi u hansirash bilan. 5. Kishining boshiga tushgan kulfat nechog‘lik og‘ir bo‘lmasin, uni sabru, toqat va iroda bilan yengish mumkin. 6. Biror kasbni chin yurakdan sevib qolsang, uning mashaqqatlari jonga huzur bag‘ishlarkan. 7. Avvalo qishning sovuq nafasi seziladi. So‘ng tog‘larning, uning etagidagi qishloqlarning aybini berkitmoqchi bo‘lganday qor yog‘a boshladi. 8. E, peshonam buncha sho‘r bo‘lmasa? Qaysi gunohlarim uchun menga bunchalik jazo! 9. Orqa tarafdagi tut barglari shitir-shitir qimirlab, yer ostidan chiqqandek kutilmaganda Muhammad aka paydo bo‘ldi. U ariqdan gup etib sakrab o‘tdi-da, bosvoldini avaylab yerga qo‘ydi. 10. Mashina keng yo‘lga chiqdi-yu, yo‘lda tuyaday ko‘ndalang cho‘kib yotgan qumlarga duch kelib, yurishi sekinlashdi.

5-mashq. Yasovchi qo‘shimchalar yordamida yasalgan so‘zarni topib, qaysi turkumga oid ekanligini aniqlang.

1. Demak, shohga ma’qullari durust aqcha olganlar, qolganlari kamroq yoki butunlay olmaganlar. 2. Ularning nima deyayotganlarini bilayotgandek, gunohkorlarcha bosh egib ko‘zlarini yerdan uzmay turaverardi. 3. Men qaytara olmadim, - dedi Abror va kinoyaomuz jilmaydi. 4. Lekin bugun Rahmonov ochiq gapirgani durust bo‘ldi, men ham ochiqchasiga olishdim. 5. Sen ham yigitchasiga gapirgin-da, axir! 6. -Mayli, ertaga boshqa qilib berarsiz, - dedi Obid aka. 7. Yoshlik endigina qanot chiqargan uchirma qushga o‘xshaydi. 8. Siz bugun-erta mehmonsiz, cho‘chimang. 9. Ertasiga ertalab Usmon aka bilan uchrashdim. 10.Bir mahal bunday qarasam, ancha joyga borib qolibman.

6-mashq. Gaplar tarkibidagi so‘zlarni turkumlariga ajrating.

1. Xuddi oq yaktak kiygan chavandozga o‘xshaydi. 2. Qishloq o‘rtasidan kesib o‘tgan soyning shovillashi eshitilmas, faqat daraxtzorlar, xarsanglar orasidan buralib-buralib o‘tishi ajib bir manzara hosil qilar edi. 3. Necha kundan beri qidirib yurib, Roziyani endi topgan paytida nahotki birpasgina qarab turmay ketib qolsa? 4. Bundan buyon sira minmaganim bo‘lsin, necha marta naq uchib ketay-ketay dedim. 5. Erkaklar xotiniga tilla uzuklar olib beradi, o‘z kiyim-boshini o‘zi eplaydigan xotiningiz borligidan suyunsangiz-chi. 6. Nurmatovni sizlar qancha bilsalaring, men ham shuncha bilaman-da.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidan mustaqil, yordamchi va alohida olingan (oraliqdagi) so‘zlarga misollar topib ko‘chiring.

21-mavzu: Ot. Otning leksik-grammatik xususiyatlari. Otning ma’no turlari.

Reja:

1. Ot so‘z turkumi.

2. Otning leksik-grammatik xususiyatlari.

3. Otning ma’no turlari.

1-topshiriq. Ot so‘z turkumining o‘ziga xos xususiyatlari haqida aytib bering.

1-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Unda ishtirok etgan otlarni aniqlab guruhlarga ajrating.

Namuna: Gulnor – atoqli ot, ota-ona – turdosh (shaxs) oti, musiqa – turdosh (narsa) oti

1. Gulnor ota-onasi siqig‘i ostida boyga turmushga chiqishga ko‘nikkandir. 2. Xolboy surnaychi ikkita doirachi bilan mumtoz musiqalar tarona etdi. 3.

Ertasiga ertalab Usmon aka bilan uchrashdim. 4. Ertasiga Mastura haqida yana bir ko‘ngilsiz gap eshitdik: bechoraning tomog‘idan hech narsa o‘tmasligi ustiga qorniga tez-tez suv to‘planar ekan. 5. To‘g‘ri, partiyaning talabi biz uchun qonun! 6. Xo‘sh, biz uchun buyuk o‘lja, shonli bir zafar- Emasmi bu o‘zing ayt-chi, aziz birodar? 7. Uning quvnoqligi, o‘zini erkin tutishi bilan faxrlanardim. 8. Ajab, uyga qachon, kim bilan qaytdi ekan? 9. Otaginam, men, mol-dunyo uchun olishmadim. Mol-dunyo hirsidan o‘zimni hamisha saqlab keldim.

2-mashq. Quyidagi berilgan jadvalni to‘ldiring.

Shaxs nomlari	Narsa nomlari	O‘simlik nomlari	Kasb nomlari

3-mashq. Berilgan gaplarni ko‘chiring va unda ishtirok etgan otlani ma’no turini aniqlang.

1. Ketma-ket uzatilgan chelak va savtlarni keksalar yerga ag‘dardilar, xirmon borgan sari ko‘paydi. 2. Bir zumda mashinani o‘rmonga olib kirdik-da, pastqam joyga yashirdik. Uning izini ham tekislab tashladik. 3. Gullar, to‘smang yo‘limni, yellar, tutmang qo‘limni, Namanganlik nozanin yo‘limda intizormish. 4. Sen kuylading va birin-ketin Borlig‘imni chulg‘adi xayol. 5. Xira qilar ko‘zlarining yashini yulduzlarni, Go‘yo quyosh yaqinlashib, qamashtirar ko‘zlarni. 6. Bobomiz Oqpodsho tarafga ko‘z qirida qaraydi. 7.General Skobelev kun botarda tashrif etadi 8.O‘zbekistonda televizor joriy bo‘ldi. 9.Mashhur Yusufjon qiziqning o‘z shogirdi Oxunjon qiziqqa yutkazgan joyi ham shu Mingbuloq bo‘lgan. 10.Ammo ikki yildan beri, otasi kasalga chalinib yotib qolganidan beri kelmagan buvisini juda sog‘ingan edi.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa. O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidan o‘zingizga yoqqan hikoyani tanlab oling hamda unda ishitirok etgan otlarning gapdagi sintaktik vazifasini aniqlang.

22-mavzu: Otlarning lug‘aviy shakllari

Reja:

1. Otlarning lug‘aviy shakli

2. Otlarning son shakllari

3. Otlarning erkalatish-kichraytirish shakli

1-topshiriq. Quyidagi berilgan otlarni ma’nosiga qarab guruhlarga ajrating.

Muattarligi, bilim, surma, cholg‘u, ishonch, chiqindi, tepki, ushlagich, ravshanlik, o‘rash, tuyg‘u, mangu, sevinch, etik, borliq, tortma, oshnoligim, tuzum, og‘u, to‘kinlik, to‘kinchilik, tirgak, bo‘shlik, tortindi, bilim, boshim, tortiq, ezgulik, tilagim, siniq, buzuq, handaq, yotoq, intiq, taxmon, boylik, orzu, boylam, tutatqi, in- soniylik, bolaligim, yelpig‘ich, boyligim.

2-topshiriq. Quyidagi qo‘shimchalar yordamida otlar hosil qiling hamda ularning ma’nosida qanday o‘zgarish bo‘layotganligini izohlang.

-cha, -choq, -chak, -loq, -aloq, -gina, -jon, -xon, -oy.

1-mashq. Quyidagi berilgan gaplar tarkibidagi otlarning birlik yoki ko‘plikda ekanligini aniqlang.

1.Quyosh botgan esa-da, hali hammayoq yorug‘, hali kunduzning yallig‘i bilan nafas olgan dashtda to‘rg‘aylar ora-sira “chiv-chiv”lashib uchishar edi. Toshbaqalar, kirpitikanlar o‘ynar edilar. 2. Boshlarimga yostiq kelar ko‘p malol. 3. Halimaxon, Naziraxonlar, Nadimaxon, Karimaxonlar Qushday yengil uchar edilar. 4. Mana hozir ona suratiga tikilarkan, uning yuzidagi tanish, ko‘p voqealarning shohidi bo‘lgan ajinlar, hech qachon kulmagan qisiq lablar, hasrat to‘la ko‘zlar Nizomjonga: “Bolaginam... Yomonga yondashma!” deyayotgandek. 5. Opasi bo‘ynidan, quloqlaridan isirg‘alarini olaturib hiringlab kuldi. 6. U o‘z bolasini bir parcha etdan katta qilguncha ne mashaqqatlar tortmagan! 7. Seni opichlab ko‘targan otangning bellari qarsillab sinib ketsa bo‘lmasmidi!

2-mashq. Berilgan gaplarda **-lar** ko‘plik shakli qanday ma’nolarni anglatayotganini aniqlang.

1. Nigora Saidlarnikiga kirganda uyning chiroqlari yoqilgan, Said bilan dadasi televizor ko‘rib o‘tirishar edi. 2. Bolalar eng quvonñhli xabarni yurtdoshlariga yetkazishga oshiqayotgan elñhilardek guvullab Usmonlarnikiga jo‘nashdi. 3. Ko‘zlarim hali harf tanimas edi, qalam ushlolmasdi hali qo‘llarim. Kapalak izidan quvib tinmasdan, Yulduzlarni sanar edim tunlari. 4. Ey farzandlar - g‘unchalar! Sizga mehrim shunchalar. 5. Bu hayot chashmasi qoshiga bizlar kabi juda ko‘p kishilar keldilar, tiriklik nash’asiga g‘arq bo‘lib, o‘ltirdilar, so‘ng bir-bir abadiy yo‘qlik sari ketdilar. 6. Boburning yoniga Hofiz Ko‘ykiylar tashrif buyurdilar. 7. Bulbuli go‘yo shoirlarning shon-shuhrat ko‘yida o‘rtanib aytguvchi dilrabo baytlari ham endi uning ko‘ngillariga zavq bag‘ishlamas edi. 8. U ko‘p vaqtini ko‘zdan yiroq, xilvat va toqi ravoqda tanho o‘tkazar, ahyon-ahyon, hushi kelgan chog‘lardagina Yusufiyni chaqirib chog‘ir buyurar edi. 9. Humoyun Mirzo kecha oqshomlarda muborak huzuringizga otlangan ekan. 10. Ilohim, tangri o‘z panohlarida asrasin sizni.

3-mashq. -lar ko‘plik shaklining uslubiy ma’no anglatishga misollar yozing.
Namuna: Bugungi bayramni rahbarning o‘zlari olib bordilar – hurmat ma’nosida qo‘llangan.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa. O‘zingiz yoqtirgan badiiy asardan otlarning ko‘plik va erkalatish-kichraytirish shakllari ishtirok etgan gaplarni ko‘chirib yozing va ularni sintaktik tahlil qiling.

23-24-mavzu: Otlarning aloqa-munosabat shakllari. Otlarning kelishik va egalik shakllari.

Reja:

1. Otlarning aloqa-munosabat shakllari
2. Otlarning kelishik shakllari
3. Otlarning egalik shakllari

1-topshiriq. Quyida berilgan turdosh otlarni jadvalga joylashtiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Soy, maktab, ustoz, dehqonchilik, terim, ota, qalam, supurgi, saylgoh, daryo, irmoq, tog‘, tintuv, saylov, soat, kitob, qozon, aka, zargar, buloq, suv, oshpaz, tikuvchi, gulchilik, uy, deraza, ovoragarchilik, guliston, daftar, rahbar.

Shaxs otlari	Narsa otlari	O‘rin-joy otlari	Faoliyat-jarayon otlari

2-topshiriq. Kelishik qo‘shimchalari va ko‘makchilar ma’nodoshligiga misollar yozing va ular ishtirokida gaplar tuzing.

1-mashq. Gaplar tarkibidagi egalik va kelishik qo‘chimchalari bilan qo‘llangan otlarni aniqlang va gapda qanday sintaktik vazifada kelganligini aniqlang.

1.Akam ishxonadan chiqib, o‘rtog‘i Xolmat ni qarshiladi. 2. Asrlarning so‘kib chokini, Ko‘zlarimga surib xokini, Tarixlarni bir-bir titurman, Afsonalar topib biturman. 3. Navro‘z kelsa so‘roqlab, Ne deyman, boshlarim xam. Yoz izlasa so‘roqlab, Ne deyman, kiprigim nam. 4. Adashtirmay tanib turdi ulkan daryong, keng o‘rmoning, Bog‘u rog‘ing, qiringni! 5. Moshi siyrak dukkaklab, qovog‘i kech gullagan. 6. Butun qishlog‘imizda bitta Rajabiyimiz bor, xolos. 3. U ishkomning og‘zida ko‘ringan yorug‘likka intildi. 7. Jonajon o‘rtog‘i Karima bilan hujralarida yuzma-yuz qolishga Munavvarning yuragi betlamas edi. 8. Bolalar yotog‘ida ham hech kim ko‘rinmaydi.

2-mashq. Berilgan gaplar tarkibidagi kelishik qo‘shimchalarini toping va ularni ko‘makchilar bilan almashtirib gaplarni ko‘chiring.

1. Axloq-odobga bag‘ishlangan kitob. 2. Odam odamga hamisha kerak. 3. Gulruxsorni ko‘rish nasib etmaydi. 4. Bu yulduzlar qayerdan kelgan, bibijon? 5. Qora libosga o‘randi. 6. Abu Ali endi G‘aznaga yo‘l oldi. 7. Begimga o‘xshashni xohlayman. 8. Beruniy indamay eshikka yo‘naldi. 9. Go‘yo bu ertakda kamina sulton Sohibqironning izzatini yerga urgan emishman. 10. Qaysi gunohlaringga seni qiynoqqa soldilar.

3-mashq. Berilgan matn tarkibida ishtirok etgan kelishik qo‘chimchalarini o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan birgalikda ko‘chiring hamda qanday so‘z birikmasini hosil qilayotganligini izohlang.

Siz ham afandi bo‘lib qolibsiz, rais, – dedi u kulgisi bosilmay, – afandi tushida uch tanga pul topib olibdi-da, shu uch tangaga ot olib minmoqchi bo‘libdi. Uch tangaga ot kelarmidi. O‘ylab-o‘ylab tuxum olmoqchi, tuxumdan jo‘ja, undan tovuq qilmoqchi bo‘libdi. U tovuqni jo‘jalatib, puliga qo‘zi almoqchi, qo‘zini qo‘y, qo‘yni buzoq, buzoqdan sigir qilmoqchi – sigirning sutini sotib, ot olmoqchi bo‘libdi. Siz ham yo‘q tovuqning tuxumini yuz ming so‘mga sotmoqchisiz. – Sen afandichalik ham bo‘lmabsan, – dedim Foziljonga. – Qo‘rdingmi, afandi dehqon ekan. Dehqon hisobdon bo‘ladi. U bir chigitdan ikki quchoq paxta olmasa, yerga engashmaydi. Afandi uch tangaga ot olib minishning hisobini topibdi. Parranda – xazina! Burungilarning naqli shuki, dunyoda odamni boqadigan va boy qiladigan yetti xazina bor. Masalan, sigir – ro‘zg‘orning qassobi bilan baqqoli, asalari – oilaning tabibi, ipak qurt – qizlarning sepi, objuvoz – qozonning qaymog‘i, tegirmon – qorinning belbog‘i, borginki, o‘rmon ham xazina, parranda ham. Bularning hammasi bor, parranda yo‘q. Tegirmonchining o‘g‘li aytgan bo‘lsa, ishon. Dadasi qanday xazinamizni boshqaryapti. Tegirmondan har kuni ma’murgarchilik oqib turibdi.

4-mashq. Nuqtalar o‘rniga **-ning** yoki **-ni** qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib, matnni ko‘chiring.

Sobir butun-butun xarsanglar.., ortiqcha kuchanmasdan, allaqaydandir ko‘tarib, qora terga botib yugurardi. O‘ktam esa ko‘pirgan, o‘kirgan suvda bo‘ynigacha botib, hansirab ishlardi. Sayramov... yuragi to‘lqinlanib ketdi. Xalq... shovqinli, mardona kurashi..., qahramonona ishi... ko‘rganda, uni hamisha hayajon quchar edi. Mashhur xalq qurilishlarida o‘n minglarcha xalq… baland ruhi..., fidokorligi... va imkonsizdek ko‘ringan ishlar... mo‘jizador qahramonlik bilan bajarganini, eng azim qiyinchiliklar... ajoyib uyushqoqlik, uquv va mardlik bilan

bartaraf qilganini Sayramov ko‘p marta ko‘rgan edi. Hozirgi kurash u buyuk ishlarga nisbatan bir tomchi edi go‘yo. Sayramov oq shohi kiteli... yechib, qayoqqadir otdi-da, qizg‘in ishga astoydil qo‘l urdi.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa. O‘zingiz yoqtirgan badiiy asardan otlarning egalik va kelishik shakllari ishtirok etgan gaplarni ko‘chirib yozing va ularning uslubiy xususiyatlarini aniqlang.

25-mavzu: Otlarning yasalishi va tuzilishiga ko‘ra turlari

Reja:

1. Otlarning yasalishi

2. Otlarning tuzilishiga ko‘ra turlari

1-topshiriq. Berilgan qo‘chimchalar yordamida otlar hosil qiling.

-chi, -kash, -dosh, -doq, -gi, -ma, -q, -a, -shunos, -xon, -soz, -chak, -don, -gar, -furush, -lik, -bon, -ch, -im, -zor, -loq, -goh, -indi, -gich, -xona, -lik, -iq, -ot, -at, -chilik, -qin, -ki, -do‘z,

2-topshiriq. Yuqoridagi so‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida hosil qilingan otlar ishtirokida gaplar tuzing hamda yasama otlarning gapda qanday sintaktik vazifa bajarayotganligini aniqlang.

1-mashq. Quyidagi matndan yasama otlarni toping va ularni izohlab bering.

Aytishlaricha, bir badavlat kishining yakka-yu yagona o‘g‘li bo‘lib, u nihoyatda isrofchi va behuda sarflovchi edi. Ota o‘z o‘g‘lining noqobil ekanini bilgani uchun oldindan chora ko‘rib, o‘lar paytida unga nasihat qilib debdi: - Ey, o‘g‘lim, men o‘lganimdan keyin boyliklarimning bari senga qoladi. Ishonchim komilki, sen ularning barini behuda sarflab bitirasan. Qo‘lingda hech narsa qolmay, ochlik va nochorlik bilan oxiri o‘limingga rozi bo‘lasan. Men narigi uyning burchagidagi tomning shipiga bir arqon bog‘lab qo‘yibman. Jondan to‘ygan paytingda o‘zingni o‘sha arqonga osgin! Ota shu gaplarni aytib jon berdi. Noqobil o‘g‘il ko‘p o‘tmay, barcha pullarni sarflab tamomladi. Oxiri gadoylik qilishdan or qilib o‘zini osib o‘ldirishga qaror qildi. Otasi tayinlab ketgan uyga kirib, arqonning uchini bo‘yniga solib, o‘zini osdi. Tom to‘sini uni ko‘tarolmay sinib ketdi. Shu onda tuproq aralash otasi ataylab o‘g‘li uchun bekitib ketgan boyliklar yerga tushdi. Mehnat bilan topiladigan boylik qadrini tushunib yetgan o‘g‘il endi pulni o‘ylab ishlatadigan, xayrli yo‘llarga sarflaydigan bo‘ldi. Otasi xotirasi uchun alqni xushnud qilishga va saxovat nuridan bahramand qilishga kirishdi.

2-mashq. 3 guruhga bo‘lining hamda otlarning tuzilishiga ko‘ra turlarini kim ko‘p misollar yozish musobaqasini tashkillashtiring.

Sodda otlar	Qo‘shma otlar	Juft va takroriy otlar

3-mashq. Otlarning tuzilishiga ko‘ra turlari ishtirok etgan gaplar tuzing hamda gaplarning sintaktik tahlil qiling.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa. O‘tkit Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asaridan otlarning tuzilishiga ko‘ra turlari ishtirok etgan gaplarni aniqlab ko‘chiring.

26-mavzu: Mavzu: Sifat so‘z turkumi haqida

Reja:

1. Sifat so‘z turkumi

2. Sifat darajalari.

1-topshiriq. Tug‘ilgan yurtingiz haqida sifatlardan foydalangan holda kichik hikoya yozing. Guruh talabalari orasida sifatning daraja shakllari haqida bahs-munozara tashkil qiling.

2-topshiriq. Xususiyat, rang-tus, maza-ta’m, hajm-o‘lchov, hid, makon-zamon sifatlariga misollar yozing va ular ishtirokida gaplar tuzing. Sifatlarning gapdagi sintaktik vazifasini tushintiring.

1-mashq. Ko‘chiring, sifatlarning ma’nodoshlarini topib yoniga yozib bering.

Namuna: 1. Yoshlardan yurak jo‘shqinligi, qalb qo‘ri, bilak kuchi, teran (zukko, yuksak) aql-idrok talab qilinadi. 2. Auditoriyaga qomatini tik tutgan, xushbichim, o‘ziga yarashgan kastum-shim, ustidan yupqa qavilgan beqasam to‘n kiygan, oyog‘ida zamonaviy tufli, bo‘ynida chiroyli galstugi, ko‘zida tilla gardishli ko‘zoynagi bor, kalta mo‘ylov qo‘ygan, moshrang do‘ppili kishi viqor bilan kirib keldi. 3. Kattaqo‘rg‘on suv ombori o‘nlarcha chaqirimlarga cho‘zilib, kengayib zumrad ko‘l kabi adirlar o‘rtasida yoyilib yotadi. 4. XX asr ikkinchi yarmida dunyoning ijtimoiyot bilan juda jiddiy va juda chuqur shug‘ullanadigan qismida “globalizm” degan tushuncha vujudga keldi. 5. O‘zbekiston deb atalmish bizning mamlakatimizda mohir jurnalistlar anchagina. 6. Shayx Jaloliddin Kubrodek ulug‘ zotlar, Sulton Jaloliddin Manguberdidek bahodir farzandlar timsolida boshlangan va yarim asr davom etgan Vatan ozodligi uchun kurash ona xalqimiz uchun nihoyatda og‘ir kechdi.

2-mashq. Sifat yasovchi qo‘shimchalardagi antonimlik munosabatini, shuningdek, ularning ma’nodoshini ham ayting.

Ijobiy:	**Salbiy:**
mehrli	**bemehr**
beozor	**dilozor**

3-mashq. Maqol va hikmatli so‘zlar ichidan sifatlarni aniqlang hamda sifatning otlashish hodisasini tushintiring.

Baxil boyga borguncha, Karamli tog‘ga borar. Baxildan tosh so‘raguncha, Gadoydan osh so‘ra.Nomardga yalinma, Bir baloga chalinma. Aqlsiz do‘stga kular, Aqlli do‘stini suyar. Johil ulfat – boshingga kulfat. Yaxshi do‘sting kuldirar, Yomon do‘sting kuydirar. Aybsiz do‘st izlagan do‘stsiz qolar. Issiq kiyim tanni ilitar, Issiq so‘z jonni ilitar. Noinsofga erk bersang, elni talar.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa. “Suvning foydali xususiyatlari” mavzusida matn tuzing. Unda ishtirok etgan sifatlarni aniqlang.

27-mavzu: Sifatlarning yasalishi va tuzilishiga ko‘ra turlari

Reja:

1. Sifatlarning yasalishi.

2. Sifatlarning tuzilishiga ko‘ra turlari.

1-topshiriq. Quyidagi qo‘chimchalar yordamida sifatlar hosil qiling.

-gir, -ma, -a, bar-, -dor, -kash, -i, -in, -siz, -li,- qir, -ch, -gi, don, no-, -g‘ich, -qi, -ik, -uq, -qi, -oq.

2-topshiriq. Qo‘shma sifatlarga misollar yozing.

Namuna: sofdil, mehnatsevar, umumxalq, tezyurar…

1-mashq. Berilgan gaplardan sifatning ma’no turlarini aniqlang.

1. Odam to‘g‘rilik va mo‘minlik yo‘li bilangina katta va yop-yorug‘ yo‘lga chiqib oladi. 2. O‘sha mayib turna cholning qo‘lida shifo topib, yana o‘z karvoniga qo‘shilganini bilarmikin 3. Mo‘minning chog‘roqqina hovlisi. Bu yerda hamma narsa uy egasining kamtar hayotiga mos, Oldingi qatorda peshayvon, eski ko‘rpachalar solingan. 4. Domla shunaqa ishonuvchan, sodda, laqillatish oson odam edi. 5. Tabiat qo‘pol tushmasa, bu go‘zal qiz och ra’no gulning tusida yoki oq-sariq tusda yaratilgan edi. 6. Nafasingni sovuq qilma! Qora bo‘lsa, o‘zimizga o‘xshar ekan-da. 7. Mirrahimov jussasi kichkina bo‘lgani bilan tovushi juda yo‘g‘on va buning ustiga sekin gapirolmas edi. 8. Poygakdagi karavotda kitob o‘qib yotgan Hoji aka degan xasta yo‘g‘on gavdasiga nomunosib chaqqonlik bilan

boshini ko‘tarib, ko‘zidan oynagini oldi. 9. Hoji aka dardga bu qadar bardoshli ayoldan ham ko‘ra bunchalik vafodor erni ko‘rishga ishtiyoqmand bo‘lib qoldi-yu, xalatining belbog‘ini mahkam bog‘lab, shippagini kiydi. 10. Palata eshigi oldida bizni hindiga o‘xshagan qop-qora, katta-katta ko‘zlari yonib turgan bir yigit, aftidan, Masturaning eri kamoli ehtirom bilan kutib oldi va har qaysimizga ayrim minnatdorchilik bildirib, ichkariga yo‘lladi.

2-mashq. Siz **“Nutqiy tadbirkorlik”** deganda nimani tushunasiz? Misollar bilan tushuntiring.

3-mashq. Ko‘chiring. Yasama sifatlarni aniqlang. Ularni morfemalarga ajrating. Qolgan sifatlarni alohida yozing.

1. No‘monjon yumshoq ko‘ngil, qizdekkina yigit ekan. 2. Uning arslonday ko‘rkam gavdasi, keng peshonasi, chuqur samimiyat ifodasi bilan to‘la yirik ko‘zlari... unga yoqadi 3.Nihoyat Azizbek ham yonidagi 450-500 sodiq kishilar bilan qochib, o‘rdaga qamalishga majbur bo‘ldi 4. Xatiga qaraganda vafodor qizga o‘xshaydi. 5. “O‘zingiz ham ilon po‘st tashlaydigan gap qildingiz-da”,-dedi u xushomadgo‘ylik qilib. 6. Yakka chinor qishlog‘i yangi kelgan kishiga ko‘rimsizroq, betartibroq ko‘rinadi. 7. Binoyi kiyingan, xushsurat bu yigit kirib kelganida tabib boshining tosh yuragi yumshaganedi. 8. Jamila sarvqomat, bejirim ayol edi. 9. Etagini qistirib olgan, uning bug‘doyrang chiroyli oyoq muskullari tarang tortilib, paylari uzulib ketgudek bo‘ladi.

4-mashq. Sifat so‘z turkumi doirasida ma’nodosh so‘zlarga misollar toping. Namuna: chiroyli – go‘zal – ko‘rkam.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa. O‘zingiz qiziqib o‘qigan asardan sifatlarning tuzilishiga ko‘ra turlari ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring va sifatlarnig sintaktik vazifasini aniqlang.

28-mavzu: Mavzu: Son so‘z turkumi haqida

Reja:

1. Son so‘z turkumi haqida

2. Hisob so‘zlar haqida.

1-topshiriq. Quyidagi gaplarda ishtirok etgan son so‘z turkumiga oid so‘zlarni aniqlang.

1. Otamiz uch kundan keyin qaytib keladi. 2. Uch tillo beraman, lekin vafotimdan so‘ng Butun mol-u mulkim uning izmiga o‘tar. 3. Haqiqatan ham chorak soat o‘tar-o‘tmas Mavlon keldi. 4. Ikki kun burun qizi o‘qishga ketdi-yu, qaytmadi. 5. Aytishlaricha, bunday odamlar yuz yilda bir tug‘ilar emish. 6. Qisqa

qilib aytganda, ommaviy axborot vositalari tom ma’noda “to‘rtinchi hokimiyat” darajasiga ko‘tarilmog‘i lozim. 7. Keyinchalik berigi uyning egasi dunyodan o‘tib, xotini ikki go‘dak bolasi bilan qoldi. 8. Shamshiddinov, bir soatga yaqin shu to‘g‘rida gaplashdik, xayolingiz mijozlaringizdamidi? 9. Ertakdagi uch og‘a-ini kabi ular uch yo‘l qarshisiga kelib qolgan edilar.

2-topshiriq. Sonning ma’no turlariga misollar yozing.

Sanoq son	**Dona son**	**Chama son**	**Jamlovchi son**	**Taqsim son**	**Kasr son**	**Tartib son**

1-mashq. Sonlarni toping, gapdagi sintaktik vazifasini aniqlang.

1. O‘zlaringni zo‘rlab bo‘lsa ham bir qoshiq-yarim qoshiqdan ovqat ichinglar! 2. Mayning yettilariga borib urug’ sochish kerak! 3. Qayvaqtda bo‘lgan bo‘lishi mumkin? Bundan o‘n asrlar muqaddam, do‘stim. 4. Soatiga atigi olti milya yo‘l bosyapmiz. 5. Bir yillik xirojni uch yuz ming dinorni oldindan yubortirdi. 6. U turgan joydan ellik qadamlarcha narida trassa ko‘kimtir chiroqlar bilan yoritilgan. 7. Ichkariga kir, uka. Biron piyola choy ich! 8. Shtirlits soatiga qaradi: roppa-rosa yetti. 9. Uch-to‘rt oygina bo‘lsa ham diydoriga to‘ydirib ketdi. 10. Zulfiqorovning xotini bitta qiyiqchada uch-to‘rtta anor, bir kilodan mo‘lroq sariq kishmish olib keldi.

2-mashq. Gaplarni ko‘chiring va ularni sintaktik tahlil qiling.

1. Axir, sizdek minglab xotin-qizlar cho‘rilikdan qutulib, biri doktor, biri injener, biri muallima bo‘lib xalqimizga xizmat qilmoqda. 2. Ikki yuz-uch yuz qadamcha esini yo‘qotib yugurgandan keyingina uning ovozi chiqdi. 3. Yana uch soatlardan so‘ng xoinlar iziga tushamiz. 4. Xona eshigi oldida o‘nlarcha odam navbat kutib turibdi. 5. Katta yo‘ldan o‘ttiz qadamcha narida, kanal yoqasida kichikroq yog’och ko‘prik bor edi. 6. Ot yana yuz metr chamasi chopib bordi. 7. Kunduz soat uchlarga borib birdan yomg’ir yog’a boshladi. 8. Eshik ochilib, yetti-sakkiz yosh-qari dehqonlar hujraga kirdilar. 9. Hovlining narigi tomonidan, molxonadan, o‘n ikki-o‘n uch yoshlardagi yapaloq yuzli, dumaloq ko‘zli bir bola yugurib chiqdi. 10. “Uch tepa” cho‘liga qurilgan necha yuzlab chaylalar qamish-qiyoqdan yasalgan edi.

3-mashq. Chama son bilan jamlovchi son qatnashgan gaplarni aniqlang va ajratib yozing.

1. Kechga yaqin Karimboy tashrif buyurdi, yigirmatacha ulfati unga hamroh. 2. Xudo xayringni bersin, aylanay, kelinimga tegma, o‘rog‘ini o‘rib yuraversin, shusiz ham yolg‘izlik azobini tortib, ikkala xonadonning tirikchiligidan bosh

qashirga ham qo‘li tegmaydi! 3. Yigirmatacha qadam bosib, orqasiga o‘girildi. 4. Ikkalamiz shu yerlarda sigir boqardik, – u birdan kulib yubordi. 5. Ona itdan ellik-oltmish qadamcha beridan o‘tdi. 6. Qani o‘rtoq raykom, ikkalamiz mana shularga bir namuna bo‘laylik. 7. Uch-to‘rt oyda eson-omon qaytadi. 8. Xullas, ikkala xonadonning tirikchiligini, ro‘zg‘orini oyim bilan singilcham tebratib turardi.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa. O‘zingiz qiziqib o‘qigan asardan sonlar ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring. Sonnnig otlashishiga misollar yozing.

29-mavzu: Mavzu: Olmosh so‘z turkumi

Reja:

1. **Olmoshning ta’rifi**
2. **Olmoshning morfologik xususiyatlari**
3. **Olmoshning ma’no turlari**

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Undosh tovushlarni aniqlab, jadvalga joylashtiring.

Bulbullar bu yerda ko‘p bo‘lar ekan. **Goho ularning yoqimli,yangroq tovushlari havoni to‘ldirib yuboradi. Bulbulni tinglashni sevaman.** Kuylari qalbimda allaqanday yoqimli hislarni chayqatib yuboradi... Bulbulning sayrashi – dunyoning eng baland lazzati. Bulbulning maqomlari, kuylari to‘qqiz yuz to‘qson to‘qqiz emish... Bulbul jonivor qushlarning asili... (Oybek)

Lab undoshlari	Til oldi	Til o‘rta	Til orqa	Chuqur til orqa	Bo‘g‘iz undoshi

2-topshiriq. “H” va **“x”**harfi ishtirok etgan so‘zlarga o‘ntadan misol toping.

1-mashq. Olmoshning boshqa so‘z turkumlari o‘rnida kelishiga misollar yozing.

2-mashq. Quyidagi berilgan olmoshlarni ma’no turlariga ajrating. Ushbu olmoshlardan qaysilaridan kundalik muloqotda ko‘p foydalanasiz? Nima uchun?

Olmoshlar: kim, nima, qayer, men, sen, o‘z, u, bu, shu, qanaqa, qanday, hamma, barcha, bari, kimdir, nimadir, biz, siz, o‘sha, ana, mana, hech kim, hech nima, har bir, har kim, har qanday, ular, nega, necha, mana bu, anovi.

3-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib, ko‘chiring.

1. Yigit bechoraning rangi quv o‘chib ketgan. ... lablari pir-pir uchadi. 2. Tog‘am – tajribali yurist. ... ko‘p ishlarni adolatlihal qilgan. 3. Hovlimizdagi qip-qizil lolalar yal-yal yonadi. ... lolalar hammaning havasini keltiradi. 4. Bizning

sinfimizmusobaqada birinchi o‘rinni oldi. ... o‘ringa intilgan o‘quvchilar ko‘p edi. 5. … bo‘lgan har qanday odam ruhan yengil tortib, kayfiyati ko‘tarilishi muqarrar. Quyidagi berilgan gap yuzasidan o‘z fikrlaringizni bildiring.

G‘azab shunday bir daraxtki, mevasi pushaymonlikdan iborat.

4-mashq. Quyidagi gaplar orasidan ko‘rsatish olmoshlari qatnashgan gaplarni aniqlang.

1. Men ana ketdi, mana ketdi bo‘lib yotgan edim-da, o‘sha kuni ertalab birov avtobusda yig‘lab ketayotgan bir bolani ko‘rib, mening ukamga o‘xshatibdi-yu, shundan haligiday gap tarqalibdi. 2. Bu gap ham uning diliga tugildi. 3. Xo‘sh, o‘sha ellik uch daqiqa nima qilinadi, keyin? 4. Bu xotinning joni bitta emas, ming bitta! Hozir tugab qolgan shamday lipillab yonayotgan joni basharti so‘ngan taqdirda ham, qolgan mingtasini yoqib keyin so‘nadi. 5. Agar biron kishinikiga mehmon kelib qolsa, hammasi navbatma – navbat chaqirishadi. 6. Savodsiz, o‘qimagan Shu menga boshliq, – alam bilan o‘yladi Sodiq – Men esam oliy ma’lumotli yurist”. 7. Bu oyimga juda yoqardi, pishiq bo‘lsin, yog‘ochdan boshqani bilmaydigan otasiga o‘xshamay, ro‘zg‘or ishlariga aralashib ko‘zi pishsin, der edi. 8. Seningcha bu olmosning bahosi qancha? 9. Jasur kapitan bu dadil bolani yoqtirib qoldi. 10. Bu – hayot qonuniyati, biz uni inkor etolmaymiz va inkor etishga haqqimiz ham yo‘q.

5-mashq. Gaplar tarkibidagi olmoshlarni aniqlang va ularning sintaktik vazifasini aniqlang.

1. Biz ishimizni bilib qilamiz. 2. Ammo shahzoda hech kimga parvo qilmas, o‘z aqliga, o‘z kuchiga mahliyo edi, ko‘p vaqtni otasining taxtida o‘tkazardi. 3. Bu bolaning turqi sovuqroq edi. 4. Seningcha bu olmosning bahosi qancha? 5. Bari bir bu mening izzat-nafsimga qattiq tegar, yangamni rashk qilardim. 6. Dam o‘tmay u kaftlari bilan yassi peshonasini, baroq qoshlari aralash yuz-ko‘zlarini artardi. 7. Shu-shu bo‘ladi bobomiz dalasi yuzini qaytib ko‘rmas bo‘ladi. 8. Ajab, uyga qachon, kim bilan qaytdi ekan? 9. Seningcha bu olmosning bahosi qancha? 10. Ha, chindan ham yangamni hech kimga ravo ko‘rmay rashk qilardim.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa. Berilgan gaplar tarkibidagi olmoshlarni aniqlang hamda qaysi so‘z o‘rnida qo‘llanganligini tushuntiring.

1. Belingni bog‘la, g‘ayrat bir-la mehnatga muhabbat qil, o‘zingni, mehnatingni o‘zga yalqovlarga ibrat qil. 2. O‘zgalar g‘amini chekmasa odam, unga noloyiqdir insondegan nom. 3. Xudbinlik o‘z-o‘zini qatl qilishdir. Uyakka, mevasiz daraxtga o‘xshab qurib ketadi. 4. Agar sen havoni to‘yib-to‘yib shimiray

desang, tongda derazangni kengroq och! 5. Har kim o‘z qilmishiga yarasha jazosini oladi.

Ona tiliga doir hamma yozuvlarni chiroyli yozadigan, bu darsdan hamisha a’lo baho oladigan bo‘ldim. Keyinchalik shuni payqadimki, qaysi darsni chiroyli yozmasam, o‘sha darsdan pastroq baho olar ekanman. Men avvallari “Bu darsni xushlamaganim uchun chiroyli yozishga hafsala qilmasam kerak” deb o‘ylagan edim, yo‘q, chiroyli yozishga urinib qayta-qayta ko‘chirish darsni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam berar ekan. Shundan keyin boshqa darslarni ham chiroyli yozishga, darsda shoshib yozgan yozuvlarimni chiroyli qilib ko‘chirishga harakat qiladigan bo‘ldim. Bora-bora shunga odatlanib qoldim: hamma darsdan a’lochi bo‘ldim.

30-mavzu: Fe’l so‘z turkumi sifatida. Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar

Reja:

1. Fe’l so‘z turkumi haqida
2. Fe’llarning ma’no turlari
3. Fe’llarda bo‘lishli bo‘lishsizlik
4. O‘timli va o‘timsiz fe’llar.

1-topshiriq. Harakat va holat fe’llariga 10 tadan misollar yozing.

2-topshiriq. O‘timli va o‘timsiz fe’llarga misollar yozing.

1-mashq. Gaplarni ko‘chiring fe’l so‘z turkumiga oid so‘zlarni topib tahlil qiling.

1. Pichir-pichir eshitaverib ko‘zim ketadi. 2. Oradan yillar o‘tib, urushda mutlaq g‘olib bo‘ldim, degan to‘xtamga kelib qoldi. 3. Uzr, “a’lo hazratingni” deyishim kerak edi, negaki, xudodan senga marhamat bo‘lmaydi. 4. Esim qursin, ovqatga unnamay o‘tirishimni qara 5. Bo‘shashma, kichkina bola, oz qoldi! – deb qo‘yardi. Biroq o‘zi ham qattiq charchaganidan ovozi bo‘g‘ilib chiqardi. 6. Shu-shu bo‘ladi- bobomiz dalasi yuzini qaytib ko‘rmas bo‘ladi. 7. Negaligini xudo biladiyu dilimni yana qo‘rg‘oshindek g‘ashlik qopladi. 8. Ochiq derazadari tip-tiniq osmonning bir chekkasi ko‘rinib turardi. 9. Kemada u dengizchilik hunarini o‘rgana boshladi. 10. Bizning shefimiz o‘sha aytgan odamingiz bilan Muniraxon to‘g‘risida gaplashgan ekan.

2-mashq. Quyidagi berilgan gapning mazmuni yuzasidan o‘z fikrlaringizni bildiring.

Kishi aslini bilmoqni istasang, uning fe’l-atvoriga nazar sol, ma’lum bo‘ladi – qoladi.

3-mashq. Quyidagi berilgan gaplarda ishtirok etgan fe’llarni toping va ularning sintaktik vazifasini aniqlang.

1. Tog‘lar loqayd bir ulug‘vorlik bilan sukut saqlashar va bag‘ridagi odamlarning yaxshi-yomon ishlariga tilsiz guvoh bo‘lib turishar edi. 2. Yerdan aziz narsa yo‘q! Otamiz rahmatlik, bobolarimiz, undan narilar hammasi bir shapaloq yerdan rizqini chiqarib kelgan. Rostmi? 3. Shundoq bekat ro‘parasida ikki qavatli do‘kon oynaband eshiklarini ochgan, xaridorlar chumoliday g‘imirlashib kirib-chiqib turishardi. 4. Turg‘unoy yovvoyi quyonday har bir so‘z, har bir harakatdan hurkib o‘tirar va to Maston olib bermaguncha qo‘l uzatib bir narsa olmas edi. 5. Kishi yaxshi narsaga intiladi, yomon narsadan qochadi. Turg‘unlikka, ayniqsa, uzoq davom etgan turg‘un holatga ko‘nikadi. Illatga ko‘nikish esa qabohatga olib keladi.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa: O‘zingiz yoqtirgan asardan fe’lning ma’no turlariga, o‘timli va o‘timsiz fe’llarga misollar topib yozing.

31-Fe’lning nisbat kategoriyasi

Reja:

1. Nisbat kategoriyasi haqida
2. Aniq nisbat
3. O‘zlik va majhuk nisbat
4. Orttirma va birgalik nisbat

1-topshiriq. Nisbat kategoriyasi haqida o‘zingiz bilgan ma’lumotlarni ayting.

2-topshiriq. Matn tarkibidagi fe’llarni toping va ularning qaysi nisbatda ekanligini aniqlang.

Feruza hovliga tushib, shabnamda qiyg‘os ochilgan atirgullar ustiga egildi, to‘yib-to‘yib hidladi. Ariqning tiniq salqin suvida qo‘l-betini chayib, oshrayhonning serbarg shoxini sindirdi, chakkasiga qistirdi. Soatiga qaradi: besh yarim. Quyosh hali ko‘tarilmagan, osmon o‘chgan gulxanday kul rang, u yer-bu yerda qo‘r yulduzlar miltillab ko‘rinardi. Feruza bor-yo‘g‘i uch soat uxlabdi. Taajjubki, uyquga to‘yibdi... Bog‘ etagidan, ishkom ichidan, Hanifa bir patnis shivilg‘oni bilan husayni ko‘tarib chiqdi. Feruza Hanifaning qo‘lidan patnisni oldi.
- Otam qayoqdalar?

- Otang bog‘da ishlayaptilar. Chaqirdim, hozir chiqadilar. Ayvonga chiqishdi... Hanifa choy damladi. Cho‘lbobo bog‘dan bir etak olma olib chiqdi.

1-mashq. Aniq va o‘zlik nisbatdagi fe’llarni toping va ikki ustunga ajrating.

1. Mashhadda Alisher butun vujudi bilan o‘qishga berildi. Uni, ayniqsa, astronomik jadvallar qiziqtirardi. Qarshisida osmon yuzini ochdi, u osmonning sir-asrorini o‘qishga o‘rgandi va bu fanni umrbod sevib qoldi. 2. Bugun ham u otlandi, Cho‘milmoq uchun ko‘lga. 3. Marusya opasining bu qo‘shiqni zavq bilan aytayotganini ko‘rib ajablandi va quvondi. 4. Bo‘ston-chi? Hamon chaqqon, Xizmatda bo‘shashmaydi. 5. Bobo uni kattalar oldida odobli, kamgap bo‘lishga o‘rgatgan edi, biroq Alisher o‘z akalaridan biriga o‘xshaganidan, qizcha tortinmasdan unga yaqinlashdi-da, dadil gapira ketdi.

2-mashq. Matnni o‘qing hamda undagi fe’llarning nisbatlarni aniqlab ko‘chiring.

1. Biz juda ko‘p ish qildik. Yaqinginada esa juda ajoyib tajriba o‘tkazdik, ya’ni otash ta’sirida ba’zi toshlarning tusini o‘zgartirmoqchi bo‘ldik. Bir parcha yoqutni ko‘rada obdan qizdirdik. Keyin soviganiga qadar qo‘l tegizmadik. 2. Bir dovonga chiqqanda ular tomiri bilan ag‘darilib yo‘lda ko‘ndalang yotgan baqaterakka o‘tirib dam olishdi. O‘ngda bir xil kiyingan, bo‘y-basti ham bir xildagi behisob ko‘k archalar uzun-uzun saf tortib, qiyalikka chiqib ketayotgan askarlardek ko‘rinardi. Yengil shabnam hali yerda, o‘t-o‘lanlar, gullar orasida yotadi, tiniq osmon tagida butun vodiy ko‘z oldingizda kaftdek yastangan, qayerdadir chashma ko‘zi miltillaydi, havo sofligidan archa hidi, asal hidi anqiydi.

3-mashq. Berilgan gaplar tarkibidagi fe’l nisbatlarni aniqlang.

1. Yoz o‘tgan, kuz boshi bo‘lsa-da, havo tip-tiniq, zangori, quyosh yaxshi qizdirar, yuzlardan tomchi-tomchi terlarni yumalantirar edi. 2. Cho‘lboboning bog‘idan keltirilgan savat-savat mevalar to‘y dasturxoniga qo‘yilganda, mehmonlarning ko‘zi yondi. 3. Qatta mis samovarga qayta-qayta suv to‘ldirib, o‘ti yangilanadi. 4. Saroy bahor quyoshining nurlarida mavjlanadi. Darvoza bayroqlarbilan bezatilgan.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa: Fe’lning aniq, majhul, o‘zlik, birgalik va orttirma nisbatlari yordamida 3 tadan gap tuzing va fe’llarning sintaktik vazifasini aniqlang.

32-mavzu: Fe’llarning mayl kategoriyasi.

Reja:

1. Mayl shakllari haqida

2. Xabar mayli

3. Buyruq-istak mayli

4. Shart mayli

1-topshiriq. Fe’l nisbatlari bo‘yicha guruhlararo **“Bu bizniki”** grammatik o‘yin-topshirig‘ini bajaring.

1-guruh	2-guruh	3-guruh
Aniq va majhul	o‘zlik va birgalik nisbati	orttirma nisbat

Tashidi, kiyindi, tortdi, torttirdi, tanish, bezaldi, bezatdi, tashlandi, tashlandik, o‘qish, ilit, ilitildi, puflandi, chalindi, chaldirdi, tinglashdi, chiqdi, chizildi, boyidi, qo‘lladi, qo‘llattirdi, ortdi, eslashdi, achindi, achitqi, aytishdi, tushuntirdi, ishlash, olqish, so‘zlashdi, so‘zlashishdi, uqtirilgan, tiklatildi, bo‘lindi, qaltiradi, ochildi, ochdi, suhbatlash, toshdi, pishdi, tinglandi, tingladi, o‘rnatishdi, to‘lashdi, dalillash, o‘tirish, o‘tirishdi, sezdi, seskandi, kechirtirdi, taltaytirdi, bilgizdi, chiniqtirdi, siltatdi, chuvildi, tugaldi, tirmashdi, topishdi, o‘zgarildi.

2-topshiriq. Fe’lning mayl shakllari haqida fikrlaringizni ayting.

1-mashq. Berilgan gaplarni ko‘chiring. Unda ishtirol fe’llarning qaysi maylda ekanligini aniqlang.

Endi, sen, ey ayanch masxaraboz va o‘zingniki bo‘lmagan ishlarga aralashib yuradigan telba, sen endi meni kechir! Ko‘ngillarga alam berishni bas qiling. Damingizni chiqarmasdan turing: men sizni yuragingizga bir alam bermoqchiman: agarda u yurak hech narsa kor qilmas bir ma’dandan iborat bo‘lmasa, agarda jinoyatga ko‘nikish orqasida har qanday hisdan mahrum bir misga aylanmagan esa, men unga achitib-achitib bir alam berayin deyman. 2. Navoiy zamonida bo‘lib o‘tgan bir galgi mushoirada davra ishtirokchilaridan biri she’rni chunonam dabdabali ohangda o‘qibdiki, uning bu qilmishi ko‘pchilikka ma’qul tushmabdi. Shunda mashhur donishmandlardan biri u kishiga: Mavlono, siz she’r o‘qiydirsizmu yoki odam qo‘rqitasizmu? – deya tanbeh bergan ekan. 3. Kesak desangiz ham mayliga, lekin sansiramang, Arslonbek. Men sizdan ikki yosh kattaman. Shu yerda bo‘yiga yetgan qizim, bola-chaqali o‘g‘lim o‘tiribdi. Kozimbekning orzusini ko‘ring, sansiramang

2-mashq. Fe’l so‘z turkumiga oid sinonimlarga misollar yozing.

Namuna: gapirmoq – so‘zlamoq – bayon qilmoq – ifoda qilmoq.

3-mashq. Fe’llarni ko‘chirib, ularning har biriga to‘la ta’rif bering, qaysi maylda kelayotganiga diqqat qiling.

Namuna: yugurdi – harakatni bildiradi: bo‘lishli, o‘tgan zamonda, aniq nisbatda, xabar maylida, sodda fe’l, kesim vazifasida

1. Odam odamdan qutular, o‘z fe’lidan qutulmas. 2. Kamtar kerilmaydi, mol-dunyoga berilmaydi. 3. Sen o‘zingni maqtama, seni birov maqtasin. 4. Hech bir kishilik madaniyati she’rsiz mavjud bo‘la olmaydi. 5. Haqiqatan davr mafkurasi kishilar ongiga ijtimoiy tenglik, boshqacha qilib aytganda, boqimandalik tushunchasini singdirib kelgan edi. Bunday yondashish kishilarda tashabbusni bo‘g‘ib qo‘yardi, chunki kishi o‘zining samarali mehnatidan manfaatdor bo‘lmasa, unda halol mehnatga intilish, ish natijasi uchun mas’uliyatni oshirish tuyg‘usi yo‘qoladi.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa: Fe’llarni topib, mayli, zamoni va shaxs-sonini izohlang.

O‘ktam kitel tugmalarini yechib, “Uh!” dyeb yelpindi va sekin so‘z boshladi: “O‘rtoq rais, Sobir to‘g‘ri aytadilar. G‘o‘za parvarishni qattiq suyadi. Hosilot raisi sust, beparvo, ammo jon Karimqul ota, hammamiz bir tan, bir jon bo‘lib, ishtiyoq bilan mehnat qilaylik. Suv, o‘g‘it berishlarni, chopiqni joyida o‘tkazib, agrotexnikaning qonun-qoidalariga tom rioya bilan ishlaylikki, g‘o‘zamiz baquvvat bo‘lsin, dalamiz dirkillab tursin”.

Darvishona yashamoqni ixtiyor etgan bo‘lsangiz, biror foydali mehnat bilan shug‘ullaning: dehqonchilik qiling, kavshdo‘zliknimi, to‘quvchiliknimi o‘rganing. Tilanchilik qilish, topganingizni o‘zingizga o‘xshash bekorchilar bilan baham ko‘rish nomus. Bu kasb insonni ulug‘lamaydi, balki ma’naviy tubanlikka olib boradi, mehnatdan qo‘l siltamang, odamlardan yuz o‘girmang, aksincha ularga ko‘maklashing.

33-mavzu: Fe’llarning zamon kategoriyasi.

Reja:

1. Zamon kategoriyasi haqida

2. O‘tgan zamon

3. Hozirgi zamon

4. Kelasi zamon

1-topshiriq. Berilgan jadvalni mos fe’llar bilan to‘ldiring.

O‘tgan zamon	Hozirgi zamon	Kelasi zamon

2-topshiriq. Alisher Navoiy qalamiga mansub she’riy parchani o‘qing, unda ishtirok etgan fe’l zamonlarini aniqlang. She’riy parchaning mazmuni haqida guruh talabalari orasida bahs-munozara tashkil qiling.

Chunki topdim ul kalom ichra kamol,
Turk alfozi bila surdum maqol…
Turk nazmida chu men tortib qalam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

***

Men turkcha boshlabon rivoyat,
Qildim bu fasonani hikoyat.
Kim shuhrati jahonga to‘lg‘ay,
Turki bila dag‘i bahra olg‘ay.
Chunki bu kun jahonda atrok
Ko‘ptur xush ta’b sof idrok…

1-mashq. Berilgan gaplarni ko‘chiring va fe’llarni topib qaysi zamonda ekanligini aniqlang.

1. Xuddi oq yaktak kiygan chavandozga o‘xshaydi. 2. Qishloq o‘rtasidan kesib o‘tgan soyning shovillashi eshitilmas, faqat daraxtzorlar, xarsanglar orasidan buralib-buralib o‘tishi ajib bir manzara hosil qilar edi. 3. Necha kundan beri qidirib yurib, Roziyani endi topgan paytida nahotki birpasgina qarab turmay ketib qolsa? 4. Bundan buyon sira minmaganim bo‘lsin, necha marta naq uchib ketay-ketay dedim. 5. Erkaklar xotiniga tilla uzuklar olib beradi, o‘z kiyim-boshini o‘zi eplaydigan xotiningiz borligidan suyunsangiz-chi. 6. Nurmatovni sizlar qancha bilsalaring, men ham shuncha bilaman-da. 7. O‘n uchga kirgan yoshgina popukday qiz edi. 8. U faqat bir narsaga idrok etdi – otasining hukmi mutloq to‘g‘ri! 9. “Uy yolg‘iz, faqat To‘ybeka bilan Oysha ona; hollari nima kechdi, nima qo‘ydi,

ma’lum emas”. 10. Sog‘ bo‘lganda qanday, naq to‘lishib Rustami Doston bo‘lib ketgan.

2-mashq. Berilgan gaplar tarkibidagi fe’llarning qaysi zamonda ekanligini aniqlang.

1. Shu sababli, biz o‘z mustaqilligimizni qanday qiyinchiliklar bilan qanday sinov va suronli kurashlar bilan qo‘lga kiritganimizni yana bir bor eslashimiz o‘rinli, deb o‘ylayman. 2. Xiyobon chetidagi ariqda suv shildiraydi, betida xazon yaproqlar oqadi, ko‘chada odam siyrak, kunning tafti qaytgan bo‘lsa-da, havoda kishini diqqat qiladigan bir hovur bor. 3. Sahar chog‘i qum xuddi asaldek tillarang tovlanadi, unga tikilgan sari o‘zimni baxtiyor sezardim. 4. Biz “Adolat-qonun ustuvorligida” degan hayotiy tamoyilga qat’iy amal qilib yahashimiz zarur. 5. Anvar oyoqlarining uchigacha muzlab ketganini his qilib, Alimardonning beparvo ko‘zlaridan ma’no qidirib qoldi. 6. Alimardon studiya zalining bir chekkasidagi jajjigina stulga o‘tirgancha navbat kutardi. 7. Esingdami, senga oltin boshoq haqida aytgan gaplarim? - u jimib qoldi, oradan sal o‘tgach, tag‘in qo‘shib qo‘ydi. 8. Sizlarga sihat-salomatlik, ishlaringizga omad, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

3-mashq. Quyidagi maqollarni ko‘chiring. Ularning mazmuni hayotiy misollar yordamida tushuntirib bering.

Mehnat – hayot tomiridagi qon. Bugungi mehnat – ertaning rohati. Mehnatni hurmatlasak, u bizni e’zozlaydi. Inson mehnat bilan ulug‘lanadi. Baxtning kaliti mehnatning cho‘ntagida. Mehnat odamni hayot qiyinchiliklaridan qutqaradi.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa: Matnni ko‘chiring hamda unda ishtirol etgan fe’llarni aniqlab ularning sintaktik vazifasi va ularga bog‘lanayotgan so‘zlarni aniqlang.

Ota-bobolarimiz, momolarimiz bizga yoshligimizdanoq ozodalik, pokizalik, saranjom-sarishtalik, halollik va harom-xarish haqida yetarli tushunchalar, ma’lumotlar berib, ularni imkoniyat darajasida o ‘ziga xos pand-u nasihatlar bilan ongimizga singdirishga uringanlar. Eng asosiysi, bu borada o ‘zlari betakror ibrat namunasini ko‘rsatishgan. Axir, qush inida ko‘rganini qiladi deb, bejiz aytishmagan. Mana, ulardan bizgacha yetib kelgan ibratomuz pand-u nasihatlardan ayrim namunalar: “Bolam, ariqdan oqayotgan suvga aslo tuplama, axlat tashlama, gunohi azim bo‘ladi”; “Nonning uvog‘ini oyoqosti qilma, toptama, ko‘zing ko‘r bo‘lib qolishi mumkin”; “Ostonasi saranjom-sarishta joyda farishta bo‘ladi”; “Uyingni ozoda, pokiza saqlayman desang, ostonangni ozoda tut” va shu kabilar.

34-mavzu: Fe’lning shaxs-son kategoriyasi

Reja:

1. Shaxs-son kategoriyasi haqida ma’lumot

2. Yetakchi va ko‘makchi fe’llar

3. To‘liqsiz fe’llar

1-topshiriq. Quyidagi berilgan so‘zlar fe’llar bilan bog‘lang ular ma’nosida qanday o‘zgarishlar bo‘layotganini tushuntiring.

Namuna: ayta boshladi, yozib turdi.

Boshla, yot, tur, bor, o ‘tir, b o ‘l, bitir, bit, ol, ber, qol, q o ‘y, chiq, bor, kel, ket, yubor, tashla, sol, tush, yot, qara, boq

2-topshiriq. Shaxs-son qo‘chimlari ishtirokida so‘zlar hosil qiling. O‘zbek tilidagi turlovchi va tuslovchi qo‘chimchalarining ahamiyatini tushuntirib bering.

1-mashq. Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarini aniqlang va ularga izoh bering.

1. Tog‘lar loqayd bir ulug‘vorlik bilan sukut saqlashar va bag‘ridagi odamlarning yaxshi-yomon ishlariga tilsiz guvoh bo‘lib turishar edi. 2. Yerdan aziz narsa yo‘q! Otamiz rahmatlik, bobolarimiz, undan narilar – hammasi bir shapaloq yerdan rizqini chiqarib kelgan... Rostmi? 3. Shundoq bekat ro‘parasida ikki qavatli univermag oynaband eshiklarini ochgan, xaridorlar chumoliday g‘imirlashib kirib-chiqib turishardi. 4. Turg‘unoy yovvoyi quyonday har bir so‘z, har bir harakatdan hurkib o‘tirar va to Maston olib bermaguncha qo‘l uzatib bir narsa olmas edi. 5. Kishi yaxshi narsaga intiladi, yomon narsadan qochadi. Turg‘unlikka, ayniqsa, uzoq davom etgan turg‘un holatga ko‘nikadi. Illatga ko‘nikish esa qabohatga olib keladi.

2-mashq. Berilgan gaplarni ko‘chiring. Unda ishtirok etgan fe’llarni aniqlab qaysi zamonda, qaysi shaxsda ekanligini aniqlang.

1. Hunari va odobi bo‘lmagan kishidan baxt va davlat ketadi. 2. Hunar bilan davlat birikishi barcha nodir narsalardan ham qimmatliroqdir. 3. Tikansiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo‘lmas. 4. Qaysi ilm va hunar kishining aqliga, ruhiga tarbiya berar ekan, unday ilm va hunar o‘z egasini har doim qo‘llab-quvvatlaydi. 5. Choy ustida shiringina oilaviy suhbat boshlanib ketdi. 6. Ming bir xil davo bor totli asalda. 7. Chang-to‘zon bilan qoplangan osmonda mayda-mayda yulduzlar g‘ira-shira miltirardi. 8. Boychechaklarning xushboy, sezilar-sezilmas hidi nayning yoqimli ovozi bilan qo‘shilib ketdi. 9. Bir qarashdayoq uning zehnli, o‘qimishli ekanligini bilib oldim. 10. Nodonlardek otangning kimligini pesh qilma, o‘zingga sen hunardin o‘zgani ota bilma.

3-mashq. Guruh talabalari orasida **Kim ilg‘or?** o‘yinini tashkil eting. Bunda talabalar 3-guruhga bo‘linadilar va har bir talaba o‘zi mustaqil ravishda 2 daqiqa vaqt davomida ko‘makchi fe’llarga misollar yozadi. Shart yakunida har bir guruh yozgan ko‘makchi fe’llar sanalib g‘olib bo‘lgan guruh aniqlanadi.

4-mashq. To‘liqsiz fe’llar bilan qo‘llangan fe’llarni aniqlang va ularni tahlil qiling.

1.Shimoliy qutbdagi yagona fonusni yoqishi lozim bo‘lgan charog‘bon bilan uning Janubiy qutbdagi hamkasbiga hammadan ham mazza edi. 2. Onasi necha yildirki, uni uylantirishni orzu qilar, ammo Alimardon unamas edi. 3. Bu bolaning turqi sovuqroq edi. 4. O‘sha kuni havo ochiq,quyosh nur sochmoqda edi. 5. Orqada o‘tirgan Munira derazadan tevarakka tikilib, allanarsalarni o‘ylab borar edi. 6. Aytishlaricha, bunday odamlar yuz yilda bir tug‘ilar emish. 7. Albatta, bu aytilgan gaplar yangilik emas. 8. Jamila sarvqomat, bejirim ayol edi. 9. Alimardon o‘shanda ham shayton edi.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa: O‘zingiz yoqtirgan badiiy asardan ko‘makchi fe’llar qatnahgan gaplardan 10 ta misol ko‘chirib yozing.

35-mavzu: Fe’lning vazifa shakllari

Reja:

1. Sof fe’l shakli
2. Harakat nomi shakli
3. Sifatdosh shakli
4. Ravishdosh shakli

1-topshiriq. Fe’lning vazifa shakllari va ularning ahamiyati haqida ma’lumot bering.

2-topshiriq. Quyida berilgan gaplar tarkibidagi fe’llarni aniqlang va ular fe’lning qaysi vazifa shaklida ekanligini izohlang.

1. Mehmonlarga har nav shirinliklar, pista, bodom, quruq mevalar juda mo‘l-ko‘l tortildi. 2. Bolalar juda yomon qo‘rqib ketishdi. 3. Sultonmurodga bir-ikki soat dars bermoq uchun u ba’zan o‘z uyida haftalab kitob ko‘rar edi. 4. Dumbul boshoqlar qo‘rda pishib, ancha mazali bo‘ladi. Bolalar undan bir kaft-bir kaft yeb olishsa, barvaqtroq uxlashadi. 5. Sultonmurod... bir oz enkayib, uning qo‘lini siqdi-da, bir qadam orqaga tashlandi. 6. Taxtda o‘tirgan Husayn Boyqaroga uch marta bukilib rasmiy ta’zimni bajo qilgach, ijozat so‘rab o‘tirdi. 7. Maktabni, maktabdoshlarimni har qancha qo‘msasam ham, otamning ra’yini qaytara

olmadim. 8. Kamol ahli aro, albatta, topg‘ay izzati oliy, har qaysi kasbida har kimsakim qildi hunar ixlos. 9. Har bir hunarg‘a bordur mushkul base mashaqqat, beranj muft davlat bor elga nogahonda. 10. Agar yerga topshirsang bir arpa dona, o‘rim vaqti berar biri yuz dona.

1-mashq. Gaplarni ko‘chiring va unda fe’llarning vazifa shakllarini topib qanday sintaktik vaizfada kelganligni aniqlang.

1. Biz jurnalist deganda, faoliyati hamma vaqt ham ko‘zga tashlanavermaydigan zahmatkash va kamtarin muharrirlar, noshirlar, zamonaviy axborot vositalariningishchi-xizmatchilarini ko‘z oldimizga keltiramiz. 2. Vatanimiz erishgan yutuqlarda, hayotimizda amalga oshirilayotgan, faxr-u g‘urur qilishga arziydigan o‘zgarishlarda jurnalistlarning hissasi bor. 3. Bugun biz yangi hayot qurayotgan ekanmiz, hayotning o‘zi jamiyatimizda hanuz saqlanib kelayotgan ba’zi munosabatlarni tubdan o‘zgartirishga da’vat etayotganini anglab olishimiz kerak. 4. Hayotimizda demokratik tushunchalarni qaror toptirish uchun bel bog‘lagan insonlardan o‘z burchini sidqidildan ado etishlari talab qilinadi. 5. Mehnat taqsimoti yuksak maqsadlarga erishishimiz yo‘lida biz uchun har tomonlama ma’qul bo‘ladi. 6. U hayron bo‘lib ohista boshini ko‘tardi, oyoqlarini ko‘rpaning ichiga uzatib o‘tirgan holda quloq soldi.

2-mashq. Sof fe’l, sifatdosh, harakat nomi, ravishdosh shakllari ishtirokida fe’llar hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

3-mashq. Fe’lning vazifadosh shakllarini (sof fe’l, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomini) topib, ularni to‘liq tahlil qiling.

Tabriklayman, xolajon! – dedi Gulsum Feruzaning xatini ko‘kragiga bosib. Dugonam baxtini cho‘ldan topibdi! Lekin Rayhon bu xatga nechundir quvonmadi. U o‘yga botib, Gulsumni ham bir nafas unutdi. Uning ko‘z oldida bulturgi yoz, Feruza bilan Sheralining shu hovlida, hov anovi ariq bo‘yidagiyakka tup olma tagida imtihonga tayyorlangan kezlari jonlandi. Ular Mirzacho‘lga bir vagonda birga ketishdi. Garchand ular cho‘lning boshqa-boshqa yeriga tushgan bo‘lsa ham, bir-birlariga xat yozishib turishgani Rayhonga ma'lum. Rayhon Sheralini yaxshi bilgani uchunmi yoki Feruzaning u bilan do‘stligi samimiyligiga guvoh bo‘lgani sababdanmi, har holda umrining bundan keyini ham bir-biriga yaqin bo‘lishini istardi.

4-mashq. Berilgan matn tarkibidagi fe’llarni toping va ularning sintaktik vazifasini aniqlang.

Men hech kimni malomat qilmoqchi emasman, buning uchun mening haqqim ham yo‘q. Lekin, nazarimda, shunday tuyuladiki, biz keyingi vaqtlarda

Vatanga muhabbatimizni ko‘proq «gap sotish» yo‘li bilan ifodalashga berilib ketganga o‘xshaymiz... Bir misol keltiraman: keyingi paytlarda ancha-muncha odamlar televizor orqali, yoki matbuot sahifalarida sira xijolat tortmay, «men falon sohada Vatan uchun 30, 40 yoki 50 yil xizmat qilib qo‘yganman», deya maqtanadigan bo‘lib qolishdi. Biroq odam o‘zi to‘g‘risida shunaqa deganida qilgan xizmatlarini pisanda qilayotganga o‘xshab ketadi. Albatta, biror sohada 30 yilmi, 40 yilmi ishlagani juda yaxshi – buning uchun faqat rahmat aytish va boshqa yo‘llar bilan rag‘batlantirish kerak. Lekin nima uchun buni – butun umr bo‘yi tirikchiligini o‘tkazish uchun maosh olib qilgan ishini o‘zining vatanparvarligi deb taqdim etishi kerak? Yo‘q, birodarlar, har nima bo‘lganda ham, men Vatan sevgisini oliyroq, yuksakroq bir xislat deb bilaman.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa: O‘zingiz yoqtirgan badiiy asardan fe’lning vazifa shakllari qatnashgan gaplarni ko‘chirib yozing va ularning qanday sintaktik vazifada kelayotganini aniqlang.

36-mavzu: Fe’llarning tuzilishi jihatdan turlari

Reja:

1. Fe’llarning tuzilish jihatdan turlari

2. Sodda va qo‘shma fe’llar

3. Juft va takroriy fe’llar

1-topshiriq. Quyidagi berilgan qo‘shimchalar yordamida fe’llar hosil qiling.

-la, -lash, -ay, -sa, -ik, -ot, -y, -lan, -a, -ik, -sira, -ir, -illa, -iq

2-topshiriq. Guruh talabalari orasida **“Kim chaqqon?”** o‘yini tashkil qiling. Bunda xona doskasi 3 qismga bo‘linadi va har bir guruhdan talabalar navbatma navbat xona doskasiga chiqib qo‘shma fe’llarga misollar yozadilar. Qaysi guruh talablari shartni birinchi bo‘lib xatosi yakunlasa o‘sha guruh g‘olib hisoblanadi.

1-mashq. Quyidagi gaplarni ko‘chiring va tarkibidagi yasama fe’llarni toping.

1.Kampir yangi ko‘rpacha solib, Abdullani o‘tkazar ekan, sevinchi ichiga sig‘may, shang‘illab gapirar, Abdulla esa javob berishga ulgurolmay jilmayardi. 2. Ikkitasi o‘lgudek qo‘rqoq, darrov juftakni rostlashadi. 3. Qitir-qitirdan Umida qayta uyg‘onib ketdi shekilli, norozi to‘ng‘illadi. 4. Zohid xotinining amriga bo‘ysunib chap tomonga yonboshladi. 5. Endi qo‘yib ber, men yashashim kerak. 6. Darvoqe, bizga o‘xshash ashaddiy kissavurlarni ko‘proq kun qushlarimas, tun qushlari deb atashsa, yarashadi. 7. Jazirama yoz kunlaridan birida Mingbuloqqa kiraverishdagi oq tunukat tomli uyning eshigini yosh bir yigit taqillatdi. 8. Yo‘q,

oshna, men sendan ayrilib qolgim kelmaydi. 9. Uning quvnoqligi, o‘zini erkin tutishi bilan faxrlanardim. 10. Hozir, yuragi qinidan chiqayozgan holda qorong‘i bo‘shliq sari uchib borayotganda shu so‘zlarni esladi.

2-mashq. Matn tarkibidagi tub va yasama fe’llarni aniqlang.

Ayni vaqtda qo‘sh surnay va to‘rt chirmanda havoni kuchli va tantanali sadolar bilan yangratib yubordi. Bir necha qiz o‘z-o‘zidan raqsga tushib ketdi. Mana qulochkash chapak chalib, ovozini qaldiroqday gumburlatayotgan Sobir Ermatov – Anorxon noz va sho‘xlik bilan o‘yin girdobiga kirganda – bardosh qilolmadi, uzun, qudratli qo‘llarini mardona silkib, o‘ynab ketdi. Qaynoq yigit davrada bir aylandi-yu, bir qo‘li bilan O‘ktamning qayishiga chang solib, do‘stini o‘rtaga tortdi. O‘ktamning yuzi olovlandi, bir dam tixirlik qilib, keyin o‘z bilganicha o‘ynadi, Sobirning atrofida aylana boshladi. Tevarakda qiyqiriq avjga chiqdi. Xadicha xola guldor ko‘ylagining keng, uzun yenglarini hilpiratib, ...maqom bilan yo‘rg‘alay boshladi.

3-mashq. Qo‘shma fe’l va ko‘makchi fe’llarning bir-biridan farqini tushintiring. Ularga misollar yozing.

4-mashq. Gaplar tarkibidagi fe’llarni aniqlang va quyidago jadvalga joylashtiring.

Sodda		**Qo‘shma**	**Juft**	**Takroriy**
Tub	**Yasama**			

1.Qulmuhammad o‘zi yaratgan kuylar bilan shuhrat topgandi. Ammo barcha sozlarni chalishda, ayniqsa, nay chalishda Shayxiyning oldiga tushadigan kimsa yo‘q edi. Navoiyga ko‘zi tushishi bilan Shayxiy shoirni qutlab nay chala boshladi. Kuygoh bahor kunlaridagi qushlar navosini eslatar, goh uyquga ketayotgan xasta bolasi tepasida kuylayotgan onaning allasi singari o‘ychan va mungli yangrardi; ammo keyinroq borib, quvonch sadolari tantana qildi. Shayxiy kuyni rosa avjiga olib chiqib, shartta to‘xtatdi-da, Navoiyga ta'zim qildi. “Bag‘oyat go‘zal, tengi yo‘q maqom!” – dedi ko‘zlari yoshlangan Navoiy va mashshoqni bag‘riga bosdi, 2. Ba’zilar ertalab ko‘rishishga va'dalashib omonatgina xayrlashib ketishgani bilan, boshqalar kelib davra yana to‘ladi, suhbat qizigandan-qiziydi.

Talabalarni baholash: darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa: Xudoyberdi To‘xtaboyevning **“Sariq devni minib”** asaridan fe’llarning tuzilishiga ko‘ra turlari ishtirok etgan gaplarga misollar yozing.

37-mavzu: Ravishning ta’rifi, leksik grammatik xususiyatlari, ma’no guruhlari.

Reja:

1. Ravish haqida ma’lumot

2. Ravishning leksik xususiyatlari

3. Ravishning grammatik xususiyatlari

1-topshiriq. Sekin, tez, zo‘rg‘a, oz, ko‘p, ancha so‘zlari ishtiroda gap tuzing. Ularning ma’nosi va gapdagi vazifasini ayting.

2-topshiriq. Quydagi jadvaldagi ravish ma’no turlariga misollar yozing.

Holat ravishi	Payt ravishi	O‘rin ravishi	Miqdor-daraja ravishi	Maqsad ravishi	Sabab ravishi

1-mashq. Ko‘chiring. Berilgan gaplardan ravishlarni toping. Ularni guruhlarga ajrating.

1.Toshpo’latning yordamchilari birin-sirin kelishdi. 2. Gulzordagi anvoyi gullarning yaproqlarini birov erinmasdan bittalab artib chiqqanday. 3. Saroy uchun allaqancha taxta, yog’och, tunuka oldirib qo‘ygan. 4. Ular yonma-yon o’tirdilar. 5. Vodiylarni yayov kezganda, Bir ajib his bor edi menda. 6. Ashula eshitayotgan bo’lib, zimdan Chorini kuzatdi. 7. Siz bahuzur dam olib yotavering, darrov kelib ovqatga unnab yuboraman. 8. ...Yarim kechagacha chuvalchangnamo harflarni o’z qo’li bilan terib, birinchi nutqini zo’rg’a yozib bo’ldi. 9. Halima o’zining uchqo’rg’onlik ekanini bexosdan eslab qoldi. 10.Ertagayoq Abduhalilni Quvasoyga jo‘nataman. 11. Hali u yerdan, hali bu yerdan gulduros qarsaklar eshitilgan bo‘ldi.12. Keyin eski maktabga bir kun borsa, uchu kun bormaydigan odat chiqardi.

2-mashq. Ko‘chiring, ravishlarni topib, ma’nosi, so‘rog’i va grammatik xususiyatlarini ayting.

1.Ozroq podada yurmasa, biz bunda eplolmaydiganga o‘xshaymiz. 2.Nizomjon u yoqdan bu yoqqa yuradi, sal tovush kelsa darrov alanglaydi.3. Tilmoch jim o‘tirganini ko‘rgan O‘gilniyoz hola pastdan luqma tashladi. 4. Qo‘shnikiga tomizg’i so‘rab kirgan Hamaljon bir zumda bir talay gap topib chiqdi.5. Kattagina kul rang chamadonini ko‘tarib olgan Feruza hozirgina o‘zi tark etgan vagon bilan yigirma qadamcha yonma-yon yurib bordi. 6. Qiz etaklarini hilpiriatib oldinda shamoldek yelib borardi. 7. Quyosh deraza qirovini eritib har kuni bir tomchidan tuvakka sachratganidan Nigora bexabar

edi. 8. Pastda toshqin Amu pishqirib, shag'illab ko‘hna Orol tomon oqmoqda. 9. Elmurod noiloj indamaslikka majbur bo‘ldi. 10. Dildor daladan qaytayotib yo‘lni qisqartirish uchun ataylab tutzor oralab yurardi.

3-mashq. Gaplarni yozing. Ravishlarning toping va qanday ma'no anglatayotganini tushuntiring.

1.Shu vaqt nima uchundir hamma birdan sharaqlab kulib yubordi. 2. Ertaga o‘rtoqlarimga toza maqtanadigan bo‘ldim-da. 3. Tinib-tinchimas bu chol umr bo‘yi o‘z loyihalarini, chizmalarini Ma'suma bekaga gapirib keldi, aslida u uning loyiha-yu chizmalariga aslo tushunmasdi. 4. Vladimir janoblari Namoz Pirimqul o‘g‘li ishini qabul qilib olganiga bir hafta bo‘lgan bo‘lsa ham uni darrov tergovga chaqirmadi. 5. Bu voqea xuddi kechagina bo‘lgandek, ammo darrov uch yil o‘tibdi. 6. Vodiylarni yayov kezganda, Bir ajib his bor edi menda. 7. Qabristondan ancha uzoqlashgandan keyin yana otlariga minib yo‘rtib ketishibdi. 8. Keyin sal hushimni yig‘ib qarasam, oyoqlarim go‘yo o‘zidan o‘zi yurib ketyapti. 9. Ulardan biri akamning qayerdaligini so‘ragan edi, men ertalab uloqqa ketganligini aytdim. 10. Ertalab chiqib ketasan, yarim kechada qaytasan.

4-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Ravishlarning tagiga chizing va qanday ma'no anglatayotganini ayting.

1.Shunda bechora sayyor iltimos qilmish darrov, Vasiyatimni aytay, agar bo‘lsa bemalol. 2. U bexosdan kelib, yigitni belidan oldi-da, chirpirak qilib uloqtirib yubordi, yigit anña yergañha gandiraklab borib tizzalab qoldi. 3. Elchi hozir o‘z podshohining topshirig‘ini bajarish uchun butun ayyorligini ishga solar, tilyog‘lamalik qilib, To‘marisni maqtab, ko‘klarga ko‘tarar edi. 4. O‘g‘illari suyunib, safar tayyorgarligini ko‘rishib, erta saharda otlanib yo‘lga tushibdilar. 5. Ba'zan Hasanni ham birga olib ketadi.6. Shu payt uydan — yotog‘imizdan bolalar ham birin-ketin ko‘zlarini uqalab, har yoqqa qarab tushib kela boshladi. 7. O‘rtanña botir qo‘rqmadi, jim turdi. 8. Uzoqdan, kun botish tomondan g‘ira-shira uchqun ko‘rinib qoldi. 9. Bular ðiyoda asta-sekin o‘rdaga bordilar. 10. Buxoroga omon-eson yetib borganlaridan so‘ng uning tarhini yaxshilab qog‘ozga chizajagini aytdi.

Uyga vazifa: Abdullar Qahhorning "Bemor" hikoyasida ravish ishtirok etgan gaplarni ko‘chirib yozing.

38-mavzu: Yordamchi so‘zlar. Ko‘makchilar.

Reja:

1. Yordamchi so‘zlar haqida ma’lumot.

2. Ko‘makchi haqida ma’lumot.

3.Ko‘makchining turlari.

1-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Gaplar takibidagi so‘zlarni mustaqil va yordamchi so‘zlarga ajrating.

Ey farzand, aqlli, farosatli va ilm-u hunarli kishilar bilan do‘st bo‘l. Hunarsiz kishida xosiyat bo‘lmaydi. Mehnatdan, ilm-u hunar o‘rganishdan uzoqlashma. E’tibor berganmisiz yoki yo‘qmi, bilmadim-ku, sizning sadoqatda tengsiz do‘stingiz bor. Qachon xohlasangiz, siz bilan hamsuhbat bo‘ladi. Shod paytingizda quvonchingizga quvonch qo‘shadi. G‘amgin pallada dardingizni oladi.
Bilmaganingizni o‘rgatadi. Adashsangiz, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi. Yaqin kishilaringiz burilib ketganda ham u sizni tark etmaydi. Xizmati uchun hech nima tama qilmaydi. Yillab unutib, tashlab qo‘ysangiz, indamaydi. Hatto uloqtirib yuborsangiz ham, arazlamaydi. Tag‘in chorlasangiz, yetib kelib, xizmatingizni qilaveradi... **Bu do‘stning nomi – Kitob!**

Mustaqil so‘zlar	Yordamchi so‘zlar

2-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Yordamchi so‘zlarning tagiga chizib, izohlang. **“Inson baxt uchun tug‘iladi”**. Shu fikrga munosabatingizni bildiring.

1. Xalqning sabr-toqati cheksiz emas. U dengizga o‘xshaydi: goh to‘lib, goh ozayib turadi. 2. Xalqimiz faqat jisman emas, ruhan ham uyg‘oq bo‘lmog‘i darkor. 3. O‘z tarixi va ajdodlarini siylagan xalqning kelajagi, albatta, porloq bo‘ladi. 4. Ma’naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o‘giti bilan
singadi. 5. Aslida, inson baxt uchun, dunyo ne’matlaridan bahramand bo‘lish uchun tug‘iladi.

3-mashq. Ko‘makchilarni topib, o‘zidan oldin kelgan so‘zlar bilan birga ko‘chiring va gapda qanday sintaktik munosabatlarni ifodalashini ayting.

1. Yaxshi kitob muallifning odamzod uchun atalgan tortig‘idir. 2. Ilm va dinning mashhur kishilari o‘z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar. 3. «Ey farzand, ilm olmoqning fazilatlari ko‘pdirkim, ilm orqali hayoting farog‘atda, yurish-turishing hurmatda bo‘lur». 4. Sabrli bo‘lish kabi

fazilatlarni o‘zingizda mujassam eting. 5. Imonli kishi aql-zakovat sohibi bo‘lish bilan birga insoniy, ijtimoiy muammolarni hal etishda faol ishtirok etadi. 6. Insof va insofli bo‘lish singari tushunchalar ayrim diyonatsiz odamlar uchun qadr-qimmatsiz bo‘lib qolgandek bo‘lib ko‘rinadi. 7. Vaqt o‘tgan sari odam yaxshilik, ezgulik kabi umr ishlariga tashna bo‘lib yashaydi.

Uyga vazifa: O‘zingiz yoqtirgan badiiy asardan ko‘makchilar va qo‘shimchalar ma’nodoshligiga misollar topib, daftaringizga yozing., unda ishtirok etgan yordamchilarni, ko‘makchilarni tahlil qiling.

Bog‘lovchilar va yuklamalar.

Reja:

1. Bog’lovchi haqida ma’lumot.
2. Bog‘lovchining turlari.
3.Yuklama haqida ma’lumot.
4.Yuklamaning ma’no guruhlari.

1-mashq. Bog‘lovchilarni topib, ma’no guruhlariga ko‘ra turini qavs ichiga yozing.

1.Ayol va ijod tushunchalari ayol va bahor kabi bir-biriga yaqin, uyg‘un. 2. Ipak kiyim-kechaklar dazmollanmasligi ma’qul, agar zarur bo‘lsa, teskari tomonidan yoki ustiga zig‘ir tolasidan to‘qilgan mato qo‘yib, qattiq qizimagan dazmol bilan dazmollanadi. 3. Qo‘zg‘algan kasallikni yengish uchun tirik tanda «antitanacha»lar hosil bo‘ladi, ammo bu kasallikni yengish uchun har doim ham mikroorganizmlarning samaradorligi sezilarli bo‘lmasligi mumkin. 4. Muallifning Vatan, davlat va jamiyat oldidagi mas’uliyati shu qadar yuksakki, shaxsiy manfaat, mukofot yoki lavozim ilinjiga o‘rin qolmasin.

2-mashq. Gap tarkibidagi bog‘lovchilarning vazifasiga qarab, gaplarni jadvaldagi tegishli ustunga joylashtiring. Ma’naviy boylik nima? Shu haqda fikr bildiring.

1.O‘zi to‘rt tarafi ko‘z ilg‘amaydirg‘an darajada katta va sayhon bir yer ekan. 2. U seskanib tushdi, chunki chol ro‘parasiga kelib qolgan edi. 3. Ba’zan uloqni to‘dadan olib chiquvchi ham ko‘rinib qoladi, biroq uning ketidan uloqchilar chug‘urchuqday yopirilishib, o‘n-o‘n besh qadamda tutib oladilar. 4. Nega kerak gapning «nega, nega»si, Yo shoir, yo marhum buning egasi. 5. Qancha yo‘llar bosdim, gohida toldim, Lekin xalq nomiga yuqtirmadim gard. 6. Ularda dard va

iztirob ne qilar, Ular faqat kishnab yurgan yilqilar. 7. Yo‘qolgan moddiy boylikning o‘rnini to‘ldirish mumkin, lekin ma’naiy boylikdan judo bo‘lish – fojia.

3-mashq. Quyidagi gaplarni ko‘chiring. Gapga so‘roq, his-hayajon, taajjub, ta’kid, kuchaytiruv, ayiruv ma’nolarini beruvchi so‘z va qo‘shimchalarni topib, ularning ostiga chizing.

1. O‘shanda Asadbek undan norizo bo‘lganida “Ikki kishi o‘rniga bitta odam o‘tirgani durust emasmi?” deb o‘zini oqladi. 2. Ketma-ket ravishda ming marta, balki undan-da ko‘p hariflarning kuragini yerga tekkizgan polvon agar dono bo‘lsa, o‘ziga bino qo‘ymaydi, ming birinchi harifni ham albatta majaqlayman, deb katta ketmaydi. 3. Agar G‘ilay tirsagi bilan turtib yuborsa, to‘pponchasi ish bermay qolishi, hatto Bo‘tqaning o‘girilishga ham ulgurmasligi mumkinligini o‘ylamadi. 4. “Qarg‘alar sovuqdan qo‘rqmaydi-ya, men axir yigit bo‘lib qolgan bo‘lsam” o‘yladi Risqitilla va qarg‘aga qarab “hov, hov, ha, ha” deya qo‘llarini yuqoriga niqtadi. Unga beparvo qarab turgan qarg‘a Risqitillaning izzat-nafsiga tegdimi, u shartta oyoqlarini etikdan chiqarib o‘rikka chirmashdi-da, pichoq turgan shoxga olmaxonday lip etib chiqib oldi. 5. Yig‘i aralash yerga tushmoqchi bo‘ldimi, yo qirqayotgan shoxining qanchalik «joni» qolganini sinab ko‘rmoqchi bo‘ldimi joyidan qo‘zg‘alishini biladi – shox qasir-qusur qilib pastga ag‘darildi.6. Xudo asragan ekan, pichoq qor ichida naq uning yelkasi tushgan joyda yotardi. 7. Jardagi ariqlarda bir paytlar to‘lib suv oqqanini bilasan-a?!

Uyga vazifa: Bog’lanishli matn tuzib, unda ishtirok etgan bog’lovchi va yuklamalarni aniqlash va tahlil qilish.

39-mavzu: Alohida guruh so‘zlar

Reja:

1.Modal so‘zlar haqida ma’lumot.
2.Undov so‘zlar haqida ma’lumot.
3.Taqlid so‘zlar haqida ma’lumot.

1-mashq. Ajratib guruh so‘zlarning ma’nosini tushuntiring. Ulardan nutqingizda foydalanasizmi?

1. Dastlab ular Umidjonni ko‘rganda pisandsiz: «E, bu mishiqi bola-ku», – deyishar, biroq uning ertaklarini eshitgach, «Yo‘q, bu bola emas, dunyo ko‘rgan chol ekan», – deya tan berib ketisharkan. 2. Abduqodir «tss» deb barmog‘ini labiga qo‘ydi. 3. – Xo‘sh, ishlar yaxshimi, Hotamjon? – so‘radi Mirsidiq aravacha yonida

bitta-bitta odim bosib borishar ekan. 4. Faryodim, fig‘onim butun bir jahon, Ey muhtaram shoir, izladim, keldim. 5. Voy, shoshmang, diydorginasiga bir to‘yvolay.

Quyidagi undov so‘zlarni ikki ustunga bo‘lib ko‘chiring va ular ishtirokida og‘zaki gaplar tuzib, ishlatilish o‘rinlarini izohlang.

Oh, kisht, ey, uh, mah-mah, chuh, tr-r-r, uf, bay-bay, o‘hho‘, ehe, ohho, beh-beh, obbo, voyey, pisht, qurey-qurey, tu-tu, bah-bah, iya, oho.

2-mashq. Taqlid so‘zlarning tagiga chizing va ularning ma’no turini aniqlang. Taqlid so‘zlarning ishlatilishiga o‘z hayotingizdan misollar keltiring.

1.Namoz g‘azabi oshib, dag‘-dag‘ qaltiray boshladi. 2.Namiqqan shuvoqlar oldin tutab yaxshi yonmasa ham, keyinroq chars-churs uchqun sochdi-da, axiyri gurullabketdi. 3.Endi, ehtimol, dir-dir qaltiragan bolalar yuk ko‘tarishga yaramas edi, yaxshiyam Qo‘chqor bor ekan, kutilmaganda ajoyib bir ish qildi. 4. Boshidagi toj yal-yal yonarmish. 5. Shu payt gurs-gurs oyoq tovushlari eshitilib, ovlarda kabobpazlik qiladigan baqaloq bakovul ko‘rindi. 6. Torgina xonani xotin-xalajning qiy-chuvi tutdi. 7. Tongda ari gulga so‘zlar g‘uv-g‘uv-g‘uv, Guljonim, asaling ber, sog‘indim-ku. 8. Zum o‘tmay hovlida ship-ship ovoz eshitildi.

3-mashq. Gaplarni ko‘chiring, modal so‘zlarning ma’no turlarini aniqlang. Ularning ishlatilishiga o‘z hayotingizdan misollar keltiring.

1.Avvalo, insonning qalbi go‘zal bo‘lmog‘i kerak. 2. Afsuski,besh qo‘l barobar emas. Oramizda yomon niyatli kimsalar ham uchrab qoladi. 3. Ularga qarshi kurashish hammamizning burchimiz, albatta. 4. Xayriyat, odamlarimizga insof va diyonat qaytib kelmoqda. 5. Xullas, biz ulug‘ odamlarning farzandlarimiz. 6. Qizlar jim edilar. Aravakash zerikdi,shekilli, astagina ashula boshladi. 7. Darhaqiqat,Zulfiya she’riyati mardona she’riyat. 8. Balki, ustoz Oybekdek to‘lib, Yozajaksan yangi bir doston. Balki, HabibAbdulla bo‘lib, Sahrolarda ochajaksan kon. 9. Mening beshigimga otilgan ul o‘q Sizning umringizni uzgan, ehtimol.

4-mashq. Gaplarni yozing. Modal so‘zlarni topib, ularning qanday ma’no anglatayotganini tushuntiring.

1. Xullas, ana shu ajriqzordan sal o‘tgandan keyin qishloqcha boshlanadi. 2. Abduqodirning ham tomog‘iga bir narsa kelib tiqildi, shekilli, gapirolmadi. 3. Karimberdi otasiga bir qaradi-yu, nimadandir xijolat bo‘ldi, shekilli, darrov ko‘zini olib qochdi. 4. Lekin Me’morning, avvalo, raiyat, qolaversa, saltanat oldidagi mavqeyi, Xuroson-u Movarounnahrdagi shuhrati unga qarshi keskin chora

ko‘rishga yo‘l qo‘ymas edi. 5. Shuning uchun uyga kirayotganda, albatta, yuz-qo‘lini tozalab, kiyimlarini qoqib kirdi.
Uyga vazifa: “Go‘zal yurtimga bayramlar yarashadi” mavzusida matn tuzing. Unda ishtirok etgan alohida guruh so‘zlarni tahlil qiling.

40-mavzu: Sintaksis. So‘z birikmasi sintaksisi.

Reja:

1. Sintaksis bo‘limi haqida ma’lumot.

2. Sintaksis bo‘limining o‘rganish obyekti.

3. Sintaksis bo‘limining o‘ziga xos xususiyatlari.

1-topshiriq. Quyidagi berilgan savollarga javob bering.
1. Tilshunoslikning qaysi bo‘limlarini bilasiz?
2. Tilshunoslikdagi barcha bo‘limlar o‘zining imkoniyatini qaysi bo‘limda ko‘rsatishi mumkin? Misollar bilan isbotlang.
3. Sintaksis bo‘limining o‘ziga xos xususiyatlarini sanang.
4. Sintaksis bo‘limi qaysi masalalar yuzasidan bahs yuritadi.
5. Morfologiya va sintaksis bo‘limining o‘zaro aloqadorligini misollar yordamida tushintiring.
6. Sintaksis bo‘limining o‘rganish obyektlari qaysilar?
7. So‘z birikmasi haqida ma’lumot bering.
8. So‘zlarning o‘zaro bog’lanish usullarini tushintiring.
9. So‘z birikmasining tuzilishiga ko‘ra turlarini sanang.
10. So‘z birikmasida so‘zlarning o‘zaro bog’lanish usullarini tushintiring.

2-topshiriq. Quyidagi berilgan hikmatli so‘zlarning ma’nosini izohlang.

1-mashq. Quyidagi berilgan gaplarni so‘z birikmalariga ajrating.

1.Yoshlarimizga ko‘z tegmasin, ular bizdan ko‘ra aqlliroq, bilimdonroq bo‘lib o‘sishayapti. 2. Usta Binoqul shishib ketgan oyoqlarini sudrab bosgancha zorlanib inqillaydi. 3. Qiz ertayu kech soatga qaraydi, daqiqalar sanaydi. 4. Qo‘rqoq do‘st dushmandan xafvlidir. 5.Sizdan bu qilgan ishim uchun afv so‘ramoqchiman. 6. Hayotda rahm va shavqat borligiga xursand bo‘lmog‘imiz kerak. 7. Sizga shuni aytib qo‘ymoqchimanki, tafsifnomangizni yozib qo‘ydik. 8. Bu sohada ko‘plab ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi. 9. Unga hozir eshitguvchi **quloq** kerak edi, shu bois gapirishdan to‘xtamadi.10. Qo‘zivoy chol anchadan

beri **samovarga** chiqmay qo‘ygan.

2-mashq. Quyidagi berilgan gaplarni so‘z birikmalariga ajrating. Hokim va tobe so‘zning qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanayotganing aniqlang.

1.Sayroqi qushlar makoni bo‘lgan bu bog‘ endi xunuk manzara kasb etgan edi. 2. Unsin xola ko‘rpaning chiroyli qavig‘iga qarab o‘z ishidan mamnun bo‘lardi. 3. U mayda tishli taroq bilan sochini avaylab taradi. 4. U do‘stiga qaynoq tilaklarini izhor qilmoqchi edi. 5. Nursultonning quvnoqligi atrofdagilarning ham kayfiyatini ko‘tardi. 6. Agar do‘stingga tushgan xafv seni ham tahlikaga solmasa, sen chinakam do‘st emassan. 7. Podshox asirni afv etibdi, bu esa uning vaziriga yoqmabdi. 8. Bu savollardan shu ma’lum bo‘ldiki, aybnoma uydurma emas ekan. 9. Kimki astoydil harakat qilsa, muvafaqiyat uni, albatta, topib keladi. 10. Xalq e’zozi inson uchun eng oliysovg‘a hisoblanadi.

3-mashq. Guruh talabalari o‘rtasida **“Kim chaqqon?”** o‘yinini tahkil eting. Bunda talabalar 3-guruhga bo‘linadilar: 1-guruh boshqaruv usulida, 2-guruh moslashuv usulida, 3-guruh bitishuv usulida birikkan so‘z birikmalariga misollar topib xona doskasiga yozadilar. Belgilangan vaqt davomida qaysi guruh talabalari ko‘p misollar yozgan bo‘lsa shu guruh g’olib hisoblanadi.

1-guruh: uyga qaytmoq

2-guruh: bizning diyor

3-guruh: baland bino

4-mashq. Guruh talabalari orasida **“Kim topqir?”** o‘yinini tashkil qiling. Bu jarayonda berilgan so‘zlarga kim eng ko‘p so‘z birikmasi hosil qila olashi muhim hisoblanadi.

gul, kitob, bahor, qaytmoq, kelmoq, o‘qimoq, olmoq, shahar, bino.

Namuna : chiroyli shahar, katta shahar, keng shahar, uzoqdagi shahar.....

5-mashq. Quyida berilgan gaplarni so‘z birikmalariga ajrating va ularning orasidan otli, fe’lli birikmalarni aniqlab yozing.

1. So‘fi jim qoldi, xatto ko‘zlariga yosh kelganday bo‘ldi (Cho‘lpon.) 2. Gulnor Nurining o‘z oilasidagi voqealardan, bilgan- eshitganlarini so‘zladi (Oybek). 3. Gulnorning g‘oyib bo‘lishi Yo‘lchiga yashin urgan kabi ta’sir ko‘rsatdi. (Oybek). 4. Gunohlar kirini pushaymonlik va tavba yoshi yuva olishini kim bilmaydi. (T. Malik). 5. Qumsuvoqqa tushishgan kuni ham hasharchilar oldigaborgan edim. 6.Paxsa- kurakka loyni to‘ldirib bir otganda bobomning qo‘liga borib tushadi. 7.Kimsan akam oyimning qo‘lidan sirg‘alib chiqdi-da, eshik tomon g‘izilladi. 8.Oyim dod solib, olamni buzib yuborsa kerak, deb qo‘rqqan edim. 9.

Bostirmaga uchib kirdim-u eski sandiq ustidagi dasturxonga o‘ralgan patirni oldim. 10. Shapkali kishi qo‘li bilan poyezd ketgan tomonga imo qildi. (O‘. Hoshimov.)

Uyga vazifa: Said Ahmadning “Qora ko‘z majnun” hikoyasini o‘qib, so‘z birikmasining bog‘lanishiga ko‘ra turlariga 10tadan misol topib yozing.

41-mavzu: Gap sintaksisi. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari.

Reja :

1.Gap haqida ma’lumot.
2.Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari.
3.Darak va so‘roq gaplar.
4. Buyruq va istak gaplar.

1-topshiriq. Gap va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida guruh talabalari orasida bahs-munozara tashkil qiling.

2-topshiriq. Bog‘lanishli matn tuzing. Unda qatnashgan gaplarni ifoda maqsadiga ko‘ra turlarga ajrating.

1-mashq. Berilgan tez aytishlarni mashqa qiling. Qaysi undosh tovushni talaffuz qilishda qiyinchilik yuzaga kelayotganini aniqlab unga tavsif bering.

1. Jamila jiydani joyiga joyladi. 2. Shu mushuk, shum mushuk, shumshuk mushuk. 3. Jo‘ja cho‘chib go‘ja cho‘qir. 4. Moshdan tosh, toshdan mosh bo‘lmas. 5. Chumchuq chug‘urchiqni cho‘qimasa, chug‘urchiq chumchuqni cho‘qimaydi. 6. Sovuqda tustovuq sovuq qotdi. 7. Boqi bog‘ga, Soqi tog‘ga bordi. 8.Saodat soatini soatsozga sozlatdi. 9. Qo‘sh qo‘lqop, qo‘shovi ham bo‘sh qo‘lqop. 10. Shokir sholipoyada shovqin solib, shaqildoqni shaqillatdi.

2-mashq. Berilgan matnni o‘qing. Unda ifodalangan mazmun yuzasidan guruh talabalari orasida erkin bahs-munozara tashkil qiling.

Senga ta’zim, ozodlik!

Men Mustaqillik bayrami kunini bahorni kutgan kabi orziqib kutaman. Najot yomg‘irlarini kutib, 130 yil qaqragan ona-Vatan tuproqlari kabi mushtoq bo‘lib kutaman. Ozodlik kuni millatning bahori tashrif etgan kundir. Bu kun yuragimizning tavallud lahzalari kabi mo‘jizaviydir. Bu kun Qodiriy boboning ichikkan ohi bizni uyg‘otgan kundir. Ozodlik millat ongidagi, qalbidagi tiriklik. Bu hurriyat yerni yengib bosh ko‘targan maysalar hurligiga, bashariyatning ne-ne ofatlar ustidan g‘olib chiqqandagi mukarram hurriyatiga o‘xshaydi. Bugungi hurlik, bugungi ko‘ngil bayramimiz – Mustaqillik ana shunday zahmatlar ortidan keldi bizga. Hur Vatanning bag‘rida qad ko‘targan yorug‘ kelajakning baland

poydevori bo‘lmish go‘zal binolarga ko‘z tashlayman: Omon bo‘l, Ozodlik! Amir Temur boboning muazzam haykali yonidan o‘taman: Boshimda tojimsan, Ozodlik! Bu faxrlar, bu iftixorlar qanday to‘ldi ko‘ksimga: Borlig‘imsan, Ozodlik! (Guljamol Asqarova)

3-mashq. So‘zlovchining nutq jarayonidagi maqsadining amalga oshishini hamda gapning shu maqsadga ko‘ra turlariga misollar toping.

4-mashq. Bugun ertalab bajargan yumushlaringiz haqida so‘zlab bering. Nechta gapdan foydalanganingizni hamda mazkur gaplarning kesimi qanday shaklda ekanligini izohlang.

5-mashq. Berilgan gaplarni ko‘chirib yozing. Har biridan so‘ng uning qanday mazmunda ekanligini aniqlang. (tasdiq, inkor, xabar, orzu-umid, maslahat, taajjub, tashvish, gina, kinoya).

1. Davlatimiz miqyosida olib borilayotgan ishlar, har bir zamondoshimiz qalbiga yorug‘lik sochmoqda. 2. Axir qush uyasida ko‘rganini qiladi. 3. Ba’zan ayollarning o‘ziga befarqligini ko‘rib hayron qolasan, kishi. 4. Ayollarning tibbiy madaniyatini oshirish to‘g‘risida ham o‘ylamog‘imiz zarur. 5. Biz, o‘zbeklar, oilaparvar xalqmiz. 6. Buyuk Navoiyga alohida e’tibor bugungi kunda davlat maqomi darajasiga aylanganligi millatimizning baxtidir. 7. Dunyoda adolat hukmron bo‘lishi uchun har bir inson ulkan iste’dodini, butun kuch-g‘ayratini sarflamog‘i joiz. 8. E’tibor bering: Navoiy she’riyat olamiga kirishi bilanoq asarlarini o‘z ona tilida yoza boshlagan. 9. Alisher Navoiyning ummon qadar bepoyon ijodidan hamma o‘z iste’dodiga yarasha bahramand bo‘lishi mumkin. 10. Barcha insonlar o‘zidan yaxshi nom qoldirmoqqa intiladi. (Gazetadan)

6-mashq. Ko‘chiring. Tasdiq va inkor gaplarni toping.

1. U kelsa, oshnasini ko‘rmay ketmaydi. 2. Bilmadim, tuman tarqaldimi, oy chiqdimi, bobomning yuzi yorishgandek bo‘ldi. 3. Seskanib ketdim. Hali qorong‘ida ko‘rmagan ekanman. Bobom boshyalang, yuzini tanib bo‘lmas, kiyimlari pora-pora bo‘lib ketgan edi. 3. Aytmovmidim, hech kimdan ko‘rmaganingni mana shu Potmadan ko‘rasan deb. 4. Potma aytdi, ota, nevarangiz yettiga kirdi, to‘y qilmaymizmi, dedi. 5. Bilaman, ikkalamizning muchalimiz bir, ammo onangni qornida yotgan to‘qqiz oyniyam hisoblash kerakmi – kerak. Bundan tashqari muchaling ikki marta aylanganida bir yosh qo‘shiladimi – qo‘shiladi! 6. Kerakmas bizga bunaqa rais! 7. Umar zakunchi serrayib turar, ammo endi boyagidek esankiramas, yuzi qahrli, qat’iy tusga kirgan edi. 8. Zakunchining basharasiga qaragim kelmas edi. 9. Oqsoqol bilan bobom

kechasi chiqib ketgancha qaytishmagan edi. (O‘. Hoshimov)

Quyidagi maqolni yod oling hamda uning ma’nosini izohlang.

To‘kilsa manglay tering, Unumli bo‘lar yering.

7-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Buyruq gaplar qanday ma’no anglatayotganini ayting.

1. Moziy va istiqbolga munosib bo‘lish uchun, keling, biz ham mana shu tabarruk ayyomlarning totini teran his qilib shukronalik bilan hayot kechiraylik. 2. Ey Navoiy, boda birlan xurram et ko‘ngil uyin... (A. Navoiy) 3. Olamning farzandi bo‘lmish har bir odam ixtiyorsiz ravishda o‘z ulug‘ volidasiga taqlid qilib yashasin. 4. Tadbirlarga ko‘ra, harbiy qismlarda jangchilar o‘rtasida turli sport musobaqalari uyushtirilsin. 5. Opaning ko‘zlariga yana bir bora boq, horg‘inligiga e’tibor ber. 6. Bu gaplarimni ukangga aslo ayta ko‘rma. 7. Yer yuzini munavvar etaylik. 8. Tabarruk boshingiz doimo omon bo‘lsin. 9. Siz o‘g‘limga ozor bermang. (Gazetadan)

Uyga vazifa : Darak, so‘roq va buyruq gaplarga xos turli uslubiy bo‘yoqni aniqlang. Bunday gaplarning nutqda qo‘llanishini tushuntiring.

42-mavzu: Gap bo‘laklari haqida umumiy ma’lumot. Gapning bosh bo‘laklari.

Reja :

1.Gap bo‘laklari haqida ma’lumot.

2.Gapning bosh bo‘laklari.

3.Kesim gapning markazi ekanligi.

4.Ega haqida ma’lumot.

1-topshiriq. Berilgan gaplardagi so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishini aniqlang.

1.Hovuchimga suv to‘ldirib, orqaga qarab yugurdim. 2. Konglim bom-bosh bolib qolgan edi. 3. Yomg‘irda vahimali shovullab turgan yong‘oqzor ichiga kirgandagina o‘zimga keldim.

2-topshiriq. Berilgan gaplarni tahlil qiling. Qaysi gap bo‘laklari ishtirok etganini aniqlang.

1.Pastdan tashib chiqarilgan tuproq derazasigacha ko‘tarilgan novvoyxonaning mo‘risidan alanga lop-lop ko‘tarilar, ojiz uchqunlari nim qorong‘i osmonda birin-ketin so‘nadi. 2.Eshagini sartaroshxona oldidagi tolga bog‘lab qo‘yib, yelkada xurjun to‘la baxmal, atlas, har xil tugma, zirak, baldoqlar bilan

mahalla aylanardi. 3.Toshloqliklar allaqachon yer qazish ishlarini tamomlab, boshqa uchastkaga yordamga o‘tishgan, Bag‘dodliklar bo‘lsa kolxozlariga qaytib, dala ishlariga unnab ketishgan edi. (S.Ahmad.)

1-mashq. Berilgan gaplarni gap bo‘laklari yuzasidan tahlil qiling hamda gapdagi tobe bog‘lanishlar sonini aniqlang.

1.Sayyora chinni choynak bilan choy qutini ko‘tarib,chiqib ketdi. 2.Sayyora ko‘p qizlarning oh-voh solib, sevib qoldim, usiz turolmayman, deganlarini eshitgan edi, bilardi ham. 3.Dadasining ilmoqli gapi, onasining ogohlantirishi uni bu haqda o‘ylashga majbur qilib qo‘ygan edi. 4.Gulchehra shuni eslab borar ekan, minnatdorlik bilan Samadga qarab qo‘ydi. 5.Bilasanmi, u shunaqangi yaxshi odamki, o‘zini shu qadar menga yaqin tutadiki bu haqda og‘iz ochgani qo‘rqaman. 6.Kampirning boshi osmonga yetdi, ko‘z yoshi qildi, duo qildi. 7. U anchadan beri hind shippagini orzu qilardi, topolmadi. 8. Qorovul chol uni yaxshi ko‘rib qolib, shaharni ko‘rsatdi, boğiga olib bordi. 9. Oppoq, belidan ingichka oltindek zanjir o‘tkazilgan, poshnasi ham baland emas, yurishga oson. 10. Gulchehra oyga termilib, xuddi u bilan suzib ketayotgandek bo‘ldi. (O‘. Umarbekov.)

2-mashq. Berilgan gaplarni tahlil qiling.

1. Xonzoda begimning so'lg'in yuziga ko'zlaridan yosh sirg'alip tushdi. 2. Kampirning ketidan o'rta yashar ozg'in bir erkak yugurip chiqdi-yu, otliqlarni ko'rib qo'rqanidan bir lahza ag'rayip turip qoldi. 3. Mamat nonlarni titroq qo'llari bilan olib, qo'yniga tiqdi. 4. Qosimbek ham xato qilganki, meni behush ahvolda ko'rgan navkarni Samarqanda to'xtatib turmagan. 5. Yoshlik Shayboniyxon jang paytida bayroq va tug'lari qanchalik ulkan ahamiyat kashf etishini yaxshi bilardi. 6. Faqat To'xtamishxon temur bilan dadil olishgan, ammo omadi kelmay yengilgan. 7. Bo'stonsaroyning bir chetida rang barang toshlar bilan sangfarsh qilingan marmar hovuzli hammom bor edi. 8. Temur va temuriylardan chiqqan barloslar shayboniyxonning eng yomon ko'rgan urug'i edi. 9. Ko'shkdan yasovul chiqip, bog'da muntazir turgan lashkarboshi va a'yonlarni xon hazratlari yuqoriga qavatga kengashga chaqirganini aytdi. 10. Xonning ko'zlari davrada o'tirgan sultonlarni oralap o'tip, poygakroqda o'tirgan yo'g'on gavdali cho'tir qora kishida to'xtadi. (P.Qodirov.)

3-mashq. Berilgan gaplarga mos kesim qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

1. Beshik tebratgan qo‘llar dunyoga... 2. Dunyoda kechayotgan tabiat tanazzulini o‘ylasam, dilim tubidan bir nido... 3. Tarix haqiqati oyga... 4. Hikmat toshi vositasida kumush oltinga... 5. Qurumsoq tabassumini ham o‘zgalardan... 6.

Qafasda dunyoga kelgan qum ham erkin tush... 7. Begona yurt osmonidagi quyosh ham musofirga g‘arib... 8. Eng xosiyatli buloq – ilm chashmasi: undan suv ichgan sayin tashnalik... 9. Hikmatni o‘tda yoqsangiz, u qaqnus yanglig‘ kuldan yana... 10. U tavbaning kuchiga ishongani uchun ham dahriylik ko‘chasiga... (M. Xidir)

4-mashq. Ko‘chiring. Gaplarning kesimi, shuningdek, kesimlikni hosil qiluvchi shakllarni toping.

1. Vadud Mahmud do‘stlari bilan birga Behbudiyning so‘nggi izlarini boshqa shaharlardan ham qidirgandi. 2. U Cho‘lpon ta’sirida ozmi-ko‘pmi barmoqda (barmoq vaznida) qalam tebratgan. 3. Iste’dodli shoir Botu suronli davr zayli bilan 34 yil umr ko‘rdi. 4. Botu haqida o‘ylaganimda, uni yaqindan bilgan kishilardan biri Laziz Azizzodaning satrlari yodimga tushadi. 5. Abdulla Alaviyning bizgacha yetib kelgan bor-yo‘g‘i yetti-sakkiztagina she’rini o‘qiydigan bo‘lsak, ularda Cho‘lpon singari, bir xillikdan qochib, she’riyatning yangi-yangi ufqlariga intilgan shoirni ko‘ramiz. 6. 1931-yilning 8-yanvarida xalqimizning yana bir ardoqli farzandi A. Alaviy avji qirchillama yoshida olamdan o‘tdi. 7. Mana shunday sharoitda har jihatdan bilimdon va til biladigan kishini ko‘rsangiz, og‘zingiz ochilib qolishi turgan gap edi. 8. Usmonxon Eshonxo‘jayev 1937-yili «xalq dushmani» sifatida hibsga olinib, otib tashlangan edi. (N. Karimov)

5-mashq. Berilgan gaplar tahlil qiling. Gapda ishtirok etgan egalarni aniqlang.

1. Biz dadamning boshiga tushgan tashvishni oyimni ortiqcha iztirobga qo‘ymaslik uchun ataylab aytmay o‘tirgan edik. 2. Oyim akamning yuz-ko‘zlaridan,peshonasidan,hozirgina o‘zi tepgan yelkalaridan o‘par,entikar,allaqanday so‘zlarni aytib shivirlar edi. 3. Maymoq qorovul bor-ku,Orifmidi oti,ha,o‘sha Orif cho‘loq hammadan avval menga telefon qildi. 4. Bu gapni mensiz ham yahshi biladi u pismiq.Puxtalikka kelganda hammamizga dars berardi. 5. Ular bir-birining tilini yaxshi tushunadi-da.Yo‘l topishga usta bo‘lishadi. 6 .Qo‘rqma pismiq eringda pul ko‘p.Kamida yarim million jamg`armasi bor uning. 7. Har gal shu ishga qo‘l ursam vujudim terak bargidek qaltirab, qalbimni qorong`i vahima bosadi. 8. Ellik yil zar kukuni,oltinning dudi ichida o‘tirib, shu qizim bilganning yarmini ham bilmayman-a singlingda ilohiy bir sir bor,derdilar. 9. Oyijonim darvozaga yaqinlashib qaltiroq ovozda, nega tentaklik qilasan,ocha qol”, deb buyurdi. 10.Men bu voqealarni ipidan ignasigacha erinmay hikoya qilganimdan hayron bo‘layotgandirsiz. Yo‘q hayron bo‘lmang. 11.

Darvozaxonaga odamlar yopirilib kirayotgandi,kapitan, militsiya boshlig`i tasdiqlab bergan ro‘yxatdagi kishilardan boshqasiga ruxsat yo‘q. 12. Dunyoda qancha g`amginlik,qancha vahima bo‘lsa hammasi shu ko‘zlarda joylashib olganga o‘xshaydi. 13. Kulgi ta`siridanmi yoki boshimizga tushgan tashvishni bartaraf qilishga hammalari yeng shimarayotganlaridanmi, qalbimga quvonch qo‘yilgani,dilim yayraganini his qildim. 14. Mohira Jo‘rayeva Yoqutxon Karimovaga o‘n ikki dona oltin tanga sotib,yetti ming so‘mlik,jami yigirma bir dona zargarlik buyumlari sotib olayotganda qo‘lga olindi. 15. Bir hovlidagi nimjon-nimjon gul ko‘chatlari o‘tqazilgan behisob tuvaklarga suv quya boshladi. (X. To‘xtaboyev.)

Uyga vazifa : Nabi Jaloliddinning “Bayroq” hikoyasini o‘qing. Mazkur hikoyadan 10 ta gap olib, ularni tahlil qiling.

43-mavzu: Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari haqida ma’lumot. To‘ldiruvchi va uning ifodalanishi.

Reja:

1.Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari.

2.To‘ldiruvchi va uning ifodalanishi.

1-mashq. Berilgan gaplarni tahlil qiling. Unda ishtirok etgan ikkinchi darajali bo‘laklarni aniqlang.

1. Erkakning so‘zini ikki qilgan ayol nargi dunyoda do‘zoxga tushadi,deb ishonadi. 2.Yarim shisha aroq keltirib xontaxta ustiga do‘q etkazib qo‘ydi, amakim piyolani to‘ldirib qo‘ydi-da, huzur qilayotgandek, uzoq simirdi. 3. Bozorvoy amakim ertasiga xuddi shu payitda,dasturxon atrofida suddagi taassurotlarini yana hikoya qilib berdi. 4. O‘t o‘chiruvchilarning landovurligini pisanda qiluvchi so‘zlarni hisobga olmaganda, hammasida bir hil gap. 5. Men o‘t qo‘yganimni odamlar payqadimikin, shuni bilmoqchiman. 6. Ataullo muallim jindek dovdirroq bo‘lsa ham hamisha to‘g`ri gapni aytadi. 7. Yanagi haftaning xuddi shu kunida, chorshanbadan payshanbaga o‘tar kechsi Muhamedovning uyiga ham o‘t qo‘ydim. 8. Ichkarida olov goh pasayib, goh ko‘tarilib yana atrofni charog`on qilib yuboryapti. 9. Tandirning ustiga o‘tgach, nafasimni ichimga yutib shohona hovliga nazar tashladim. 10. Tandirning ustida boyo‘g`lidek cho‘nqayib o‘tirganimda ana shunday fikirlar miyamdan charx urib o‘tayotganini his qildim. (X. To‘xtaboyev.)

2-mashq. Berilgan gaplarni tahlil qiling. Unda ishtirok etgan to‘ldiruvchilarni aniqlang.

1. Biz jurnalist deganda, faoliyati hamma vaqt ham ko‘zga tashlanavermaydigan zahmatkash va kamtarin muharrirlar, noshirlar, zamonaviy axborot vositalarining ishchi-xizmatchilarini ko‘z oldimizga keltiramiz. 2. Vatanimiz erishgan yutuqlarda, hayotimizda amalga oshirilayotgan, faxr-u g‘urur qilishga arziydigan o‘zgarishlarda jurna-listlarning hissasi bor. 3. Bugun biz yangi hayot qurayotgan ekanmiz, hayotning o‘zi jamiyatimizda hanuz saqlanib kelayotgan ba’zi munosabatlarni tubdan o‘zgartirishga da’vat etayotganini anglab olishimiz kerak. 4. Hayotimizda demokratik tushunchalarni qaror toptirish uchun bel bog‘lagan insonlardan o‘z burchini sidqidildan ado etishlari talab qilinadi. 5. Mehnat taqsimoti yuksak maqsadlarga erishishimiz yo‘lida biz uchun har tomonlama ma’qul bo‘ladi. (Gazetadan)

3-mashq. Berilgan matnni tahlil qiling unda ishtirok etgan to‘ldiruvchilarni ajrating.

Dunyoning ishlari doim shoshilinch. Bugun kitobim chiqdi.Har gal yangi kitobim chiqishi bilan birinchi nusxasini onamga atar edim. Do‘stlarim:"Juda siqilib ketdingiz,aylanib kelamiz”,deb toqqa sudrashdi. Allamahalgacha o‘tgan-ketgandan gaplashib o‘tirdik. Tashqarida teraklar shitirlaydi. Har yili dam olishga borganimda onamga gilam paypoq olib kelaman. Oyim xuddi noyob narsaga ega bo‘lganidek,uzundan-uzoq duo qiladi. Bolaligimdan ko‘p kasal bo‘lardim:qizamiq,ko‘kyo‘tal,bezgak.... Ayniqsa,tomoq og‘rig‘i yomon qiynaydi. Mahallamizdan ikki chaqirimcha narida allaqanday bolalar uyi bor edi. Agar dunyoda ikkita beozor odam bo‘lsa bittasi Ermon buva. Bahor kirib ,oftobning iliq nurlari yelkani qizitadigan bo‘lib qolgan kunlar edi. Laylaktepadan o‘tib Qozirobodga borganda qaynama buloqdan muzday tiniq suv ichdik. Bola uchun ham onaning katta-kichigi bo‘lmas ekan. Bir kuni Xo‘ja,To‘y,Vali to‘rtovlashib rosa soqqa quvar o‘ynadik. Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko‘z oldimga keladi. Oyim farrosh edi.Shunday hovlimizning yonida bolalar oromgohi bo‘lardi. Yarim kecha bo‘lib qolgan,atrof jimjit.Faqat olislarda it uliydi. Ehtimol,osmondagi eng yorqin yulduzlar onalarning jonidir. (O‘. Hoshimov)

Uyga vazifa: A.Qahhorning “Bemor” hikoyasidan 15 ta gap oling, ularni gap bo‘laklari yuzasidan tahlil qiling.

44-mavzu: Aniqlovchi va uning ifodalanishi.

Reja:

1. Aniqlovchi haqida ma’lumot.
2. Qaratqich aniqlovchi.
3. Sifatlovchi aniqlovchi.
4. Izohlovchi aniqlovchining turi ekanligi.

1-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Gap bo‘laklarini tahlil qiling, qanday bo‘lakka tobelanayotganini aniqlang.

1. Hunari va odobi bo‘lmagan kishidan baxt va davlat ketadi. 2. Hunar bilan davlat birikishi barcha nodir narsalardan ham qimmatliroqdir. 3. Kasb ayla nishot mehnat oyinlik aro, kim ishrat umidi keldi g‘amginlik aro. 4. Tikansiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo‘lmas. 5. Kissayi purzar emish elga hunar, behunar elni derlar rishi xar. 6. Qaysi ilm va hunar kishining aqliga, ruhiga tarbiya berar ekan, unday ilm va hunar o‘z egasini har doim qo‘llab-quvvatlaydi.

2-mashq. Gaplarni ko‘chiring aniqlovchilarni topib aniqlang. Sifatlovchi va qaratqich aniqlovchilarni ajrating.

1. Choy ustida shiringina oilaviy suhbat boshlanib ketdi. 2. Ming bir xil davo bor totli asalda. 3. Chang-to‘zon bilan qoplangan osmonda mayda-mayda yulduzlar g’ira-shira miltirardi. 4. Boychechaklarning xushboy, sezilar-sezilmas hidi nayning yoqimli ovozi bilan qo‘shilib ketdi. 5. Bir qarashdayoq uning zehnli, o‘qimishli ekanligini bilib oldim. 6.Nodonlardek otangning kimligini pesh qilma, o‘zingga sen hunardin o‘zgani ota bilma. 7. Kamol ahli aro, albatta, topg‘ay izzati oliy, har qaysi kasbida har kimsakim qildi hunar ixlos. 8. Har bir hunarg‘a bordur mushkul base mashaqqat, beranj muft davlat bor elga nogahonda. 9. Agar yerga topshirsang bir arpa dona, o‘rim vaqti berar biri yuz dona. 10. Rayimbek dodxoh qilich yalanglab, sipohlar oldida olomong‘a qarab yugurdi.

3-mashq. Gaplarni tahlil qiling unda ishtirok etgan sifatlovchi aniqlovchi qanday ifodalanganligini tushuntiring.

1. Usta Binoqul shishib ketgan oyoqlarini sudrab bosgancha zorlanib inqillaydi. 2. Hofiz Ko‘ykiy esa lablarini mahkam qimtigancha ko‘proq o‘z yuragidagi vahmni yengish uchun unga tinimsiz taskin-tasalli beradi. 3. Karvondagi dunyo kezgan savdogarlarning vazmin, maroqli gurunglari yo‘l tanobini tortar, huvullagan, fayzsiz cho‘lning o‘lik manzarasiga bir qadar jonlanish bag‘ishlagandek bo‘lar edi. 4. O‘n sakkizinchi kuni sahar chog‘i kimsasiz biyobonda hali mast uyquda yotgan karvonni qaroqchi bosdi. 5. Eski imlodagi bir risola diqqatini tortdi. 6. Garchi bundoq xom xayollar bilan shu ravonda o‘zimni

aldab necha kuz-u, necha bahorni besamar o‘tkazib yuborgan bo‘lsam-da, baribir bu safar ishonchim komildek tuyulardi. (X. Sultonov)

4-mashq. Ona - ulug‘ zot mavzusida matn tuzib, unda ishlatilgan aniqlovchilarga va izohlovchilarga izoh bering.

Uyga vazifa: Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasini o‘qing, undan 10ta gap olib gap bo‘laklari yuzasidan tahlil qiling hamda aniqlovchilarni turlarga ajrating.

45-mavzu: Hol va uning ifodalanishi, turlari.

Reja:

1.Ravish holi, payt holi.

2.O‘rin holi, sabab holi, maqsad holi.

3.Daraja-miqdor holi.

1-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Hollarning sodda va murakkab ko‘rinishlarini farqlang.

1. Inson fe’l-atvorini to‘g‘riroq tushunish uchun boshqa vositalar bo‘lmaganda uni ranjitadigan hazildan foydalanish mumkin. 2. Harakat inson qiyofasini ochib beruvchi eng aniq vositadir. Inson qanday harakat qilsa, o‘shandaydir. 3. Insonning haqiqiy fe’l-atvori mayda-chuydalarda: ular inson o‘zini nazorat qilishdan to‘xtaganda yuzaga chiqadi. 4. Inson o‘zga kishi oldida ayblariga iqror bo‘lgach, ularni darhol unutadi. Ammo o‘zga kishi uning ayblarini yodida saqlab qoladi. 5. Haddan ortiq yuksak fazilatlar ham ba’zan insonni jamiyat uchun yaroqsiz holga keltirib qo‘yadi.

Sodda hollar	Murakkab hollar

2-mashq. Birikmalarni kengaytiring, hollarni aniqlang.

Tez payqadim, aytib qo‘yay deb keldim, so‘rashgani bordi, bilganimiz uchun bordik, silkina-silkina keldi, tez bordi, birpas og‘ridi, ancha ko‘tarildi, ko‘p yema, ikki hissa oshdi, uy ichi, kundan kun isidi, o‘qday uchdi, asta-sekin kirdi, muttasil gumburlaydi, astoydil bo‘ldi.

3-mashq. Hollarni topib, ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga birikma tarzida ko‘chiring, qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanganini va turini ayting.

1. Xiyobonning chap tomonida kutubxona joylashgan.2. Xiyobon oxirida ayvoni baland bahavo binoni butun hovlining ko‘rki desa bo‘ladi. 3. Ular qushdan ham yengil uchardilar. 4. Oraga jimlik cho‘kdi, hammaning qulog‘i ding bo‘ldi. Hech qayerdan hech qanday sado eshitilmas, faqat Chorsu maydoni tomonda sadaqa so‘rab yurgan bir gadoning o‘tkir ovozi elas-elas quloqqa chalinardi. 5. U sal noxushlik seza boshladi. 6. Lakshman esa darrov tanidi, ularni Chorsu

maydonida, bozorda, to‘y-tomoshalarda ko‘p ko‘rgan. 7. Shunday dedim-u apil-tapil ko‘zimni ochdim! 8. Men atay indamasdan chiqib ketayotgandim. 9. Axsidan chiqib ketganimning beshinchi yili Xo‘jandda turganimda yashirincha bolalarimni ko‘rib kelishga qaror qildim. 10. Samarqand hokimi maktubni avaylab naycha holiga keltirdi-da, bir lahza Chorsu tomonga, uzoqlarga tikildi. 11. Abu Bakr Kalaviy pokdomon odam edi. (Muhammad Ali)

4-mashq. Hollarni topib quyidagicha tahlil qiling: a) ma’nosiga ko‘ra turi; b) qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganligi; d) tuzilishiga ko‘ra turi (sodda yoki birikmali).

1. U hayron bo‘lib ohista boshini ko‘tardi, oyoqlarini ko‘rpaning ichiga uzatib o‘tirgan holda quloq soldi. 2. Hamma yerda bulbulning shirin kuylari hamisha qulog‘i ostida jaranglab turardi. 3. Qish oxirlab, vodiydagi qorlar allaqachon erib ketgan. 4. Oyqizning yuzlari qizarib ketdi, uyalganidan boshini quyi solib, indamay qoldi. 5. Oyqiz o‘z-o‘zicha o‘ylanar edi. 6. Ko‘zlari tolib, endigina uyquga ketgan Oyqiz yarim kechada qichqirgan xo‘rozning bo‘g‘iq ovozidan uyg‘onib ketdi. 7. U kamzulchasini yelkasiga tashlagan holda ohista yurib chiqdi, musaffo havodan to‘yib-to‘yib nafas oldi. 8. U o‘zini zo‘rg‘a bosib olib, Umurzoq otaning ko‘kragiga boshini shilq etib tashlar, shivirlab iltijo qilardi. (Sh. Rashidov)

5-mashq. Daraja-miqdor hollari ishtirok etgan gaplarni ko‘chirib, hollar tagiga chizing. Qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

1.Mehmonlarga har nav shirinliklar, pista, bodom, quruq mevalar juda mo‘l-ko‘l tortildi. (O.) 2. Bolalar juda yomon qo‘rqib ketishdi. (M.Ism.) 3. Sultonmurodga bir-ikki soat dars bermoq uchun u ba’zan o‘z uyida haftalab kitob ko‘rar edi. (O.) 4. Dumbul boshoqlar qo‘rda pishib, ancha mazali bo‘ladi. Bolalar undan bir kaft-bir kaft yeb olishsa, barvaqtroq uxlashadi. (S. Ulug’zoda.) 5. Sultonmurod... bir oz enkayib, uning qo‘lini siqdi-da, bir qadam orqaga tashlandi. (O.) 6. Taxtda o‘tirgan Husayn Boyqaroga uch marta bukilib rasmiy ta’zimni bajo qilgach, ijozat so‘rab o‘tirdi. (O.) 7. Maktabni, maktabdoshlarimni har qancha qo‘msasam ham, otamning ra’yini qaytara olmadim. (P. Q.)

Uyga vazifa. Bog’langan matn tuzing. Unda ishtirok etgan gap bo‘laklarini tahlil qiling.

46-mavzu:Gapning uyushiq bo‘laklari.

Reja:

1.Uyushishning ifoda vositalari.

2.Uyushiq bo‘lakli gaplarda umumiy va umumlashtiruvchi birliklarning qo‘llanilishi.

1-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Uyushiq bo‘laklarini aniqlang.

1.O‘zini ilmga bag‘ishlaydigan kishi odamlarga mehribon, haqgo‘y; fisq-u fujur, gina, xiyonat, makr va xiyladan xoli bo‘lishi kerak. 2. Faylasuflarning odati, axloqi ham o‘z kasbiga loyiq, xuddi tug‘madek bo‘lishi kerak. 3. So‘zlashga berilgan kishi hikmat sharafidan chetlashgan va mahrumdir. 4. Ustoz va muallimlar hurmatini o‘rniga qo‘yganlar bu dunyoda ham, oxiratda ham savob topadi.5. Oqillarga shafqat va mehribonchilik bilan muomalada bo‘lib, so‘ngra tavoze, odob bilan yordam qilinglar. 6. Donishmandlik haqiqatni so‘zlamoq va tabiatga quloq tutib, unga bo‘ysunmoqlikdan iboratdir. 7.O‘zini anglash va fikrlash hamma odamlarga xosdir. 8. Olim kishilar har yerda aziz va hurmatlidurlar. 9. Adolatli, fanni sevuvchi aqlli hukmdor in-sonparvarlik munosabatlarini adolat talablariga moslashti-rib turishi kerak. 10. Ulamolar suhbatida bo‘l; pok, sof niyatli kishilarga talpin.

2-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Uyushiq bo‘laklar, ular bilan oldin yoki keyin kelgan bo‘lak orasida qanday tinish belgilarining qo‘llanishini aniqlang.

1.Najot ikki narsada**:** taqvo bilan niyatdadir. Halokat ham ikki narsada: umidsizlik va mag‘rurlanishda. 2. Har narsada uch asosga**:** haqiqiy, halol va nafli narsalarga e’tibor berish kerak. 3. Ish bizni uch xil illatdan**:** zerikish, qusur, muhtojlikdan xalos etadi. 4. Kelajak bundan buyon ikki xil toifa kishilar: aqliy va jismoniy mehnat kishisi qo‘lidadir. 5. Insonni butun borliq**:** odamlar, buyum va narsalar, voqea-hodisalar, ammo, eng avvalo va aksar hollarda, odamlar tarbiyalaydi. 6. Insonda hamma narsa**:** yuz ham, kiyim ham, qalb ham, fikr ham go‘zal bo‘lishi lozim. 7. Tog‘ etaklari hali ham ko‘m-ko‘k bo‘lib, turli go‘zalliklar bilan: sariq va qizg‘ish tusdagi boychechaklar, chuchmomalar, qoshlariga qop-qora o‘sma qo‘ygan lolalar bilan yasangan edi. 8. Yog‘liq qo‘y go‘shti yaxnasi ham, tok bargi va uzum boshining surati solingan chinni kosadagi qaymoq, non, qora mayiz – hammasi dasturxonda qo‘l tekkizilmay turardi.

47-mavzu: Gap bo‘laklari sanalmaydigan birliklar.

Reja:

1.Gap bo‘laklari sanalmaydigan birliklar haqida ma’lumot.

2. Undalma haqida ma’lumot.

3. Kirish so‘z va kiritma gaplar haqida ma’lumot.

1-mashq. Ko‘chiring. Undalmalarni aniqlang. Kerakli tinish belgilarini qo‘ying. Undalmaning egaga o‘xshash va farqli tomonlarini tushuntiring.

1. Ummatali, seni o‘rtoq Saidxonov tabriklab telegramma yuboribdilar. Ma, ol, o‘qi! 2. Lekin shuni ham inobatga olingki, Karimboy, Turkistonda siz boshqa familiya bilan yurasiz. 3. Jiyan, aqling bo‘lsa, kishining bir tiyiniga xiyonat qilma. 4. Hoy tentakkinalarim, tog‘angni bevoshlik qilib qiynamanglar. 5. Kampir, achchiqqina xo‘rda qilib ber, mehmon bolani bezgak ushlab qolibdi. 6. Dunyo turguncha turing, malikam, baxtingiz daryoday mavjlansin.7. Sira tashvish tortmagaysiz, oyi, men tinchman. 8. Hashamsiz purviqor qoyamsiz, tiz cho‘kmas, gard yuqmas g‘oyamsiz, kift tutgan ming pillapoyamsiz, ey baland cho‘qqilar, qoyalar.

2-mashq. Ko‘chiring. Tegishli tinish belgilarini qo‘yib, undalmali gaplarni ko‘chiring. Undalmalarning tagiga chizing va ularning uyushiq bo‘laklardan farqini ayting.

1. O‘lmas o‘z muallimangni tanqid qilishing yaxshi emas. Senga bu ish yarashmaydi. 2. “Tug‘ilgan kuningizga odamning jonidek aziz bir narsa keltiraman azizim”, - dedi kunlardan birida Mahmudjon xotiniga. 3. Shu narsa yodingizda bo‘lsin Meliboy millatidan qat'i nazar, ishchi bilan dehqon hamisha og‘ayni. 4. Bahoroy Salima Naima Halima Yuringlar, menga qarashib yuboringlar. 5. Sizni ilgariroq saylasak bo‘larkan Sarvar aka. 6. Oy yuzli, shakar so‘zli, olamda tanho go‘zal, ayting-chi, siz chindan ham shu uyning bekasi bo‘lasizmi? 7. “U uyga choy so‘rashsa, Yo‘lchi akangga kelib shipshit, Gulnor qizim!”—deb to‘y bekasi Lutfiniso ketdi. 8. Qani, Sinchalakxon qizim, mana buni kiyib oling-chi!

3-mashq. Ko‘chiring. Kirish so‘zlarga tinish belgilarini qo‘ying. Gaplarni tahlil qiling.

1. Modomiki siz halokatdan gap ochibsiz, yuqoridagi mulohazalarimiz uchun e’tirozga o‘rin qolmaydi. 2. Demak yashash ma’nosining zamirida xalq xizmatini qilish, Vatanni sharaflash burchi ham bor. 3. Ajabo armonga yo‘l qo‘ymaslik mumkin bo‘lgan holda bu azobni, bu gumrohlikni nechun o‘zingizga ravo ko‘rdingiz. 4. Tavba shunchalik bag‘ritosh, bemehr, bemuruvvat bola bo‘ladimi! 5. Darvoqe uni gazetaga yozmoqchi ham bo‘ldik avval, lekin satqayi

gazeta ketsin senga, deb yozmadik. 6. Hayotning eng og‘ir, eng shafqatsiz kunlarida ham yiqilmadi aksincha qaddini tik tutib, o‘zini mehnatga urdi. 7. Qisqasi yaxshi onaning peshanasida ne xil baxt bo‘lsa, hammasi Saodat buvida mo‘l-ko‘l. 8. Bu so‘zdan hamma qarilar aqlli-yu, hamma yoshlar nodon ekan, degan xulosa chiqmasligi kerak Aslo Yoshlar orasida ham aql-hushi joyida, ziyrak, tadbirkorlari ko‘p.

4-mashq. Bog’lanishli matn tuzing. Unda kirish so‘z va kiritmalardan foydalaning.

Albatta, shaksiz, so‘zsiz, shubhasiz, ehtimol, balki, chamasi, aftidan, darhaqiqat, haqiqatan, xullas, demak, umuman, avvalo, avvalambor, masalan, jumladan, attang, afsus, xayriyat.

48-mavzu: Egasi topiladigan gaplar: shaxsi aniq, shaxsi noaniq. shaxsi umumlashgan gaplar. To‘liq va to‘liqsiz gaplar.

Reja:

1. **Egasiz va kesimsiz bir bosh bo‘lakli gaplar.**
2. **Egasi topiladigan gaplar: shaxsi aniq, shaxsi noaniq gaplar.**
3. **Atov (nominativ) gap.**

1-mashq. Quyidagi berilgan matnni tahlil qiling, unda eganing ishtirok etishiga ahamiyat bering.

Behuda so‘zdan sukut afzal

Behuda so‘zlashdan ko‘ra jim o‘tirish afzal ekanligi haqida Rum qaysari, Hind rojasi, Chin fag‘furi o‘rtasida munozara bo‘lib o‘tgan edi. Ular o‘zaro bir fikrga keldilar va bir ma’nodagi so‘zlarni turli bayon ipiga tizdilar. Rum qaysari shunday dedi: – Aytgan barcha so‘zlarimdan qattiq nadomat chekdim, ammo aytmagan so‘zlarimdan hech pushaymon bo‘lmadim! Hind rojasi aql daryosidan noyob dur hozirlab, bayon ipiga terdi-yu, dedi: – So‘z o‘qi kamonidan hali otilmagan ekan, u mening qo‘l ostimdadir, og‘iz kamonidan otilib chiqsa, unga endi egalik qilolmayman! U davom etib dedi: – Har so‘z o‘qi kamonidan uchsa va har kalima og‘iz zindonidan ko‘chsa, uni qaytarib olaman deyish xom xayollikdir! Chin fag‘furi so‘z bo‘stonidan guldasta hozirlab, tuhfa qilgan holda dedi: – So‘z qushi og‘iz qafasida ekan, uning ixtiyori mening izmimdadir. Bordi-yu, u til oshyonasidan parvoz qilsa, hech qachon uni tutib bo‘lmaydi!

2-mashq. Berilgan gaplarni tahlil qiling. Gap bo‘laklarining qanday joylashayotganligiga ahamiyat bering.

1. U hayron bo‘lib ohista boshini ko‘tardi, oyoqlarini ko‘rpaning ichiga uzatib o‘tirgan holda quloq soldi. 2. Hamma yerda bulbulning shirin kuylari hamisha qulog‘i ostida jaranglab turardi. 3. Qish oxirlab, vodiydagi qorlar allaqachon erib ketgan. 4. Oyqizning yuzlari qizarib ketdi, uyalganidan boshini quyi solib, indamay qoldi. 5. Ko‘zlari tolib, endigina uyquga ketgan Oyqiz yarim kechada qichqirgan xo‘rozning bo‘g‘iq ovozidan uyg‘onib ketdi. 6. U kamzulchasini yelkasiga tashlagan holda ohista yurib chiqdi, musaffo havodan to‘yib-to‘yib nafas oldi. 7. U o‘zini zo‘rg‘a bosib olib, Umurzoq otaning ko‘kragiga boshini shilq etib tashlar, shivirlab iltijo qilardi.

Uyga vazifa: Eganing ishtirok etishga ko‘ra turlari ishtirok etgan gaplarga misollar topib yozing.

49-mavzu: Qo‘shma gap va uning turlari. Bog‘langan qo‘shma gaplar.

Reja:

1. Sodda va qo‘shma gaplar

2. Qo‘shma gaplar haqida ma’lumot.

3. Bog’langan qo‘shma gaplar.

1-topshiriq. Quyidagi berilgan yordamchi vositalar yordamida gaplar hosil qiling.

va, ammo, chunki, yo…yo, yo, yoki, hamda, -u, -yu, -da.

1-mashq. Qo‘shma gap qismlarini o‘zaro bog‘lovchi vositalarni aniqlab tahlil qiling.

Ulug‘bek hamma narsadan xabardor edi-yu, lekin Abdullatif uyushtira boshlagan fitnadan, uning xoinlik ko‘chasiga kirib borayotganidan bexabar edi. 2. Ulug‘bekning birdan bir maqsadi o‘rtadagi nizoni tinch yo‘l bilan bartaraf qilish edi, faqat shuni o‘yladi, shuning ketidan tushdi. 3. Ulug‘bek yig‘ilganlarga bir-bir nazar tashladi, lekin hamma yer chizib o‘tirardi. 4. Abdullatif yana bir necha bor Abulqosim Bobur huzuriga odam yuborib, uni Ulug‘bekka qarshi urushga tortmoqchi bo‘ldi, lekin Abulqosim Bobur uning yo‘liga yurmadi. 5. Sulton Abu Said esa Ulug‘bekning shaharga yaqinlashib qolganini eshitib, qamalni bo‘shatdi va Turkiston tarafga qarab qochdi. 6. Abdullatif otasining ketidan quvmadi – uch kun Sherozda qolib ketdi. 7. Navkar yelkasini qisdi, chunki u ham bularni tanimasdi. Otliqlar bilan ro‘baro‘ bo‘lishganda ulardan biri «chu» deb otiga qamchi bosdi va yo‘l ustiga chiqdi, so‘ng otdan tushib ikki bukilib mirzo Abdulazizga salom berdi. (B. Ahmedov)

2-mashq. Quyidagi rasmlar asosida tarixiy obidalar haqida bog'lanishli matn tuzing, matnda qo‘shma gaplardan foydalaning.





3-mashq. Quyidagi hikoyatni o‘qib, undagi qo‘shma gaplarni aniqlang hamda qissadan hissa chiqarib, javobini ayting.

Oriyatli novvoy

Qo‘qonda bir novvoy bo‘lgan ekan. U har kun kechasi turib, non yopib, nonlarni savatga solib, erta sahardan yo‘lda och qolgan musofirlar shu nondan yeb ketsin, deya savatni ko‘chaga chiqarib qo‘yar ekan. Yo‘lovchilar ham nonni olib, pulini savatga tashlab ketisharkan. Novvoy hisob-kitob qilganda yiliga bir yoki ikki bora olingan non uchun haq to‘lanmagani ma'lum bo‘lar ekan. Shunda u Xudoga iltijo qilib:

— Ey, Olloh! Mana shu nonni bir bechora, kambag‘al inson olib yegan bo‘lsa, men roziman. Agar puli bo‘la turib, haqini tashlab ketmagan bo‘lsa ...unga ham roziman, Xudoyim. Unday vatandoshimga o‘zing insof, imon bergin, der ekan. (A. Ibrohimov)

Qissadan hissa chiqarish uchun savol:

1. Nega novvoy “puli bo‘la turib, tashlab ketmagan” odamga Xudodan jazo so‘ramadi?

4-mashq. Quyida berilgan fe'llardan bog‘langan qo‘shma gaplar hosil qilib yozing.

1. Oqardi, to‘kildi. 2. Bukildi, salom berdi. 3. Sevindi, yoshlandi.4. Hayron bo‘ldi, nafasi tiqildi. 5. Yiqildi, shikastlandi. 6. Azoblandi, qiynaldi. 7. Kezdi, uyg‘ondi. 8. Aynidi, yog‘a boshladi. 9. Qo‘msadi, yig‘ladi. 10. Yuraverdi, g‘oyib bo‘ldi.

5-mashq. Ko‘chiring. Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarning qanday bog‘langanligini izohlang.

1. Baxillik hamma joyda yomonlangandir va dunyo ne’matlari cheksiz emasdir. Rizq izlab juda uzoq ketmoq zaharlidir hamda rizq berguvchi doim tirik va qoimdir. 2. Ey odam farzandlari, men sizlarning amallaringizni hisoblab borib, qiyomat kunida ajrini tamom berurman, bas, har kim yaxshi amal qilgan bo‘lsa, Xudoga hamd aytsin, lekin agar yomon amal qilib borgan bo‘lsa, unda o‘zini malomat qilaversin. 3. Olam bir daryo hamda uning qirg‘og‘i oxiratdir. Ul daryoning kemasi taqvodir. 4. Adovat kishiga uch narsadan yetar: avval kishidan mol-dunyo tama qilmoq bo‘lsa, ikkinchi xaloyiqdan izzat va ikrom tama qilmoq, shuningdek, xalq o‘rtasida ma’qul bo‘lmoqni tama qilmoqdir. (Hadisi qudsiydan)

Uyga vazifa: “Kecha va kunduz” romanidan qo‘shma gaplar qatnashgan 10ta gap misol topib yozing.

50-mavzu: Ergashgan qo‘shma gap va uning turlari.

Reja:

1. Ergashgan qo‘shma gap haqida ma’lumot.

2. Ergashgan qo‘shma gapning turlari.

3. Ergash gapni bosh gapga bog’lovchi vositalar.

1-topshiriq. Quyidagi chizmga mos holda ergashgan qo‘shma gaplar tuzing, bog’lovchi vositalarga e’tibor bering.



2-topshiriq. Quyidagi berilgan qolip asosida 5ta gaplar tuzing, bog’lovchi vositalarni aniqlang.

Kim …… -sa, ……-di.

1-mashq. Gaplarni ko‘chiring, **e**rgash gapli qo‘shma gaplar qanday qismlardan tashkil topganini izohlang.

1. Alam qiladigan joyi shundaki, mening “qavmlarim” – tarjimonlar ham tilni bulg‘ashda tobora xuruj qilmoqdalar.2. Mushukni tomdan tashlasangiz ham, yerga muallaq bo‘lib, chirpirab qulamaydi, balki to‘rt oyog‘i bilan tushadi. 3. Oqilona narx-navo tayin qilinsa, birgina qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, paxta bilan pillaning o‘ziyoq jumhuriyatni bemalol boqa oladi. 4. Shunisi borki, bu yerda ichkilik borasida “qatron qonuni” juda qattiq qo‘yilgan. 5. Shuni unutmangki,

quyosh hammaga baravar nur sochadi. 6. Illat quritilsa, o‘sha illatning o‘zi boshqa joydan tag‘in nish urib chiqaveradi. 7. U yog‘ini so‘rasangiz, burchdorlik joyim ham bor.

2-mashq. Tinish belgilarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Bir ko‘rmasam ko‘nglim allanechuk bo‘lib ketadi. (S. Ahmad) 2. Shunday berilib ishladiki go‘yo Bo‘tako‘zda uning o‘zidan boshqa kimsa uning cho‘tidan boshqa hayot yo‘qday. (I. Rahim) 3. U shunday og‘ir xayollar bilan charchoq qadam tashlab vokzaldan eski shaharga jo‘narkan kimdir uning yelkasiga qo‘lini qo‘ydi. (S. Ahmad) 4. Hayotda baraka rohat mo‘l chunki ishchi bilan dehqon qondosh-qarindosh (S. Zunnunova) 5. G‘o‘za chopig‘iga ketgan kishilar qaytib kelgandan keyin hamma yerda ish juda qizib ketdi. (A. Qahhor) 6. Agar shisha siniq bo‘lsa ham u birovniki bo‘lsa xiyonat qilma (A. Qahhor) 7. Turobjon eshikdan hovliqib kirar ekan qalami yaktagining yengi zulfinga ilinib tirsakkacha yirtildi.

3-mashq. Quyidagi sodda gaplarni qo‘shma gaplarga aylantiring**.**

1. Qalbingizga quloq tuting. 2. Kamtarga kamol. 3. Kitob – bilim manbayi. 3. Do‘stsiz bosh, tuzsiz osh. 4. Hech kimga hasad tutma. 5. Baxtsizlikning belgisi nodonlikdir. 6. Yalqovlik – muhtojlik eshigidir. 7. Sukut – salomatni, yaxshilik – izzat va obro‘ni, saxiylik – ulug‘likni keltiradi. 8. Jafo chekmagan odam vafo qadrini bilmaydi. 9. Egri ishning soyasi ham egri bo‘ladi.

4-mashq. Ko‘chiring. Bosh va ergash gapda bir-birini taqozo etib turgan so‘zlarning ostiga chizing.

1. Kimning himmati baland bo‘lsa, uning qadr-qimmati ham baland bo‘ladi. 2. Kimki odob o‘rgatsa, uni o‘rganmagan kishi hayvon, uzr so‘rasa, qabul qilmagan kishi shaytondir. 3. Hunar shunday otdirki, u mingan kishini rohat va e’tibor manziliga yetkazadi. 4. Har kimki hayotga xo‘mrayib boqsa, hayot ham unga zarda bilan qaraydi. 5. Sen doim hayotga tabassum bilan boqsang, ana shunda hayot senga do‘stona qo‘l cho‘zadi. 6. Kimniki qo‘lidan yaxshilik kelmasa, u yomonlik qilishdan saqlansin. 7. Shuni bilki, yalqovlik muhtojlik eshigidir. 8. Shu narsani unutmangki, baxtsizlikning belgisi nodonlikdir. 9. Kishi dardiga kim hamdard emasdir, kishi nazdida ul mard emasdir. (“Durdonalar xazinasi”dan)

5-mashq. Ergash gapli qo‘shma gaplar qanday qismlardan tashkil topganini izohlang.

1. Alam qiladigan joyi shundaki, mening “qavmlarim” – tarjimonlar ham tilni bulg‘ashda tobora xuruj qilmoqdalar. 2. Mushukni tomdan tashlasangiz ham, yerga muallaq bo‘lib, chirpirab qulamaydi, balki to‘rt oyog‘i bilan tushadi.3.

Oqilona narx-navo tayin qilinsa, birgina qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, paxta bilan pillaning o‘ziyoq jumhuriyatni bemalol boqa oladi. 4. Shunisi borki, bu yerda ichkilik borasida «qatron qonuni» juda qattiq qo‘yilgan. 5. Shuni unutmangki, quyosh hammaga baravar nur sochadi. 6. Illat quritilsa, o‘sha illatning o‘zi boshqa joydan tag‘in nish urib chiqaveradi. 7. U yog‘ini so‘rasangiz, burchdorlik joyim ham bor.

6-mashq. Quyidagi berilgan qolip asosida qo‘shma gaplar hosil qiling.

Kim  -sa, ……

7-mashq. Ergashgan qo‘shma gaplar ishtirok etgan xalq maqollaridan misollar topib yozing hamda ularni tahlil qiling.

Qo‘shning yomon bo‘lsa, yomonlik kelar,
Qo‘shning yaxshi bo‘lsa, omonlik kelar.

8-mashq. Quyidagi sodda gaplardan havola bo‘lakli gaplar hosil qiling.

1. Mehnatni sevmagan odam bir buzuqlikni qilishga tayyordir. 2. Hasad yurakning zanglanishi, qaysarlik - mag‘lubiyat sababchisidir. 3. Odobning yuqori bosqichi go‘zal xulqdir. 4. Insonning eng zo‘r yordamchisi o‘zining aqlidir. 5. Hayotda go‘zallik, quvvat va saodatning manbayi soddalikdir. 6. Qog‘ozga yozilib qolgan yaxshi nom tamom bo‘lmaydigan umrdir. 7. Qalbi pok bo‘lgan kishining ishlari ham pok, toza bo‘ladi. (Durdonalar xazinasidan).

Uyga vazifa: Badiiy asardan ergashgan qo‘shma gap ishtirok etgan 10ta gap ko‘chirib yozing.

51-mavzu: Ko‘chirma gap va uning turlari.

Reja:

1. Ko‘chirma gaplar haqida

2. Ko‘chirma gaplarning o‘ziga xos xususiyatlari.

3. Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.

1-topshiriq. Buyuk ajdodlarimizning ibratli so‘zlaridan misollar yozing va ularning ma’nosini izohlang.

“Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yog‘ilib daryo bo‘lur” - deydi Alisher Navoiy.

Hammadan ko‘p kuldi. Iztirob chekayotgani ayon edi – deb gap boshladi Tolstoy.

1-mashq. Muallif va ko‘chirma gaplarni aniqlang.

Oz ishla, soz ishla

Kunlardan bir kuni bir mutakabbir o‘rgimchak ipak qurtiga: «Men Senga juda achinaman, bir ozgina ipak uchun shoshmasdan ishlab ko‘p vaqt sarf etasan. Mana, menga qara, tez-tez ishlab ozgina vaqt ichida bu devorning boshidan oyog‘igacha to‘r o‘rab bitirdim. Menga o‘xshab shoshib-pishib to‘r o‘rasang bo‘lmaydimi? – dedi. Ipak qurti unga: «To‘g‘ri, ishda sur’at, tezlik kerak, lekin sen singari apil-tapil ishlashdan foyda chiqmaydi, shuning uchun to‘ring hech qimmatga ega emas, mening to‘rim esa juda qimmatli to‘r», deb javob berdi.

Hissa: Shoshma-shosharlik bilan ishlashdan hech foyda hosil bo‘lmaydi. Ishning soniga emas, sifatiga diqqat qilish lozim. «Oz ishla, soz ishla» deb bekor aytmaganlar.

Bayt: Shoshqaloqlik niholin o ‘tqazsang,
Bergusi meva pushaymonlik. (“Durdonalar xazinasi”dan)

2-mashq. Berilgan mashqdan ko‘chirma va muallif gapini aniqlang. Har bir gapni yozgandan so‘ng uning chizmasini chizing.

1. “Bor dadangga chop! – dedi shoshib – qishloqdan do‘stlaringiz keldi”, – degin. 2. “Yur, bolam, senga bitta muzqaymoq olib beray!” – dedi to‘satdan. 3. A’zam aka oldin astoydil xafa bo‘ldi, keyin: “Ha, mayli, yo‘qqa chora ham yo‘q-da!” – dedi. 4. Inobat go‘yo Ertayevning gapini eshitmaganday, birinchi unga yuzlanib: “Nega bunday deysiz, Umarov aka, - dedi sekin, – unisiyam kerak, Bunisiyam”. 5. “Bir jihatdan Inobatxon haq, Erkinjon”, – dedi u jiddiy. 6. Ha, o‘sha kecha Muyassar uni ayamadi: “Axir ...handalak bo‘lsayam... Barchaning mulki-yu nega buni o‘ylamading?” – degan gapni takrorlayverib, o‘lganning ustiga chiqib tepganday qildi. 7. Ertayev: “Mayli, mayli, buni keyin gaplashamiz”, – dedi kulib. 8. Mashrab esa: “Bo‘lmasa, nima. qilaylik?” – dedi titrab. 9. Yigitlarning oldiga savol-javob qog‘ozini surib qo‘yarkan, kulib dedi: “Marhamat tabarruk qo‘llarini qo‘ysinlar!”.

3-mashq. Quyidagi ko‘chirma gaplarga muallif gapi qo‘shib, ko‘chirma gaplar tuzing. Ko‘chirma gap muallif gapidan oldin, keyin, uning o‘rtasida va ikki tomonida kelsin. Tinish belgilariga e’tibor bering.

1. “Aql pinhon hamda zohir olam u”. 2. “Zakovat bilimning tarjimoni til”. 3. “Himmat hamma narsadan yuqori turadi. Adl binosi hech vaqt vayron bo‘lmaydi”. 4. “Bolalarim, yoshlikni g‘animat biling, faqat o‘yin, kulgi, kayf-safo bilan yoshlik davringizni zoye etmang”. 5. “Maishatga yetarli mol-u davlatga ega bo‘lgan kishi undan ortiqchasini talab qilmasin, chunki uning poyoni yo‘qdir”. 6. “Hasadchi o‘z hasadi ta’siridan bir kun o‘zi halokat chuquriga yiqiladi”. 7. “Har bir kishining so‘zi – o‘z fazilatlarining dalili va aqlining tarjimonidir”. 8. “Doimo

to‘g‘ri so‘zladim, omonatga xiyonat qilmadim, ma’nosiz, behuda so‘zlar so‘zlashdan chekindim”.

Uyga vazifa: Badiiy asardan ko‘chirma gaplar ishtirok etgan 10ta gap ko‘chirib yozing.

VI bo‘lim. Testlar bilan ishlash

Sinov testi

1. Qaysi javobda tarkibida faqat unli va jarangli undosh tovushlar ishtirok etgan sifat yasovchi qo‘shimchalar keltirilgan? A) -ma, -siz, -kor, -chan B) -ildoq, -bad, -bob, -don C) -zor, -g‘ich, -lab, -dor D) -don, be-, -bad, -mand

2. Qaysi javobdagi fe’lda I shaxs birlik ma’nosi o‘rnida II shaxs birlik shakli qo‘llanishi uchraydi?

A) “Yigitlar, bir harakat qilsak, marra bizniki, ana boshliq ham keldilar”, — dedi Yolqinjon.

B) Kamina xizmatingizni sidqidildan bajaradi, xavotir olmang, aka.

C) “Qani, qizim, marhamat qilsinlar, mehmonlar sizni kutib qolishdi”, - dedi uy egasi iltifot bilan.

D) “Bu dunyoning ishlariga hayron qolasan”, - dedi Nodirjon o‘z-o‘ziga gapirib.

3. Yetakchi morfemasi ham, ko‘makchi morfemasi ham omonim xarakterda bo‘lgan, asosida faqat jarangsiz undosh qatnashgan sifatni toping.

A) ochiq B) yasama C) tuzsiz D) yozgi

4. Qaysi gapda yetakchi morfemasi jarangli undoshlar va unli(lar)dan tashkil topgan yasama ot qatnashgan?

A) Aravakashga biroz yalinsang, ostonanggacha olib borib qo‘yadi.

B) Sinfdoshlarimni sog‘insam, o‘sha suratga qarab qo‘yaman.

C) O‘lchab bo‘lurmi sevgini zar bilan, tillo bilan?

D) O‘smalar qo‘ysam, yarashar qoshimga, do‘ppilar kiysam, yarashar boshimga.

5. Berilgan so‘zlarning nechtasida egalik qo‘shimchalarining soni 2 ta?

1) shunaqangi; 2) birikishi; 3) singlisi; 4) shunisi; 5) norasidasi; 6) shunchasini; 7) yarmisi.

A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta

6. Qaysi maqolda qo‘llangan son «yarim» so‘ziga ma’nodosh bo‘la oladi?

A) Birni sochsang yerga, Mingni berar elga. B) Yetti o‘lchab, bir kes.

C) Bir kun tuz ichgan joyingga qirq kun salom qil! D) Oyning o‘n beshi qorong‘i bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘ bo‘ladi.

7. Berilgan qaysi maqollar o‘zaro ma’nodosh maqollar sanaladi?

1) Ignadek teshikdan tuyadek sovuq kiradi. 2) Yolg‘iz baloga, indamasang, ko‘payadi. 3) Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi. 4) Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur. A) 1, 2, 3 B) 1, 2, 3, 4 C) 1, 2 D) 1, 3, 4

8. Adabiyot o‘qituvchisi jurnalni stol ustiga qo‘ydi-da, dumaloq ko‘zoynagini burni uchiga qo‘ndirib, sinfga razm soldi. Berilgan gapdagi

so‘zlarda qanday tovush o‘zgarishlari sodir bo‘lgan? 1) tovush almashishi; 2) tovush tushishi; 3) tovush ortishi.
A) 1, 2, 3 B) 1, 2 C) 1 D) 2, 3
9. Quyida keltirilgan gapdagi olmoshning vazifasini aniqlang. Mana shu Yetti og‘ayni yulduzlari Oltin Qoziqni aylanib o‘tadi. A) to‘ldiruvchi B) hol C) aniqlovchi D) ega
10. 1) javob qildi; 2) javob berdi; 3) javob ayladi; 4) javob etdi. Berilgan qo‘shma fe’llardan qaysi bir(-lar)i uslubiy betaraf ? A) 1, 2, 4 B) 1, 2 C) 3, 4 D) 2, 3, 4
11. Tartib son modal ma’noni ifodalab kelgan javobni toping.
A) Men to‘garakka birinchi yozilaman. B) Bolalarning ikkitasidan so‘rashdi, uchinchisining esa hech narsadan xabari yo‘q. C) Xonalarning ikkinchisida domlamiz o‘tirar edi. D) Usmonjon Umirov, birinchidan, juda yosh xodim.
12. Kesimi faqat til undoshlaridan tashkil topgan yasama so‘z bilan ifodalangan gapni aniqlang.
A) Do‘stlikka yaramaydigan shaxsning eng yaramasi chaqimchi.
B) Tarixni anglash orqali insonda hayotini anglash qobiliyati shakllanadi.
C) Hasad va baxillik nafratdan ham murosasizroqdir.
D) Oshkora yomonlikka nisbatan yasama ezgulikdan inson ko‘proq nafratlanadi.
13. Qaysi javobda ma’noli qismlari asos + lug‘aviy shakl yasovchi + so‘z yasovchi + sintaktik shakl yasovchi tartibida joylashgan ot turkumiga oid so‘z qatnashgan?
A) Abbos, parta ustidagi o‘chirg‘ichni menga uzatib yuborgin. B) Qishloqdagi do‘konlarda oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak va hattoki yoqilg‘i sotiladi.
C) Qizg‘anchiqdan sen saxovat kutma. D) Ko‘z-ko‘z qilma, ko‘z tegar, Maqtanchoqqa so‘z tegar.
14. Barcha shodlik senga bo‘lsin, bor sitam, zorlik menga,Barcha dildorlik senga-yu, barcha xushtorlik menga.Ushbu gapda olmoshning nechta ma’no turiga oid so‘zlar qatnashgan? A) 5 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta
15. Qaysi gapda vubormoq fe’li ko‘makchi fe’l bo‘lib kelmagan?
A) Shunda ho‘kiz shoxini yog‘layotgan xojayinini suzib yuboribdi.
B) Ular yerni kovlab kirolmabdilar, lekin bir zumda allaqancha yerni o‘yib yuboribdilar.
C) Otashkurak xo‘rozga tegib, uni bir necha marotaba yumalatib yuboribdi.
D) Sinf rahbarimiz, Hasan aka, menga bildirmay G‘anini uyimga yuboribdilar.

16. Qaysi javobda uchta yasama fe’l qatnashgan?

A) Qiz cholga yaqinlashib salom berdi.U loqaydgina alik oldi.

B) Dunyoda pok odamlar ko‘paysa, nopok odamlar shunchalik kamayadi.

C) Usta temirni cho‘g‘ga solib bolg‘alaydi, cho‘zadi, yassilaydi.

D) Izg‘irindan ko‘zlar yoshlandi, oyoq ostidagi qor g‘irchillaydi.

17. Kesimi o‘zlik nisbatidagi fe’l bilan ifodalangan gapni aniqlang.

A) Sarvar manzilga tezroq yetib olish uchun o‘ngga qayrildi.

B) G‘oliblarga esdalik sovg‘alari topshirildi.

C) Qiyg‘os ochilgan paxtalarni ko‘rib ko‘zi quvnadi.

D) Bu bino tez fursatda qayta tiklandi.

18. Qaysi gapda olmoshning ma’nosiga ko‘ra to‘rt turi qatnashgan?

A) Sen shuni hech qachon yodingdan chiqarmaki, yillar o‘tgan sari er-xotin oltin va gavharga aylanib boradi.

B) Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini yuksaltirishda oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir.

C) Har birimiz o‘z ustimizda doimo ishlab, butun jamiyatimiz uchun foydali ishlar
qilishimiz darkor.

D) Hamma gapdan, hatto mening hayotimdan ham, xabardor bo‘lgan mana bu yigit kim?

19. Qaysi gapda fe’ldan yasalgan sifat bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchi qatnashgan?

A) U beg‘ubor yaylov havosida ulg‘aygan kamgap, lekin qaysargina bir bola edi.

B) Og‘ir jarohat tufayli qiynalayotgan yigitga doktor tezda yordam ko‘rsatdi.

C) Derazaning ochiq tabaqasidan mayin shamol kirib turardi.

D) Shogirdim Aminjon, o‘zi yosh bo‘lsa ham, juda pishiq, og‘ir, g‘ayratli.

20. Shunchaki sevilmoq - baxtiqarolik. To‘la tole uchun bu kemtik, bu kam.
Mening qalbim shunday sevgiga molik: Bir charsillab yonay, so‘ngra so‘nsam ham.

Ushbu she’riy parchada qatnashgan yasama fe’l qaysi gap bo‘lagi vazifasida kelgan? A)kesim B) ega C) hol D) aniqlovchi

21. Ega vazifasida kelgan juft fe’l qatnashgan gapni toping.

A) Oyqizning shunchalik yelib-yugurishi ham umuman foyda bermadi.

B) Yosh Hakima boshqa o‘rtoqlaridan qolmaslik uchun qizarib-bo‘zarib ishlardi.

C) Konspekt daftarini olib, o‘sha yerda ko‘chiraman-qo‘yaman.

D) Tog‘asining qo‘llab-quvvatlashi tufayli u tijoratda ulkan yutuqqa erishgandi.

22. Alisher uyga kirishi bilan qolganlar jim bo‘lishdi.
Mazkur gapda fe’lning otga xoslangan vazifa shakli qaysi gap bo‘lagi vazifasida kelgan? A) aniqlovchi B) hol C) ega D) kesim
23. U bilimi va iste’dodi tufayli fan-texnika yutuqlari ko‘rgazmasida oltin medalni
qo‘lga kiritdi. Ushbu gapdagi sodda yasama so‘zlar haqida berilgan to‘g‘ri ma’lumotni aniqlang.
A) Yasama so‘zlarning barchasi fe’ldan yasalgan. B) Ushbu gapda ot va sifat turkumiga oid yasama so‘zlar qatnashgan. C) Yasama so‘zlar ega va aniqlovchi vazifasini bajargan. D) Ushbu gapdagi yasama otlarning barchasi o‘rin-joy otlariga mansub.
24. Qaysi gapda ega vazifasida kelgan belgilash olmoshi qatnashgan?
A) Agar otaxon guzardan hassasini do‘qillatib o‘tib qolsa, hamma barobar qalqib turardi va to o‘tib ketguncha ta’zim qilardi.
B) Har birining navkarlari o‘zlariga qarashli yuklarni tuya qo‘shilgan og‘ir aravalarga ortib kelmoqda edilar.
C) Shu tariqa hech kim hech qachon adashib ketmas, hamma ishtirokchilar sahnaga o‘z vaqtida chiqardi.
D) Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir.
25. Qaysi javobda o‘zi ishora qilgan so‘z bilan o‘zaro bir xil gap bo‘lagi vazifasini bajargan olmosh qatnashgan?
A) Vatan sajdagoh kabi muqaddas sanaladi. Uni hamisha asrab-avaylaymiz.
B) Do‘stimdan juda minnatdorman: undan irodali bo‘lishni o‘rgandim.
C) Kitoblar - insoniyatning eng bebaho ma’naviy mulki. Ulardan hamisha foydalanishimiz mumkin.
D) Yigitning lablari pir-pir uchar edi, u qo‘rquvdan atrofga alanglar edi.

2-Test

1. Og‘zaki nutqning tovush tizimi qaysi bo‘limda o‘rganiladi?
a) fonetika b) orfografiyada s) grafikada d) orfoepiyada
2. Nutq tovushlarining asosiy vazifasini toping.
a) so‘z tuzilishida ishtirok etish. b) so‘z ma’nolarini farqlash.
s) nutq hosil qilishda ishtirok etish d) hamma javob to‘g‘ri.
3. Tovushning balandlik, kuch, miqdor va tenbr kabi belgilarga ega bo‘lishi uning qanday tomoni hisoblanadi?
a) fiziologik b) akustik s) lingivistik d) vazifaviy
4. Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak. Ushbu gapdagi nechta so‘zda unilar lablarning ishtirokiga ko‘ra umumiylik hosil qilgan?
a) 3ta b) 4ta s) 5ta d) 2ta

5. Quyidagi qatorlarning qaysi birida sh undoshining jaranglisi qo‘llangan so‘zlar berilgan?
a) kajava, ajrim b)jola, janr s)ajdod, vijdon d)jabr, gajak
6. Qaysi qatorda ovozdor sirg‘aluvchi undoshlar berilgan?
a) b,v,d b) m,n,ng s) l,r d) g,l,m
7.Nuqatalar o‘rniga qaysi so‘zlarda bo‘giz undoshini qo‘yish mumkin.
1) …ayr 2) …ayol 3) …ovuz 4) a…vol 5) za…ira
a) 2,3,4,5 b) 3,4,5 s) 1,3,5 d) 3,4
8. **Til mavsumiy** libos emaski, ob-havoning o‘zgarishiga qarab almashtirilsa. Ajatib ko‘rsatilgan so‘zda qanday unli ishtirok etmagan.
a) o‘rta keng b) yuqori tor s) lablangan unli d) orqa qator unli
9. Birinchi qismida lablanmagan unlilar ishtirok etgan so‘z birikmasi berilgan javobni toping.
a) samolyotning qanoti b) voqeani eshitgan s) tabiat toza d) uyning eshigi
10. - ib qo‘shimchisi bilan yasalgan ravishdoshlarga – di zamon hosil qiluvchi qo‘shimchasi qo‘llanganda so‘z qaysi yozuv asosida yoziladi?
a) shakliy b) morfologik s) fonetik d) tarixiy
11. Fonetik yozuv asosida yozilgan so‘z qatnashgan gap qaysi qatorda berilgan?
a) Temir qo‘rg‘on ichida qizil toychoq o‘ynaydi.
b) Bir nafasda olamni kezar.
s) Tilsiz aql o‘rgatar
d) Tig‘ yarasa bitadi, til yarasi bitmaydi.
12. Quyidagi qaysi so‘zdan fe’l yasalganda asos fonetik o‘zgarishga uchramaydi?
a) qiyin b) boy s) ulug‘ d) son
13. Shunda men atrofdagi odamlarni sanab sanog‘iga yeta olmagan edim. Ushbu gapda so‘zlar imlosida nechta o‘rinda fonetik o‘zgarishlar sodir bo‘lgan
a) 5ta b) 6ta s) 4ta d) 3ta
14.Tilshunoslikning leksikologiya bo‘limiga oid atamalar qaysi qatorda berilgan?
a) grammatik ma’no, grammatik shakl, bog‘lovchi.
b) ajratilgan bo‘lak, undalma, kirish so‘z
s) yordamchi so‘z, bo‘glama, hol.
d) ko‘p ma’noli so‘z, atama, metafora.
15. Tunov kuni biznikida, Bo‘ldi kattakon hashar. Ko‘chib keldi deyman-ov, Hasharga butun shahar... Hashar rosa qizidi. Ushbu parchada ma’no ko‘chishining qaysi turlari ishtirok etgan?
a) metafora, metonimiya, sinekdoxa.
b) metafora, metonimiya
s) metonimiya, vazifadoshlik. d) metafora
16. Qaysi javobda quyida berilgan gapdagi tovush tushish hodisasi to‘g‘ri izohlangan? Sening tug‘ilib

o‘sgan qishlog‘ingdan ayrilmasligingni bilar edim.

a) 2 o‘rinda sintaktik shakl yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi.

b) 1 o‘rinda sintaktik shakl yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida, 2 o‘rinda lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida.

s) 1 o‘rinda sintaktik shakl yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida, 1 o‘rinda lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida.

d) 2 o‘rinda sintaktik shakl yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida, 1 o‘rinda so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida

17. Qaysi so‘zlarda u unlisi noto‘g‘ri qo‘llangan?

1)unutmoq; 2) unumli; 3) unub-o‘smoq; 4) umumiylik; 5) umum; 6) umurguzaron

a) 3, 6. b) 3.4.5 s) 2.4.6 d) 2.3.5

18. Urish so‘zining paronimi bilan antonim bo‘la oladigan so‘zni aniqlang.

a) tinchlik b) bosqin s) to‘polon d) do‘pposlash

19. Qaysi so‘zlar tarkibida yonma-yon kelgan unlilar orasiga y undoshi qo‘shib aytilsa ham yozilmaydi?

a) shoir, oila b) muallim, tabiat s) soat, poema d) muammo, ukrain

20. Quyidagi qaysi so‘zlarda nuqtalar o‘rniga sirg‘aluvchi jarangli lab undoshi yoziladi. 1) ta…fiq, 2) ta…tish, 3) ta…sifnoma, 4) bata…sil, 5) ta..siya

a) 4.5 b) 1.3.5 s) 2.3.5 d) 1.2.5

21.Qaysi javobda o‘zaro zid ma’noli iboralar berilgan?

a) do‘ppisini osmonga otmoq, ko‘kka ko‘tarmoq

b) ko‘kka ko‘tarmoq, yerga urmoq

s) tepa sochi tikka bo‘lmoq, qovog‘idan qor yog‘moq

d) tilining uchida turmoq, ko‘z qorachig‘iday asramoq.

22.Quyida berilganlardan tarkibidagi barcha undoshlari jarangli til undoshlariga mansub bo‘lgan yasama so‘zlarni aniqlang.

1)yig‘in; 2) tushuncha; 3) ozg‘in; 4) g‘ildirak; 5) ezgu; 6) yog‘li.

a) 1, 3, 6 b) 1, 2, 4,5.6 s) 1.3.5.6 d) 2.4.5

22. Qaysi javobda egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda tovush o‘zgarishi bilan yoziladigan tub so‘zlar qatori berilgan?

a) bilak, qovoq, chelak b) axloq, tirnoq, pishloq

s) yurak, buyruq, kerak d) sovuq, sana, o‘yin

23. Qaysi javobda berilgan so‘zlar juftligi o‘zaro ma’nodosh emas?

a) chopmoq-yelmoq b) husn-go‘zal s)ayyor-makkor d) epchil-abjir

24. So‘zlarning ochiq bo‘g‘inlari keng unlilar bilan tugagan gapni aniqlang.

a) Ko‘z qayerda bo‘lsa, aql ham o‘sha yerda.

b) Uning boyligi sira tugamas ekan.
s) Kishining hurmati o‘z qo‘lida.
d) Uydan maktabga bora boshladim.
25. Quyida keltirilgan gapda nechta fonetik o‘zgarish hodisasi ro‘y bergan? Hadisi sharifda shunday deyilgan: “Odamlarga nisbatan yomonligingni to‘xtat, shu o‘zingga sadaqa bo‘ladi”.
a) 1ta b) 2ta s) 3ta d) 4ta

OT MAVZUSIGA TEST

Ushbu she’riy parchadagi yasama so‘zlarning nechtasining asosi ism hisoblanadi?
a) 1ta b) 2ta s) 3ta d) 4ta

1.Mana shu mahallada Karim qori degan chitfurush bor, Odilxo‘jaboy degan pudratchi bor, Matyoqubboy degan ko‘nchi bor. Ushbu gapda nechta shaxs oti bor?
a) 3 b) 4 s) 5 d) 2

2. mavhum otlarga qo‘shilgan -lar qo‘chimchasi qanday ma’noni bildiradi?
1. ko‘plik 2. ta’kid 3. kuchaytirish 4.mumlashtirish 5. chama-son
a) 1.2.3 b) 2.3 s) 3.4.5 d) 1.3.5

3.-lik qo‘shimchasi haqida qaysi fikr noto‘g’ri?
a) shaxs oti yasaydi b) o‘rin-joyoti yasaydi s) mavhum ot yasaydi d) narsa oti yasaydi

4. ot, sifat, ravish yasovchi omonim qo‘shimchani toping.
a) –a b) –sa s) – ona d) –in

5. Ajoyib milliy urf-odatlarimiz odamlarni hamjihatlikka, birodarlikka va samimiyatga chorlaydi. Ushbu gapdagi nechta mavhum ot so‘z yasovchi qo‘shimcha orqali yasalgan?
a) 1ta b) 2ta s) 3ta d) 4ta.

6. Ayriliq g’ussasi o‘limdan yomon… Qolmayin zarracha armon o‘ynasin.

7. Faqat turdosh otlar asosida paydo bo‘lgan atoqli otlarni aniqlang.
a) Ergash, Lobar, Gulchehra; b) Juma, Rayhon, Nilufar
s) Ulug’, Suluv, Go‘zal d) Ortiq, Quvonch, Vali

8. Birlik sonda predmetlar to‘dasini anglatadigan otlar qatorini toping.
a) qush, olma, shahar b) terak, avtobus, s) shoir, qovun, d) xalq, poda

9.-lar qo‘shimchasi taxmin ma’nosini anglatgan gapni toping.
a) Oyimlar ancha kech qaytdilar b) Karimlar uylariga endi ketishdi
s) Shifobaxsh suvlar inson uchun foydali d) Qishloqqa ham o‘n chaqirimlar bor

10. Faqat birlikda qo‘llanuvchi otlar qatorini toping.
a) Toshkent, Qarshi, Qo‘qon; b) bola, o‘quvchi, temir
s) ko‘z, quloq, burun, mis; d) ko‘mir, benzin, sovg’a

11. Tilshunoslikning qaysi bo‘limida so‘z o‘rganiladi?
a) leksikologiyada b) morfologiyada s) sintaksisda d) a va b javoblar.

12. Shaxs otlari qaysi javobda to‘g’ri ko‘rsatilgan?
1) Zuhra 2) Hasan 3) rentgen 4) murabbiy 5) muxlis 6) Anor
a) 1.2.3 b) 4.5 s) 3.4.5 d) 2.3.6
13. Faoliyat-jarayon nomini bildiruvchi otlarni aniqlang.
a) tanlov, uyqu b) sinov, terim s) falokat, qirilma d) namgarchilik, mahalla
14. Qaysi qatordagi egalik qo‘shimchalari o‘z ma’nosini yo‘qotgan?
1.Kechasi yomg’ir yog’di 2.Ona tuni bilan uxlamadi.3.O‘tgan yili hosil yaxshi bo‘lgan
a) 1.2.3 b) 1.3 s) 1.4 d) 2.4
15. Qaysi javobda egalik qo‘shimchasi qo‘shish natijasida tovush o‘zgarishiga uchrashi mumkin bo‘lgan yasama so‘zlar berilgan?
a) to‘lg’oq, qistov b) qayroq, chanqoq s) tuproq, o‘roq d) taroq, bilak
16. Qaysi gapda narsa otlari yasovchi qo‘shimchalar mavjud?
a) Mashinada kichkina sovutgich ham bor edi.
b) Opasi savatda olma, behi, anor olib kirdi. s) Zargarlik tarozisi ota meros aslida
d) Baqqollar, nosvoychilar jazirama oftob tig’ida o‘tirishardi.
17. Qaratqichli birikmaning qo‘shma so‘zga aylanishi natijasida hosil bo‘lgan otlarni toping.
a) molboqar, qushqo‘nmas b) so‘zboshi, shaftoliqoqi
s) kunbotar, kunchiqish d) askarboshi, sadarayhon
18. Qaysi javobda shakldoshiga ega bo‘lgan asosdan yasalgan yasama so‘zlar berilgan?
a) tishtirmoq b) changimoq s) oqimtir d) davolamoq
19. Tiniq osmon o ‘zining bor go'zalligi va malohatini cheksiz balandliklardan ulug‘vorlik bilan bizga ko‘z-ko‘z qilib turar edi.'Ushbu gapda qatnashgan sodda asama so‘zlar sonini aniqlang.
A) 3 B) 5 C) 6 D) 4
20. Hikmatni anglamoqning o‘zi bir hikmatdir. Ushbu gapdagi ismning munosabat shaklini hosil qiluvchi qo‘shimchalar soni nechta?
A) 5 ta B) 4 ta C) 6 ta D) 3 ta
21. O‘rik - ra’noguldoshlar oilasiga mansub mevali daraxt. Mevasi etli, yumaloq, tuxumsimon, oq, sariq, qizg‘ish.Ushbu parchada necha o‘rinda yasama so‘zlar qatnashgan?
A) 4 B) 6 C) 7 D) 5
22. Kerakli toshning og’irligi yo‘q. Gapdagi yasama otning asosi qaysi so‘z turkumiga tegishli.
a) ravish b) ot s) sifat d) fe’l

OT

1. Tarkibida faqat lug’aviy shakl yasovchi qo‘chimsha mavjud so‘zlar qatorini aniqlang.
A) yurishgandan, yaqinlashtirgan

B) borguncha, kitoblar C) taxminan, farg'onacha D) jigargo'sha, serquyosh

2. Shahar, kinoteatr, jamoa xo'jaligi kishilar nomiga qo'yilgan bo'lsa, qo'shtirnoq qay tarzda ishlatiladi?

A) Kinoteatr, jamoa xo'jaligi kishilar nomiga qo'yilgan bo'lsa, qo'shtirnoqqa olinadi, lekin shahar nomlari qo'shtirnoqqa olinmaydi.

B) Kinoteatr, shahar, jamoa xo'jaligi kishilar nomiga qo'yilgan bo'lsa, nomli, nomidagi so'zlari bilan qo'llanib, shu so'zlar bilan birgalikda qo'shtirnoqqa olinadi.

C) Shahar, kinoteatr, jamoa xo'jaligi kishilar nomiga qo'yilgan bo'lsa, qo'shtirnoq ishlatilmay ular nomli, nomidagi so'zlari bilan qo'llanadi.

D) Shahar, kinoteatr, jamoa xo'jaligi kishilar nomiga qo'yilgan bo'lsa, ular qo'shtirnoqqa olinib so'ng nomli, nomidagi so'zlari bilan qo'llanadi.

3. Quyidagi so'zlardan qaysilariga egalik qo'shimchasi qo'shilganda o'zak-negizda o'zgarish yuz bermaydi? 1. tuproq; 2. ishtirok; 3. huquq; 4. axloq; 5. to'garak; 6. idrok; 7. pichoq.

A) 2, 3, 4, 5. 6 B) 1, 3, 5, 7 C) 4, 5, 7 D) 2, 3, 4, 6

4. *Faqat bir-ikki tilim handalak yedi-yu, uch-to'rt piyola choy ichdi.* Mazkur gapdagi otlarning sintaktik vazifalari to'g'ri berilgan qatorni belgilang. A) 2 ta to'ldiruvchi B) 2 ta ega, 1 ta to'ldiruvchi C) 1 ta ega, 1 ta to'ldiruvchi D) to'g'ri javob berilmagan.

5. *Faqat bir-ikki tilim handalak yedi-yu, uch-to'rt piyola choy ichdi.* Mazkur gapda so'zlarning tuzilishiga ko'ra qaysi turi mavjud emas?

A) qo'shma, sodda B) sodda, juft C)takror, qo'shma D)takror, tub, yasama

6. Grammatik shakllarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limini ko'rsating.

A) leksikologiya B) morfologiya C) sintaksis D) punktuatsiya

7. Qo'shma otlar qatorini aniqlang.

A) qo'ziqorin, achchiqtosh, uchburchak B) tustovuq, oy, quyosh C) osh-posh. ko'z-po'z, aka-uka D) A va C

8. Xato yozilgan so'zlar qatorini belgilang. A) Surxondaryo, To'rtko'l, Qorovulbozor B) Kaspiy bo'yi, O'rta saroy, Eshon qishloq C) Oqqo'rg'on, Zirabuloq, Yangiariq D) Cho'lponota, Qo'rg'ontepa, Ellikqal`a

9. Bir turdagi shaxs, narsa, o'rin-joy, faoliyat-jarayon nomlarini bildiruvchi otlar... A) shaxs otlari B) faoliyat-jarayon otlari C) turdosh otlar D) bunday ta'rif yo'q

10. Noto'g'ri berilgan qoidani aniqlang.

A) Bir turdagi shaxs, narsa, o'rin-joy, faoliyat-jarayon nomlarini bildiruvchi otlar turdosh otlar deyiladi.

B) Suv havzalari va inshootlari nomlari tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan yoziladi.
C) Tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so‘z kichik harf bilan yoziladi.
D) B va C

11. Shaxslarni mansab- unvoniga ko‘ra nomlab kelgan ot qaysi gapda mavjud?
A) Bittasi toshkentlik Yusufbek hojining o‘g’li Otabek B) Dehqonchilik sirini professorlar o‘rgatgan emas bizga. C) Bahor oxirlab qolayotgan kunlarda shahzoda Abusaid qirq yigiti bilan ovga chiqdi.
D) to‘g’ri javob yo‘q

12. Shaxslarni nasl-nasabiga ko‘ra nomlab kelgan gapni belgilang.
A) Bittasi toshkentlik Yusufbek hojining o‘g’li Otabek
B) Dehqonchilik sirini professorlar o‘rgatgan emas bizga. C) Bahor oxirlab qolayotgan kunlarda shahzoda Abusaid qirq yigiti bilan ovga chiqdi.
D) A va C

13. Shaxs oti yasovchi qo‘shimchalarni belgilang.A) -chi, -soz, -kor, -xon, -dosh, boz, -vchi B) ser-, ba-, be-, no- C) -lik, -chilik, -gich, -gi, -k, -q, -oq D) -zor, -loq, -iston, -goh, -xona

14. O‘rin-joy bildiruvchi turdosh va atoqli otlarga qo‘shilib, shaxsning shu hududga mansubligini bildiruvchi shaxs oti yasovchi qo‘shimchalarni aniqlang. A) -chilik, -lik B) -lik C) -vchi, -chi D) bunday qo‘shimcha yo‘q

15. O‘zakka qo‘shilganda tovush o‘zgarishlari yuz beradigan shaxs oti yasovchi qo‘shimchani aniqlang.
A) -kor, -soz B) –vchi C) -chi, -soz D) -dosh, -boz

16. Shaxs otlari ishtirok etgan gapni aniqlang. A) Mashinada kichkina sovutgich ham bor edi B) Uloqchilargina emas, hatto otlar ham bu tortishuvning zavqini aniqlagandek. shavq bilan chopadi. C) Eshikni ochishim bilan dadam qo‘lidagi gazetasini, oyim supurgini tashlab menga qaradi.
D) B va C

17. Narsa oti ishtirok etgan gapni toping.A) Mashinada kichkina sovutgich ham bor edi B) Uloqchilargina emas, hatto otlar ham bu tortishuvning zavqini aniqlagandek, shavq bilan chopadi. C) Eshikni ochishim bilan dadam qo‘lidagi gazetasini, oyim supurgini tashlab menga qaradi.
D) A, B, C

18. Narsa otlari yasovchi qo‘shimchalarni aniqlang.
A) -chi, -soz, -kor, -xon, -dosh, -boz
B) -zor, -loq, -iston, -goh. –xona
C) -gich , -gi (qi), -k, -q, -oq
D) -(i)ndi, -ma, -don. -shunos, -paz

19. O‘rin-joy otlari yasovchi qo‘shimchalarni belgilang.

A) -chi, -soz, -kor, -xon, -dosh
B) -zor, -loq, -iston, -goh, -xona
C) -gich (-qich, -kich), -gi (qi), -k, -q, -oq D) barchasi to‘g’ri
20. Faoliyat-jarayon oti yasovchi qo‘shimchalarni aniqlang.
A) -lik, -chilik, -garchilik B) -(u)v, -(i)m, -(u)m, -(i)q C) -(i)di. -ma, don D) A va B
21. Faoliyat-jarayon bildiruvchi otlar qatorini aniqlang.
A) O‘zbekiston, o‘yingoh, gulzor
B) ipakchilik, kamchilik, terim, umum
C) chaquv, shofyorlik, guldon
D) chopiq, dehqonchilik, soatsoz
22. Aniq otlargina ishtirok etgan gapni aniqlang.
A) U o‘z qalbida kechayotgan tuyg’ularning nomini bilmas, shu daqiqadagi holatini o‘rtoqlariga ham izohlab berolmas edi. B) Hasad - yurakning zanglashi, qaysarlik mag’lubiyat sababchisidir. C) Hayo qalbning haqiqiy ko‘zgusidir. D) Mening Jasur ismli ukam bor, U hayvonlarni, ayniqsa itlarni yaxshi ko‘radi.
23. Mavhum otlar berilgan qatorni aniqlang.
A) baxt, pari, yalqovlik, bino B) farishta, hayo, orzu, hasad C) dev, xayol, aql, qalam D) o‘rik, o‘t, o‘y, go‘zallik
24. Mavhum ot yasovchi qo‘shimchalarni toping.
A) bunday qo‘shimcha mavjud emas
B) -lik, -ch, -lar C) -lik, -ch, -inch
D) -kor, -soz, -boz
25. -lar qo‘shimchasi hurmat ma’nosini anglatgan gapni toping.
A) Dadamlar: - Xo‘sh, qalay bu yerlar yoqdimi? Qara hamma yoq sokin Qushlar, baliqlar -bizniki, - dedilar.
B) Bahor keldi. Ariqlarda suvlar to‘lib, sharqirab oqa boshladi.
C) Ko‘zlarim harf tanimas edi, qalam ushlolmasdi hali qo‘llarim. D) B va C

SIFAT TEST

1. Quyidagi sifatlarni rang darajasining kamligidan tortib normal holatlardan rang darajasining oshib borishiga ko‘ra tartiblang. 1) qizil; 2) pushti; 3) qizg‘ish; 4) to‘q qizil; 5) och pushti; 6) qip-qizil. A) 1,2,3,5,4,6 B) 3,5,1,2,4,6 C) 4,6,3,5,1,2 D) 3,5,4,6,1,2
2.Binafsha rangning sinonimini toping. A) pushti B) qizil C) sapsar D) sinonimi yo‘q
3. Quyidagi so‘zlar qatoridan qay biri sinonimik qatorga mansub emas? 1) shirin; 2)mazali; 3) asaldek; 4) tilyorar. A) 4 B) 3 C) 3, 4 D) barchasi sinonim
4. Quyidagi gaplarning qay birida to‘rtta otlashgan sifat mavjud? A) Yomon bilan yo‘ldosh bo‘lsang, Yomondan burun o‘lasan. Yaxshi bilan sirdosh bo‘lsang, Yaxshilik bilan unasan. B) Baxilning qo‘lida oy

bo‘lsa olamni yoritmas. C) Kattaga kattasan, kichikka kichiksan. D) A, C

5. Sifat so‘z turkumiga xos morfologik xususiyatni aniqlang. 1) belgini darajalab ko‘rsata oladi; 2) sifatlovchi -aniqlovchi va ot - kesim vazifasida keladi; 3) ravishga ko‘chishi mumkin; 4) sifat yasalish xususiyatiga ega; 5) otlashadi; 6) otlashganda ega, to‘ldiruvchi, qaratqichli aniqlovchi, hol va kesim bo‘lib kela oladi. A) 2, 6 B) 3, 4 C) 1, 3, 4, 5 D) 1, 5

6. Berilgan sifatlarning qay biri asliy sifat? 1) yumshoq; 2) ertalabki; 3) odobli; 4) devoriy; 5) osma(soat); 6) qaynatma(sho‘rva). A) 2, 4, 5, 6 B) 1, 3 C) 1 D) barchasi nisbiy sifat

7. Qaysi qatordagi qo‘shimchalar ham ot, ham sifat yasovchi qo‘shimcha hisoblanadi? A) –ma, -iq, -i B) –a, -lik, -iyC) –qin, -g‘ich, -sh D) ch, -q, -a

8. Quyidagi qo‘shma sifatlardan qay birining tarkibi narsa- buyumni boshqa narsa- buyumga nisbatlash, o‘xshatish yo‘li bilan yasalgan? A) sheryurak, bodomqovoq B) qo‘ziqorin, otquloq C) qizilishton, bilaguzuk D) A, B

9. So‘z asosida ifodalangan belgiga egalikni bildiruvchi quyidagi qo‘shimchalardan qaysi biri be- qo‘shimchasi bilan zid ma'noli emas? A) -dor B) ba- C) -li D) -mand

10. Paytga xos belgini bildiruvchi sifatlar yasovchi qo‘shimchani toping. A) -li B) -iy C) -gi D) -simon

11.Qaysi gapda sifat otlashmagan? A) Kambag‘alni tuyaning ustida it qopar. B) Axir, musulmon odamman, aylanay! -dedi Hoji xola. C) Tong otishiga yaqin uch yarim sotixcha joyning past-balandini tekislab bo‘lgandi. D) Musohrga yo‘l ko‘rsatib, suv berish savob.

12.Qaysi qatordagi gapda yasama sifat mavjud? A) Kech kirib, ajib bir so‘lim payt boshlandi. B) Do‘mbirachi qadim qozoq kuylaridan dostonlar kuylamoqda. C) Otin bibi qari, jiddiy, sersavlat xotin. D) Men tomosha qilib boraman, xayol qanotida go‘yo sahrolar, tog‘lar kezaman.

13. Sifat+ot shaklidagi qo‘shma sifatlar qatnashgan gapni toping. A) Shirinsuxan, oqko‘ngil insonlar mevali daraxtga o‘xshaydi. B) Orzu millatga hayotbaxsh ruh bag‘ishlaydi. C) Toshbag‘ir odamdan yaxshilik kutma. D) Hulkarning yonoqlari och jigarrang edi.

14. Ayniqsa, Nasriddin Afandining quvnoq sarguzashtlari bilan tanishish. uning tabiatiga xos hajviy mayllarga turtki beradi. Yasama sifatlar miqdorini toping. A) 1 ta B) 2ta C) 3 ta D) 4 ta

15. Qaysi gap tarkibida ikkita o‘rinda yasama sifat qo‘llangan? A) Tuproq

qatlami qalin, sersuv yerlarda o‘sgan archalar yo‘g‘on va bo‘ydor bo‘ladi. B) Keng, ulug‘vor sahrolar ufqdan ufqqa tutashgan. C) Bo‘m-bo‘sh otxonaning eshigi lang ochiq turar edi. D) Tniq, ko‘m-ko‘k osmonda onda-sonda yengil bulutlar asta kezadi.

16. Qaysi qatorda asliy sifatlar berilgan? A) mayda, aqlli, yuzaki B) achchiq, chuchuk, qishki C) xushbo‘y, ko‘chma, jahldor D) yangi, dolppili, devoriy

17. Qaysi qatorda nisbiy sifatlar berilgan? A) mevali, tonggi, oilaviy B) mazmundor, xayoliy, chiroyli C) chillaki, serunum, chaqqon D) xushbichim, yasama, aqlli

18. Qaysi qatordagi gapda nisbiy sifat qo‘llangan? A) G‘iyos aka yumshoq ajriq ustiga yonboshladi. B) Hovlimizda ko‘cha eshikdan kiraverishda kichkina, g‘ishtin uycha bor. C) Inson tabiatning eng ongli farzandi. D) Cho‘ponlar sezgir, itlar ham ziyrak, bo‘ridan ayyor.

19. Qaysi gapda orttirma darajadagi sifat qo‘langan? A) Mevasi yetilib pishganda sershira bo‘ladi. B) Nomus jondan ham qimmatliroq. C) Hovli ham, uy ham bo‘m-bo‘sh, hamma yoq suv quygandek jimjit edi. D) Uning nazarida bundan ham suyumhroq, bundan ham zavqliroq va shavqliroq ish yo‘q edi.

20.Qaysi gapda xususiyat bildiruvchi sifat qo‘langan? A) Mamat olachipor, yashil tepalikdan pastlikka tomon yayov keimoqda. B) Chumchuqlar ham nima shirin, nima achchiqligini bilsa kerak. C) Hovli tor, devorlari baland edi. D) Bultur bahorda eshigimiz oldidagi gullarni sug‘orayotgan edim, yap-yangi "Moskvich" kelib to‘xtadi.

21. Otlashgan sifat ishtirok etgan gapni toping. A) Shu yaqindan o‘tib ketayotgan ikkita ovchi urishqoqni aravaga ortib ketishdi.B) Elmurod chaynaganini yutib, nonga tikilib qoldi. C) Ko‘z tashlab ko‘rilsa, ko‘m-ko‘k suv ko‘k charxiga o‘xshaydi. D) Chumchuqlar ham nima shirin, nima achchiqligini bilsa kerak.

22. Sofdil va jonkuyar odamlar bilan bu dunyo oboddir. Ushbu gapdagi sifatlar miqdori aniqlang. A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

23.Qaysi qatordagi gap tarkibida ot+ot tipidagi qo‘shma sifat berilgan? A) Toshbag‘ir odamdan yaxshilik kutma. B) Sofdil va jonkuyar odamlar bilan bu dunyo oboddir. C) Nodon va kaltafahm odamdan yaxshi gap chiqmaydi. D) Shirinsuhan, oqko‘ngil insonlar mevali daraxtga o‘xshaydi.

24. Qaysi gapdagi juft sifatlar yasama+yasama so‘z shaklida tuzilgan? A) Kasbning katta-kichigi bo‘lmaydi. B) U paytda qing‘ir-qiyshiq ko‘chalar ko‘p bo‘lgan. C)

Menga o‘xshash esli-hushli yigitga zoriqib o‘tirgan ekan. D) U yosbligidan ota-onasiz katta bo‘lgan.

25. Tarkibida juft sifat ishtirok etgan gapni aniqlang. A) Uyga kelib qarasa, hamma yoq ag‘dar-to‘ntar bo‘lib yotibdi. B) Bu masalani uzil-kesil hal qilish vaqti kelmadimi? C) Shag‘al to‘kilgan o‘ydim-chuqur yo‘ldan yurish it azobini beradi. D) Barcha javoblar to‘g‘ri

SON MAVZUSI BO‘YICHA TEST

1.Qaysi qatordagi gapning aniqlovchisi son bilan ifodalangan?

A) Qulupnayning mevasi naviga qarab, uch-saksontagacha bo‘lishi ham mumkin.

B) Besh-oltita tinish belgi kelib bugun, o‘tkazmoqqa qaror qildi jiddiy yig’in.C) Ikki soatlar eshakda yurib, tog’dan tog’ga o‘tib andak toliqqan edim.D) Birni kessang, o‘nni ek.

2. Son gapda otga bog’lanib kelsa qaysi gap bo‘lagi vazifasida keladi?

A) aniqlovchi B) miqdor-daraja holi C) ega D) ravish holi

3. Qaysi qatordagi gapda son hol vazifasida qo‘llangan?

A) Bir otasi, bir onasi, necha yuz ming bolasi. B) Opam bizga uzgan olmalaridan to‘rttadan berdi. C) Chol bilan kampir uch nafar qizlari bilan yashar ekanlar. D) barchasida hol vazifasida qo‘llangan

4. Qaysi qatorda harakatning miqdorini ifodalash uchun son qo‘llangan?

A) Yetimlik nimadir, bizlardan so‘ra, O‘ninchi yillarning sargardonligi…

B) Ichkaridan yoshi yetmishlardan oshgan nuroniy bir chol chiqib kelibdi. C) Eshakning ustiga ikkitadan bo‘lib mindik.D) Yuragi shuvullab, chetlanib o‘tarkan, uch-to‘rt yashar qizchaga ko‘zi tushdi.

5. Sanoq son ishtirok etgan gapni toping.A) Oqibat ikkovi-da baravar yiqildi. B) Kuzatishimcha, odamlar gapirayotgan gapning yetmish foizi ortiqcha ekan. C) Nafis chayqaladi bir tup na’matak, Yuksakda shamolning belanchagida.D) Bekatda o‘ntacha odam avtobus kutib turishardi.

6. Qaysi gapda dona son qatnashgan.

A) Derazamning oldida bir tup O‘rik oppoq bo‘lib gulladi. B) Ichkaridan yoshi yetmishlardan oshgan nuroniy bir chol chiqib keldi.C) Azim har yelkasiga to‘rttadan odam sig’adigan yigit bo‘libdi. D) dona son qatnashmagan

7. *Yuragi shuvullab, cheklanib o‘tirarkan, uch-to‘rt yashar qizchaga ko‘zi tushdi.* Ushbu gapdagi sonning ma’no guruhini aniqlang.

A) dona son B) taqsim son C) chama son D) jamlovchi son

8. Ular ikkitadan bo‘lib saf tortishdi. Mazkur gapdagi sonning ma’no guruhini toping.

A) dona son B) taqsim son C) chama son D) jamlovchi son

9. Hisob so‘zli gapni toping.

A) Yo‘lning kengligi 10,5 metrni tashkil qiladi. B) Ko‘rsatkich barmog’i bilan tirnoq yuzasi burchagidagi nuqtani 3-4 daqiqa mobaynida bosib turing, shunda tish og’rig’i taqqa to‘xtaydi.

C) Men ikkoviga bittadan ezilgan shaftoli beraman. D) A va B

10. -ta, -tadan, -tacha, -lab, -larcha qo‘shimchalari orqali sonning qaysi ma’no turini hosil qilish mumkin?

A) jamlovchi va chama son B) chama va taqsim son C) dona, chama va taqsim son D) miqdor va tartib son

11. Sondan boshqa so‘z turkumiga ham tegishli bo‘lgan so‘roq qaysi qatorda?

A) necha B) nechanchi C) qancha D) nechtadan

12. Narsalarning miqdorini qaysi so‘z turkumi orqali ifodalash mumkin?

A) faqat son B) son, olmosh, fe’l C) son, olmosh, ravish D) sifat, son, ot

13. Sonni juftlash, takrorlash orqali qanday ma’no ifodalash mumkin?

A) sanash ma’nosi B) taqsim, chama ma’no C) kasr, ulush ma’no D) aniq miqdor

14. *Yo‘lning kengligi 10,5 metrni tashkil qiladi.* Mazkur gapdagi hisob so‘z qanday miqdorni bildirish uchun xizmat qilmoqda?

A) to‘ldiruvchi B) og’irlik C) masofa D) to‘g’ri javob yo‘q.

15. Qaysi qatordagi gapda miqdor bildiruvchi so‘z otning miqdorini anglatib kelmoqda?

A) Mashrab bilan Akmal esa o‘n besh-yigirma bolaga javobgar.B) Og’zini yumganicha, ovozini ichiga yutib, bir-ikki kulib oldi u.C) Bu sopol ko‘za-chi, so‘znimga ishon, Sodiq xizmat qildi ming yil odamga. D) Birinchi bor kelganimda Yetti yoshdaydim u choq.

16. Berilgan matndagi sonlarning sintaktik vasifasi qaysi qatorda to‘g’ri ko‘rsatilgan? *Jo‘jalardan ikkitasini kalxat oldi, qolgan ikki kam o‘ttiztasi o‘sib tovuq bo‘ldi. Sakkiztasini olib qolib qolib, yigirmatasini bozorga olib borib sotib, bitta ona-bola echki olib kelib bularni ham boqa berdi.*

A) hol, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, ega, kesim B) to‘ldiruvchi, ega, to‘ldiruvchi, to‘ldiruvchi, aniqlovchi C) ega, to‘ldiruvchi, ega, aniqlovchi, hol D) to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol, kesim

17. Son otlashib kelgan gap berilgan qatorni toping.

A)Ikkovining orasida hech qanday sir yotmaydi. B) Odamlar bitta-ikkitadan bo‘lib maydonga to‘plana boshlashdi. C) Navro‘z juda qadimiy bayramlardan, ya’ni salkam 3000 yillik tarixga ega D) son otlashmaydi

18.Qaysi qatorda berilgan gapda hisob so‘z bilan qo‘llangan son holga bog‘lanib kelgan?
A)Besh nafar yo‘lovchi yuklarini avtobusga ortib, o‘zlari boshqa mashinada ketishdi. B)Bu savolga beshalasi bir ovozdan javob berishdi. C)Bir soat yurgandan so‘ng katta yo‘lga chiqdik. D)Ikki arava o‘tinni hovliga kirgizib, taxlab qo‘ygach, tushlikka o‘tirdi.
19.Hisob so‘zlar haqida noto‘g‘ri fikrni aniqlang.
A)xashak-o‘tinlarni o‘lchash uchun tutam, quchoq hisob so‘zlari ishlatiladi B)yog‘och, qadam, misqol, paysa hisob so‘zlari uzunlik o‘lchovini bildiradi C)shisha, paqir hisob so‘zlari alohida olinganda narsa nomini bildiradi D)o‘lchov so‘zlarning ayrimlari alohida olinganda predmet nomini bildiradi
20.Qaysi javobda quyida berilgan gapdagi sifatga oid so‘zlar soni to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
Shahzodaning dilini ma’yus, ammo har kungi
*mudhish tuyg‘ularga o‘xshamagan, allaqanday pokiza tuyg‘ular chulg‘ab oldi.*A) uchta B) oltita C) to‘rtta D) beshta
21.Orttirma darajadagi yasama sifat qo‘llangan gapni aniqlang.
A)Hamma yoq top-toza. B)Insonning hayot yo‘li g‘oyat murakkab.C)Ko‘m-ko‘k osmonda suzib yurgan paxtadek yumshoq bulutlar yonayotgandek lovullardi.D)Ular uchun eng bexatar yo‘l Toshkent edi.
22.Qaysi javobda keltirilgan qo‘shimchalar otga qo‘shilib, asosdan anglashilgan belgi-xususiyatning me’yordan ortiq, ko‘p ekanligini bildiruvchi old qo‘shimcha hisoblanadi? A)-li, -dor B)ba-, ser- C)ba-, no- D)ham-, no-
23.Qaysi javobda asliy sifat ishtirok etmagan?
A)Uying tor bo‘lsa ham, ko‘ngling keng bo‘lsin! B)Achchiq savol berib, shirin javob kutma. C)Xonaga beqasam to‘n kiygan do‘ppili kishi kirib keldi. D)Afting qiyshiq bo‘lsa, oynadan o‘pkalama!
24. Qaysi maqolda qo‘llangan son "yarim" so‘ziga ma’nodosh bo‘la oladi?
A)Yetti o‘lchab, bir kes.B)Bir kun tuz ichgan joyingga qirq kun salom qil! C)Oyning o‘n beshi qorong‘i bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘ bo‘ladi. D)Birni sochsang yerga, Mingni berar elga.
25. Uchso‘zi qaysi qatorda ko‘chma ma’noda qo‘llangan?
A)Bolasining yoshi uchda, tili endigina chiqqan. B)Nayza uchi zaharlangan ekan. C)Tayoqning uchi bilan turtib ko‘rdi. D)Jinoyatchilik avj olgan bu palladahamma undan noliydi-yu, hech kim uning uchini surishtirmaydi.

OLMOSH MAVZUSI UCHUN TEST

1. O‘sha, hech qayer, o‘zlari, sen, nega, bari, har kim, qanaqa, hech bir. Yuqoridagi olmoshga oid so‘zlar orasida olmoshning qaysi turi berilmagan?

A) kishilik B) belgilash C) gumon D) bo‘lishsizlik

2. Kishilik va ko‘rsatish olmoshi (u) o‘zaro qanday farqlanadi?

A) qanday so‘roqqa javob bo‘lishiga ko‘ra B) gapda qaysi bo‘lakka bog‘lanib kelishiga ko‘ra C) qaysi gap bo‘lagi vazifasida kelishiga ko‘ra D) barcha javoblar to‘g‘ri

3. Siz meni qandaydir sirli odam deb o‘ylayapsiz. Ushbu gapda olmoshning qaysi turlari qo‘llangan?

A) o‘zlik, gumon B) kishilik, belgilash C) kishilik, gumon D) kishilik, ko‘rsatish, gumon

4. Qaysi qatordagi gapda gumon olmoshi qo‘llanmagan ?

A) Vaqt allamahal bo‘lib qolgan edi B) Ali Qushchi allanimalarni o‘ylab ketdi. S) Ot nima uchundir o‘rnidan jilmasdi D) Negadir taftishchining ovozi menga yoqmadi.

5. Quyidagi olmoshlardan qaysi biri egalik qo‘shimchasi bilan qo‘lianmaydi? A)nima B)ilm S)biz D) o‘z

6. Qanday so‘zlar gap tarkibida boshqa so‘zlarga nisbatan kuchliroq ohang bilan aytiladi?

A)so‘roq olmoshlari B)kishilik olmoshlari S)kesim vazifasida kelgan so‘z D)ega

7. Tinglovchiga ishora qiluvchi shaxs olmoshlarini belgilang. A)sen, siz B)men, biz S)kamina, faqir D) u, ular

8.Ko‘plikdagi kishilik olmoshlarining qaysi biri uslubiy talab bilan birlikni ko‘rsatuvchi olmosh o‘rnida kelishi mumkin?

A. I shaxs ko‘plikdagi olmosh
B. II shaxs ko‘plikdagi olmosh
C. III shaxs ko‘plikdagi olmosh
D. har uchala shaxsdagi ko‘plikdagi olmoshlar

9.Qaysi gapda olmosh ishtirok etmagan?

A. Bahor andoqki, bulbul gul uzori toza istarmen.
B. Na bo‘ldiki, siz shunchalar jim qoldingiz?
C. Bolalar yugurgancha ketishdi, kimdir gullarga suv quya boshladi.
D. Ba’zi odamlar mehnatdan qochadilar.

10.Belgilash olmoshi berilgan qatorni toping. A. har doim B. Allaqachon C. hech yoqdan D. Butun

11.Olmoshga xos bo‘lmagan xususiyat qaysi qatorda berilgan?

A. egalik qo‘shimchasini oladi
B. kelishik qo‘shimchasini qabul qiladi
C. so‘z yasovchi qo‘shimchasini qabul qiladi

D. shaxs-son qo‘shimchalarini qabul qiladi

12.Qaysi qatordagi gapda “bir” so‘zi gumon olmoshi ma’nosini ifodalaydi?

A. Sizni ko‘chada bir kishi chaqiryapti.

B. Darsga bir Karim kelmadi.

C. Bir qor yog‘adi, bir yomg‘ir.

D. Ertaga bir dam olsam deyman.

13. So‘roq olmoshlariga quyidagi qo‘shimchalardan qaysi biri qo‘shilishi mumkin?

A. shaxs-son qo‘shimchalari

B. egalik qo‘shimchasi

C. nisbat yasovchi qo‘shimcha

D. Sanalgan qo‘shimchalar kishilik olmoshlariga qo‘shilmaydi.

14.Kishilik olmoshlari turlanganda qanday fonetik hodisa kuzatiladi?

A. tovush almashishi

B. tovush tushishi

C. tovush orttirilishi va tushishi

D. fonetik o‘zgarish kuzatilmaydi

15.Belgilash olmoshlari qaysi olmoshlardan hosil qilinishi mumkin?

A. faqat so‘roq olmoshlaridan

B. so‘roq va ko‘rsatish olmoshlaridan

C. so‘roq va kishilik olmoshlaridan

D. so‘roq va o‘zlik olmoshlaridan

16. Qiziq voqea ekan. Shunday voqeani oldin ham eshitgandim. Ushbu gapdagi “shunday” so‘zi qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan? A) belgilash olmoshi B) ko‘rsatish olmoshi S) sifat D) ravish

17.Qaysi qatorda belgilash olmoshi ishtirok etgan gap berilgan?

A. Har kim o‘z qilmishiga yarasha mukofot oladi.

B. Hech bir his aqldan ustun bo‘lmaydi.

C. Siz bilan allaqayerda uchrashganmiz.

D. Eshik orqasidan kimningdir xirgoyisi eshitilardi.

18. Qaysi gapda o‘zlik olmoshi hurmat ma’nosida qo‘llangan?

A. O‘zlari- xon, ko‘lankalari- maydon.

B. Rais amakim o‘zlari kelib ketdilar.

C. Donolar uchun o‘zlarining hayotlari o‘zlariga ravshan.

D. O‘zlarimi, kelsinlar!

19.Qaysi qatordagi gapda o‘zlik olmoshi o‘rnida kishilik olmoshini qo‘llab bo‘lmaydi?

A. Rostini aytsam o‘zim ham unchalik yomon bola emasman

B. Qurvonbibi fotiha to‘yidan keyin biroz o‘ziga kelgan edi

C. Bu ishlarni qilgan o‘zi

D. Yutuqlar o‘zimizniki

20. Qaysi gapda narsa-hodisa so‘rog‘i belgi-xususiyat so‘rog‘i o‘rnida qo‘llangan?

A. Nega uni otdami, aravadami eltib qo‘ymadi

B. Kechagi gaplardan keyin qaysi yuzi bilan boradi

C. Nima ishlari bor ekan? – so‘radi Zulayho xola

D. Yo qudratingdan, bu qanday odam?

SINTAKSIS BO‘LIMIDAN TESTLAR

1. Qaysi qatordagi fikr noto‘g‘ri?

A) so‘z leksik hodisa B) so‘z birikmasi grammatik hodisa C) so‘z birikmasida ma’no, tushuncha ancha aniq va ravshan bo‘ladi D) so‘z grammatik hodisa

2. Qaysi qatorda so‘zning so‘z birikmasiga nisbatan muqobili noto‘g‘ri berilgan?

A) olqor – yovvoyi tog‘ echkisi B) g‘o‘nan – uch yashar ot C) pilla – kumush tola D) nor – erkak tuya

3. “Qanotli do‘stlar” haqida film yaratildi. Berilgan gapdagi ajratilgan so‘z birikmasi qaysi so‘zga teng keladi?

A) samolyotlar B) qaldirg‘ochlar C) qushlar D) pillakorlar

4. Yurtimiz zangori olov, qora oltin zahiralariga juda boy. Berilgan gapdagi ajratilgan so‘z birikmalarini ma’nosiga ko‘ra unga teng keladigan so‘z bilan almashtiring.

A) neft, toshko‘mir B) paxta, gaz C) gaz, neft D) gaz, oltingugurt

5. So‘z birikmalarida ma’no …

A) mavhum bo‘ladi B) ancha umumlashgan bo‘ladi C) so‘z birikmalarida ma’no, tushuncha ancha aniq va ravshan bo‘ladi D) to‘g‘ri ta’rif keltirilmagan

6. Ko‘rgazmada atoqli mo‘yqalam ustalari yaratgan rasmlarni tomosha qildik. Keltirilgan gapdagi ajratilgan so‘z birikmasining ma’nosiga teng keladigan so‘zni belgilang.

A) yozuvchilar B) suratkashlar C) shoirlar D) rassomlar

7. Echkining bolasi atrofida sakrab o‘ynaydi. Berilgan gapdagi ajratilgan so‘z birikmasining qaysi so‘zga teng kelishini aniqlang.

A) toy B) uloqcha C) qo‘zichoq D) ayg‘ir

8. Maktabimizda taniqli so‘z san’atkorlari bilan uchrashuv bo‘ldi. Berilgan gapdagi ajratilgan so‘z birikmasi qaysi so‘zga teng keladi?

A) rassomlar B) qiziqchilar, yozuvchilar C) notiqlar, qiziqchilar D) yozuvchilar

9. Maktabimizda juda ko‘p kumush tola yetishtiriladi. Berilgan gapdagi ajratilgan so‘z birikmasini ma’nosiga ko‘ra unga teng keladigan so‘z bilan almashtiring.

A) pilla B) paxta, pilla C) kumush, metall D) paxta

10. Vatanimizda ishlab chiqarilgan havo kemalari dunyo bo‘ylab parvoz qilmoqda. Ushbu gapdagi ostiga chizilgan so‘z birikmasining qaysi so‘zga teng kelishini aniqlang.

A) samolyot B) vertolyot C) parashut D) raketa

11. Bu yil bahor elchilari erta uchib keldilar. Gapdagi ajratilgan so‘z birikmasining so‘zga nisbatan muqobilini ko‘rsating.

A) qaldirg‘och B) turna C) laylak D) kabutar

12. Lug‘atlarda so‘zning ma’nosini ochib berish uchun nimalardan foydalaniladi?

A) qo‘shma so‘z B) so‘z birikmasi C) tasviriy ifoda D) ibora

13. Qaysi qatorda so‘zlarning so‘z birikmalari bilan ifodalangan ma’nolari to‘g‘ri berilmagan?

A) ayg‘ir – uch-to‘rt yosh orasidagi erkak ot B) nor – erkak tuya C) olqor – yovvoyi tog‘ bug‘usi D) g‘o‘nan – ikki yashar ot

14. So‘z birikmasida…

A) qismlar faqat bir xildagi so‘z turkumlariga oid bo‘ladi B) qismlar ma’no mustaqilligiga ega bo‘ladi C) qismlar orasida grammatik aloqa sezilib turadi D) B va C

15. Qo‘shma so‘z haqidagi qaysi fikr noto‘g‘ri?

A) qo‘shma so‘z tarkibidagi qismlarning ma’nosi saqlanmay, qo‘shma so‘zning umumiy ma’nosi orqali anglashiladi B) javoblarning barchasi to‘g‘ri C) qo‘shma so‘z umumiy bir urg‘uga ega bo‘ladi D) qo‘shma so‘z qismlari orasidagi grammatik aloqa yo‘qolgan bo‘ladi

16. Qo‘shma so‘zlarning ko‘pchiligi qanday yasaladi?

A) qo‘shma so‘zlar yaxlit tushuncha, yasalishga ega emas B) qo‘shma so‘zlar ikkita so‘zning to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘shilishidan hosil o‘ladi C) qo‘shma so‘zlarning ko‘pchiligi tarixan so‘z birikmalari asosida yuzaga kelgan D) javoblarning barchasi to‘g‘ri

17. Berilgan javoblardan qo‘shma so‘z qatnashgan gapni toping.

A) Dori bosh og‘rig‘ini darrov qoldirdi. B) Qiziqchi qizil ishton kiygan edi. C) Qayerdandir oq qushlar uchib keldi. D) Qizilurug‘ kechroq unadi, lekin ko‘p hosil beradi.

18. Qaysi qatorda qo‘shma so‘z berilgan?

A) Bola jarohatlangan oqqushni davoladi. B) Qayerdandir oq qush uchib keldi. C) Qizil urug‘dan ungan ko‘chatlar sog‘lom rivojlandi. D) Dori bosh og‘rig‘ini darrov qoldirdi.

19. Qo‘shma so‘z qo‘llangan gapni aniqlang.

A) Ertasiga yana allaqayoqda bo‘g‘iqqina momaqaldiroq guldirab, beozorgina yomg‘ir savalab o‘tdi, bo‘liq tuproq hidi anqidi. B) Azim va chuqur daryolar shovqinsiz oqadi, sayoz jilg‘alar sershovqin oqadi, oqil va g‘ayratli kishilar ham kam gapirib ko‘p ish qiladilar. C) Norbobo belbog‘ini qaytadan bog‘lab, ikki qo‘li bilan belini siqib qo‘ydi. D) Dori bosh og‘rig‘ini darrov qoldirdi.

20. Quyida keltirilgan gap qaysi javobda so‘z birikmalariga to‘g‘ri ajratilgan?

Ertasiga yana allaqayoqda bo‘g‘iqqina momaqaldiroq guldirab, beozorgina yomg‘ir savalab o‘tdi, bo‘liq tuproq hidi anqidi.

A) bo‘g‘iqqina momaqaldiroq, savalab o‘tdi B) bo‘liq tuproq, savalab o‘tdi C) bo‘g‘iqqina momaqaldiroq, bo‘liq tuproq D) ertasiga yana, momaqaldiroq guldirab

21. Anhor bo‘yidagi hovlilarning ochiq eshiklaridan ozoda supalar, sadarayhon, nomozshom gullar ko‘rindi. Berilgan gap qaysi qatorda so‘z birikmalariga to‘g‘ri ajratilgan?

A) anhor bo‘yidagi, nomozshom gullar B) ozoda supalar, anhor bo‘yidagi hovli, ochiq eshiklar C) ozoda supalar, eshiklaridan sadarayhon D) nomozshomgullar ko‘rindi, ozoda supalar

22. Qaysi qatorda turg‘un bog‘lanmaga to‘g‘ri izoh berilgan?

A) so‘zlar o‘zaro erkin bog‘langan bo‘ladi B) tushuncha anglatadi, leksik ma’no bermaydi C) turg‘un bog‘lanmalarda so‘zlar ma’noviy butunlik uchun birlashgan – yaxlitlangan bo‘ladi, bir leksik ma’no anglatadi D) turg‘un bog‘lanmalar ma’noviy butunlikka ega bo‘lmaydi, birdan ortiq leksik ma’no anglatadi

23. Turg‘un bog‘lanma (ibora)larga to‘g‘ri izoh berilgan javobni ko‘rsating.

A) turg‘un bog‘lanma (ibora)ga bir so‘z sifatida qaraladi B) turg‘un bog‘lanma lug‘atlarda so‘zlar qatorida beriladi C) iboralar so‘zlar kabi ma’no ifodalaydi D) javoblarning barchasi to‘g‘ri

24. “Mag‘rurlangan” ma’nosini beradigan iborani aniqlang.

A) tutunini bulut ko‘rmagan B) ko‘zini yog‘ bosgan C) igna teshigidan o‘ta oladigan D) yulduzni benarvon uradigan

25. Qaysi ibora “qaysarlik qilmoq” ma’nosini bildiradi?

A) to‘nini teskari kiyib olmoq B) tutunini bulut ko‘rmagan C) qovog‘idan qor yog‘moq D) o‘z yog’ida qovurilmoq

26. Turg‘un bog‘lanma haqida aytilgan fikrning qaysi biri noto‘g‘ri?

A) turg‘un bog‘lanmaga bir so‘z sifatida qaraladi B) barcha fikrlar to‘g‘ri C) turg‘un bo‘glanma so‘z ma’nolarini oddiy emas, obrazli tarzda ifodalaydi D) turg‘un bog‘lanma ma’noviy yaxlitlikka ega bo‘ladi

27. Berilgan gaplarning qaysi birida turg‘un bog‘lanma (ibora) ishtirok etgan?

A) Yigit oqimga qarshi suzib, ariqning boshiga yetdi. B) Shifokor dorini bolaning qulog‘iga quydi. C) Semiz qo‘y go‘shti o‘z yog‘ida qovurildi. D) Yakka qolgan Hasanboy vijdon azobida o‘z yog‘ida qovurildi.

28. Turg‘un bog‘lanma (ibora)ga xos xususiyat berilmagan qatorni toping.

A) turg‘un bog‘lanma (ibora)lardagi so‘zlarni almashtirib bo‘lmaydi B) ular bir ma’no ifodalash qonuniyati asosida turg‘unlashgan, yaxlitlangan bo‘ladi C) leksik ma’no ifodalamaydi D) javoblarning barchasi to‘g‘ri

29. Turg‘un bog‘lanma (ibora) ishtirok etgan gapni belgilang.

A) Hozirgina qizcha ushlab olgan tog‘ kapalagi uchib ketdi. B) Sigirning ahvolini ko‘rdi-yu, uning ham kapalagi uchib ketdi. C) Azim va chuqur daryolar shovqinsiz oqadi. D) Yigit oqimga qarshi suzib, ariqning boshiga yetdi.

30. “To‘nini teskari kiymoq” iborasiga mos keladigan so‘zni toping.

A) qo‘li ochiq B) jahli chiqmoq C) qaysarlik qilmoq D) o‘jar

31. Bezovtalandi so‘ziga mos keluvchi ibora qo‘llangan gapni aniqlang.

A) Shu payt ko‘cha darvoza taraqlab ochildi, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib Alijon kirib keldi. B) Mana shu tirranchalarni deb boya rosa po‘stagimni qoqishdi. C) Mehmon joyiga o‘tirdi-yu, ammo ko‘ngli joyiga tushmadi. D) Kim u? Joyimda qoqqan qoziqdek qotib qoldim.

32. “Hafsalasi pir bo‘ldi” iborasiga ma’nodosh ibora ishtirok etgan gapni aniqlang.

A) Og‘ziga talqon solganday jim o‘tirdi. B) Shu payt ko‘cha darvoza taraqlab ochildi, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib Alijon kirib keldi. C) Sobir yulduzni benarvon uradiganlar sirasiga kiradi. D) Mehmon joyiga o‘tirdi-yu, ammo ko‘ngli joyiga tushmadi.

33. Qaysi qatordagi birikuv erkin birikma sanaladi?

A) aybini bo‘yniga qo‘ymoq, qilichni bo‘yniga qo‘ymoq B) ariqning boshiga yetmoq, onasining boshiga yetmoq C) to‘g’ri javob berilmagan D) dorini qulog‘iga quymoq, gapni qulog‘iga quymoq

34. So‘z birikmalari zanjiri qanday hosil bo‘ladi?

A) gap tarkibida bir so‘z birikmasidagi hokim so‘z boshqa bir so‘zga tobelanganda B) bir hokim so‘z bir necha tobe so‘z yoki bitta tobe so‘z bir necha hokim so‘zga aloqador bo‘lganda C) so‘z birikmasidagi tobe va hokimlik yo‘qolganda D) A va B

35. Berilgan gapni so‘z birikmalariga ajrating. Badanni junjituvchi sovuq shamol izg‘ib qoldi.

A) badanni junjituvchi, sovuq shamol B) badanni junjituvchi, sovuq shamol, junjituvchi shamol C) badanni junjituvchi sovuq shamol D) A, B, C

36. Uch kundan beri shimoldan esgan mayin shamol birikmasini nechta so‘z birikmasiga ajratish mumkin?

A) 3 ta B) 2 ta C) 5 ta D) 4 ta

37. Uchta paxta gulli chinni piyola. Ushbu birikmada nechta so‘z birikmasi zanjiri mavjud?

A) 2 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 5 ta

38. So‘z birikmalari berilgan qatorni toping.

A) gul chiroyli, muhandis akam B) shirin qovun, katta ko‘cha C) gul chiroyli, akam muhandis D) g‘azalni yodlaymiz, chiroyli gul

39. Qaysi qatorda so‘z birikmasi berilmagan?

A) sovuq qattiq B) qiziqarli mashg‘ulot C) qattiq sovuq D) o‘qishli asar

40. 1) berilgan topshiriq; 2) samarali ishlamoq; 3) chiroyli gul; 4) g‘azal yodlamoq; 5) o‘qishli asar; 6) maktab bog‘i

Yuqoridagi birikmalardan qaysilarining o‘rni almashtirilsa gap hosil bo‘ladi?

A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 6 C) 2, 3, 4, 5 D) 1, 2, 3, 4, 5, 6

41. Berilgan qaysi so‘z juftligidan so‘z birikmasi va gap hosil qilish mumkin.

1. berilgan, topshiriq; 2. vazifa, bajarmoq; 3. qiziqarli, mashg‘ulot; 4. o‘qishli, asar; 5. samarali, ishlamoq

A) 1, 2, 5 B) 1, 3, 4 C) 1, 3, 5 D) 2, 4, 5

42. Qaysi gapda tushum kelishigidagi ot fe‘l bilan birikma hosil qilgan?

A) Qishlog‘imizda yangi maktab qurildi. B) Yaxshilik yerda qolmas. C) Rais terimchilarga mukofot berdi. D) qoramtir osmonda yulduzlar chaqnay boshladi.

43. Birikma tarkibidagi tobe so‘z turlangan javobni toping.

A) g‘alabaga intilish B) birdaniga yopirilmoq C) yoppasiga ommalashmoq D) yolg‘ondan gapirmoq

44. Qaysi qatorda to‘ldiruvchili birikmalar berilgan?

A) qishloqdagi binolar, kitobdan ko‘chirmoq B) tunda kelmoq, qunt bilan ishlash C) choynakdan kattaroq, Sohibaning taqdiri D) otdan baland, kitobni o‘qib chiqmoq

45. So‘z birikma va gap haqida aytilgan qaysi fikr noto‘g‘ri?

A) so‘z birikmasi ham, gap ham so‘zlarning grammatik aloqaga kirishuvidan yuzaga keladi B) gap so‘zlarning grammatik aloqaga kirishuvidan yuzaga keladi, biroq so‘z birikmasida bu holat kuzatilmaydi C) gap fikr, so‘z birikmasi tushuncha ifodalaydi D) B, C

46. Zargarov sahrodagi ishlarning miqyosini yaxshi tasvirlab berdi. Ushbu gapda nechta so‘z birikmasi mavjud?

A) 3 ta B) 2 ta C) 5 ta D) 4 ta

47. Zargarov sahrodagi ishlarning miqyosini yaxshi tasvirlab berdi. Ushbu gapda so‘z birikmasining qaysi turlari qo‘llangan?

A) moslashuv, bitishuv B) boshqaruv, moslashuv C) boshqaruv, moslashuv, bitishuv D) boshqaruv, bitishuv

48. Zargarov sahrodagi ishlarning miqyosini yaxshi tasvirlab berdi. Ushbu gapda qo‘llangan bitishuvli birikmalar sonini aniqlang.

A) 2 ta B) 1 ta C) bitishuvli birikma ishtirok etmagan D) 3 ta

49. Zargarov sahrodagi ishlarning miqyosini yaxshi tasvirlab berdi. Berilgan gapdagi boshqaruv usuli bilan birikkan so‘z birikmasini aniqlang.

A) ishlarning miqyosi B) miqyosini tasvirlab berdi D) yaxshi tasvirlab berdi D) sahrodagi ishlar

50. Zargarov sahrodagi ishlarning miqyosini yaxshi tasvirlab berdi. Ushbu gapdagi bitishuv usuli bilan birikkan so‘z birikmasini toping.

A) yaxshi tasvirlab berdi B) A va D C) miqyosini tasvirlab berdi D) sahrodagi ishlar

51. Derazaning ochiq tabaqasidan kirayotgan shamol darpardani xomushgina silkitdi. Ushbu gapda nechta bitishuv usulidagi so‘z birikmasi mavjud?

A) 2 ta B) 1 ta C) 4 ta D) 3 ta

52. Keltirilgan gapda qanday tinish belgilari ishlatilishi lozim? Umrimda bormagan joyimga qanaqa qilib boraman // Mening borishimdan nima foyda //

A) so‘roq, nuqta B) so‘roq, so‘roq va undov C) so‘roq, undov D) ikki nuqta, undov

53. Keltirilgan qaysi gapda tinish belgisi noto‘g‘ri qo‘llangan?

A) Dadam ishdan kech keldi, oyim betob yotibdi, degin! B) Sergey otdan sakrab tushib, cholga qo‘l uzatdi. C) Kap-katta bo‘lib shunga ham vaj topolmaysizmi? D) Darig‘ tutmay nigorim, bo‘lsa imkon bir kelib ketsin.

54. Gapga mos keluvchi ta’rifni ko‘rsating.

A) Gap bir voqea-hodisa haqidagi xabarni, so‘roqni yoki buyruqni ifodalovchi asosiy sintaktik butunlikdir. B) Gap kesim va ega yoki faqat kesim bo‘laklariga aloqador grammatik asosga ega. C) Gap tushuncha ifodalaydi. D) A va B

55. Yozma nutqda ohangga qarab har bir gap oxirida…

A) nuqta qo‘yiladi B) so‘roq belgisi qo‘yiladi C) undov belgisi qo‘yiladi D) nuqta, so‘roq yoki undov belgisi qo‘yiladi

56. Oq paxtalar ochildi. Ushbu gap tarkibidagi oq va paxtalar so‘zlari o‘zaro qaysi vosita orqali bog‘langan?

A) ohang B) ko‘plik qo‘shimchasi C) so‘z tartibi D) kelishik qo‘shimchasi

57. Ifoda maqsadiga ko‘ra gaplar qanday turlarga bo‘linadi?

A) darak, so‘roq, buyruq gaplar B) so‘roq, buyruq, istak gaplar C) darak, so‘roq, buyruq, istak gaplar D) darak, so‘roq, buyruq-istak gaplar

58. Darak, so‘roq, buyruq va istak gaplar odatda qanday shaklda bo‘ladi?

A) egali va egasiz gap shaklida B) egali va egasiz, yig‘iq va yoyiq, sodda va qo‘shma gap shaklida C) sodda va qo‘shma gap shaklida D) egali va egasiz, yig‘iq va yoyiq gap shaklida

59. Istak gap berilgan qatorni toping.

A) Xo‘sh, sen o‘tkazadigan tajriba nimani isbot qilishi kerak? B) Akalari ham, Oyqizning o‘zi ham shu uyda o‘sgan. C) Qani, hamma xotin ham sizday bo‘lsa… D) Mana senga qog‘oz bilan qalam, shunga sen bitta e’lon yozasan.

60. Gaplar his-hayajonning ishtirokiga koʻra qanday turlarga boʻlinadi?
A) his – hayajonsiz, his-hayajon (undov) gaplar B) his-hayajonsiz, soʻz gaplar C) his-hayajon, atov gaplar D) his-hayajonsiz, istak gaplar
61. His-hayajon gaplar yana qanday nom bilan ataladi?
A) undov gaplar B) istak gaplar C) buyruq gaplar D) his-hayajonsiz gaplar
62. Undov gap…
A) tarkibida undalma mavjud boʻlgan gap B) fikrni his-hayajon bilan ifodalaydigan, kuchli ohang bilan aytiladigan gap C) turli hissiyotlarni ifodalovchi gap D) B, C
63. Undov gap qanday hissiyotni ifodalaydi?
A) shodlik, quvonch, suyunish B) qoʻrquv, tantana, taajjub C) qaygʻu, afsuslanish D) barcha javoblar toʻgʻri
64. Undov gap soʻroq gapdan hosil boʻlgan boʻlsa, gap oxirida qanday tinish belgisi ishlatiladi?
A) oldin soʻroq, keyin undov belgisi qoʻyiladi B) oldin undov, keyin soʻroq belgisi qoʻyiladi C) faqat bittasi qoʻyiladi. D) faqat soʻroq belgisi qoʻyiladi.
65. Oʻn yil // Oʻn yildan beri kasal ekanmi //
Ushbu gapdagi // belgilari oʻrnida qanday tinish belgisi ishlatiladi?
A) vergul, soʻroq B) undov, soʻroq va undov C) soʻroq, soʻroq D) vergul, soʻroq va undov
66. Qaysi qatorda buyruq ma'nosi ifoda etilgan undov gap berilgan.
A) Qani endi, shu kunlar qaytib kelsa. B) Ko'p andisha qilmang, yuring! C) Ko'zlarini yumib, o'ylanib turishi biram chiroyli, biram chiroyli! D) Qayda bo'lsang, omon bo'l!
67. Gapning tuzilishiga koʻra turlari qaysi qatorda berilgan?
A) sodda gaplar, qoʻshma gaplar B) egali gaplar, egasiz gaplar C) darak, soʻroq, buyruq gaplar D) egasi noma’lum gaplar, shaxssiz gaplar
68. Sodda gap …
A) ikki va undan ortiq grammatik asosdan tashkil topgan gap B) grammatik asosi bitta boʻlib, ma’lum bir fikrni ifodalovchi gap C) murakkab fikr anglatuvchi gap D) faqat ega va kesimdan tashkil topgan gap
69. Qoʻshma gap …
A) grammatik asosi bitta boʻlgan gap B) ikki va undan ortiq grammatik asosdan tashkil topgan gap C) ikki va undan ortiq soʻzdan tashkil topib, murakkab tushuncha anglatgan gaplar D) B va C
70. Sodda gap qaysi qatorda keltirilgan?
A) Bilimli oʻzar, bilimsiz toʻzar. B) Odam borki, odamlarning naqshidir. C) Shahnoza shu kitobni hayajon bilan oʻqidi. D) Shu payt eshik ochildi, hovliga harbiycha kiyingan bir yigit kirib keldi.
71. Qoʻshma gap berilgan qatorni toping.

A) Qimirlagan qir oshar. B) Ahillik bor yerda temir ham suvga cho‘kmaydi. C) Mard bir o‘lar, nomard yuz o‘lar. D) Hamid ota halol va mehnatsevar kishiga xos izzat-obro‘sini va qadr-qimmatini chuqur tushuntirdi.

72. Qaysi qatordagi fikr noto‘g‘ri?

A) sodda gap tarkibida kesimlik shakllariga ega bo‘lgan bitta kesim bo‘ladi. B) qo‘shma gap tarkibida ikki va undan ortiq uyushgan kesim bo‘ladi. C) sodda gap tarkibidagi barcha bo‘laklar kesim atrofida birlashadi. D) sodda gap tarkibida bir nechta uyushgan kesim bo‘lishi mumkin.

73. Sodda gap berilgan qatorni aniqlang.

A) Issiq birmuncha bo'shashgandek tuyulsa ham, dimlik zaptida edi. B) Osmonda qittak ham bulut yo'q, shamol ham esmaydi. C) Pardek yengil oppoq bulutlar cheti botayotgan oftob tig'ida xuddi kimxob parchadek lov-lov yonadi. D) Oftob o'chdi, ufqda olovli bulutlar qoldi.

74. Sodda gapga xos bo‘lgan belgilarni aniqlang.

A) sodda gap tarkibida kesimlik shakllariga ega bo‘lgan bitta kesim bo‘ladi B) sodda gap tarkibidagi barcha bo‘laklar shu kesim atrofida birlashadi C) sodda gap tarkibida ikki va undan shakllangan kesim bo‘ladi D) A, B

75. Grammatik asoslarning miqdoriga ko‘ra gaplar qanday turlarga bo‘linadi?

A) sodda, qo‘shma B) egali, egasiz C) darak, so‘roq, buyruq D) sodda yig‘iq, sodda yoyiq

76. Sodda gap keltirilgan qatorni toping.

A) Kampirning ko‘zlari allanechuk olayib ketdi, yuzining suyakka yopishgan chandir terisi oqardi. B) Bu shaharda tanish-bilish yo‘qligi Rizayevga shu bugun bilindi. C) Biz uyga qaytdik va dars tayyorladik. D) Shamol turdi va hamma yoqni to‘zon qopladi.

77. Sodda gaplar eganing ishtirok etish yoki etmasligiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?

A) egasi mavjud gaplar, sodda yig‘iq gaplar B) egasi mavjud gaplar, sodda yoyiq gaplar C) egasi mavjud gaplar, egasiz gaplar D) bir bosh bo‘lakli, ikki bosh bo‘lakli gaplar

78. Sodda gaplar ikkinchi darajali bo‘laklarning ishtirok etganligi yoki etmaganligiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?

A) sodda yig‘iq, sodda yoyiq gaplar B) egasi mavjud va egasiz gaplarga C) sodda va qo‘shma gaplarga D) A, B

79. Keltirilgan gaplar ichidan sodda yoyiq gapni toping.

A) Anvar qaytib keldi. B) Kamola darvozadan shoshilib kirib keldi. C) Biz uyga qaytdik va birga dars tayyorladik. D) Shamol turdi va hamma yoqni to‘zon qopladi.

80. Sodda gap berilgan qatorni toping.

A) Biz uyga qaytib, birga dars tayyorladik. B) Kampirning ko‘zlari allanechuk olayib ketdi, yuzining suyakka yopishgan chandir terisi oqardi. C) Men sinfga kirgach, deraza oldida turgan Shahnozani ko‘rdim. D) A va C

81. Gap bo‘laklari vazifasini qanday so‘zlar bajaradi?

A) yordamchi va mustaqil so‘zlar B) mustaqil va oraliq so‘zlar C) faqat mustaqil so‘zlar D) mustaqil, yordamchi va oraliq so‘zlar

82. Berilgan gapni gap bo‘laklariga ajrating. Dildora kechagi uchrashuv haqida zavqlanib gapirdi.

A) Dildora – ega, kechagi – hol, gapirdi – kesim, uchrashuv haqida – to‘ldiruvchi B) Dildora – ega, kechagi – aniqlovchi, uchrashuv haqida – to‘ldiruvchi, zavqlanib – hol, gapirdi – kesim. C) Dildora – ega, kechagi – to‘ldiruvchi, uchrashuv haqida – hol, zavqlanib – aniqlovchi, gapirdi – kesim D) Gapirdi – kesim, Dildora – ega, uchrashuv haqida – aniqlovchi, zavqlanib – hol

83. Dildora kechagi uchrashuv haqida zavqlanib gapirdi. Keltirilgan gap qaysi qatorda so‘z birikmalariga to‘g‘ri ajratilgan?

1) Dildora gapirdi; 2) zavqlanib gapirdi; 3) uchrashuv haqida gapirdi; 4) kechagi uchrashuv

A) 1, 2, 3 B) 1, 2, 4 C) 2, 3 D) 2, 3, 4

84. Gapdagi nuqtalar o‘rniga kelishik qo‘shimchalari va ko‘makchilardan mosini qo‘ying.

A’zam tizzasidagi mahsi.. hafsala .. pishiq tikadi.

A) -ni, bilan B) -ga, qilib C) -ni, -sizlik bilan D) -ni, qilib

85. Dildora kechagi uchrashuv haqida zavqlanib gapirdi. Ushbu gap qanday gap bo‘laklaridan tashkil topgan?

A) kesim, ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol B) kesim, ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi C) kesim, ega, aniqlovchi, hol D) kesim, ega, to‘ldiruvchi, hol

86. Quyidagi maqol qanday gap bo'laklaridan tashkil topgan?

Er-u xotinning urushi — doka ro'molning qurishi.

A) to'ldiruvchi, ega, aniqlovchi, kesim B) ega, kesim, aniqlovchi, aniqlovchi, kesim C) aniqlovchi, ega, aniqlovchi, aniqlovchi, kesim D) aniqlovchi, aniqlovchi, ega, aniqlovchi, aniqlovchi, kesim

87. Kesimga to‘g‘ri ta’rif berilgan qatorni aniqlang.

A) kesim gap markazi, hukmni ifodalaydi B) kesim tasdiq, inkor, zamon, mayl, shaxs-son ma’nolarini ifodalab keladi C) gapning boshqa bo‘laklarini o‘z atrofida birlashtiradi D) javoblarning barchasi to‘g‘ri.

88. Kesim qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanishiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?

A) fe’l kesim, ot kesim B) fe’l kesim, sifat kesim, ravish kesim, ot kesim C) fe’l kesim, sifat kesim, son kesim D) fe’l

kesim va olmoshdan boshqa barcha so‘z turkumlari bilan ifodalan kesim

89. Yaxshidir achchiq haqiqat, lek shirin yolg'on yomon. (E.Vohidov) Ushbu gapdagi kesim bo'lib kelgan sifatlarni toping.

A) yaxshidir B) achchiq, shirin C) yaxshidir, yomon D) yaxshidir, achchiq, yomon.

90. Qaysi qatorda ibora bilan ifodalangan kesim berilgan?

A) Ammamning zardali ovozini eshitib, damim ichimga tushib ketdi. B) Faridaning onasi uning har bir harakatini ko'zdan kechirdi. C) A va B D) Qolaversa, doktorlarga ham qiyin.

91. Ular shoshilinch holda binoni qabul qilib qo'ya qolgan edi. Ushbu gapdagi kesimni aniqlang.

A) qo'ya qolgan edi B) qolgan edi C) qabul qilib qo'ya qolgan edi. D) qilib qo'ya qolgan edi

92. Qaysi gapda sifat kesim vazifasida qo‘llangan?

A) Sap-sariq bug‘doylarning oltin boshoqlari silkinar. B) Daraxtlarning tanasi pakana, mevasi mo‘l va yirik edi. C) G‘o‘za shoxlari oqish, pushtirang gullar bilan bezangan. D) Ko‘kimtir osmonda behisob yulduzlar chaqnab turardi.

93. Kesim gapda qanday ma’nolarni ifodala keladi?

1) tasdiq-inkor 2) mayl 3) nisbat 4) zamon 5) shaxs-son

A) 4, 5 B) 1, 2, 4, 5 C) 2, 3, 4, 5 D) 1, 2, 3, 4, 5

94. Kesim quyida ko‘rsatilgan qaysi savollarga javob bo‘lishi mumkin?

A) nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi? B) nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi? nechanchi? qanday? C) kim? nima? qachon? qayerda? nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi? nechta? qanday? D) to‘g’ri javob berilmagan

95. Sof fe’l kesim qatnashgan gapni aniqlang.

A) Po‘lat xatni kecha yuborgan. B) Men bugun maktabga boraman. C) It hurar – karvon o‘tar. D) Sizdan umidim ko‘p edi.

96. Sifatdosh bilan ifodalangan kesimni toping.

A) It hurar – karvon o‘tar. B) Usti yaltiroq, ichi qaltiroq. C) Po‘lat xatni kecha yuborgan. D) A va C

97. Ravishdosh bilan ifodalangan kesim qatnashgan gapni aniqlang.

A) Usti yaltiroq, ichi qaltiroq. B) Motor gurillab, mashina oldinga intildi. C) Sizdan umidim ko‘p. D) Dehqonning gaplari Luqmonga qattiq ta’sir qildi.

98. Son bilan ifodalangan kesim qatnashgan gapni aniqlang.

A) It hurar – karvon o‘tar. B) Birniki – mingga, mingniki – tumanga. C) Luqmoni hakimning jahli chiqibdi. D) Nima eksang, shuni o‘rasan.

99. Qanday kesim ot kesim hisoblanadi?

A) ot, sifat, son, olmosh, ravish, taqlid, modal so‘z bilan ifodalangan kesim B) ot, va olmosh bilan ifodalangan kesim C) ot va fe’lning harakat nomi shakli bilan ifodalangan kesim D) ot, sifat, son bilan ifodalangan kesim

100. Ot bilan ifodalangan kesim ishtirok etgan gapni aniqlang.

A) Teshaboy ashaddiy dushman-u, siz xizmatini qilayotgan depo xo‘jayini do‘stmi? B) Usti yaltiroq, ichi qaltiroq. C) Ikki marta ikki – to‘rt. D) Hojam, tariq ekayapman, xudodan tilaymanki, bug‘doy unsin, – deb javob beribdi dehqon.

SINTAKSIS BO‘LIMIDAN TESTLAR
(2-qism)

1. Sifat bilan ifodalangan kesim mavjud gapni toping.

A) Luqmoni hakimning jahli chiqdi. B) Usti yaltiroq, ichi qaltiroq. C) Mo‘tabar eshikni sekin yopib, chiqib ketdi. D) Men yaltiroq ruchka sotib oldim.

2. Son bilan ifodalanmagan kesim ishtirok etgan gapni aniqlang.

A) Sanasangiz-sanamasangiz ham hammasi qirqta. B) Ikkalasi ham chiqib ketishdi. C) Birniki – mingga, mingniki – tumanga. D) Barcha gaplarning kesimi son bilan ifodalangan.

3. Qaysi gapda kesim olmosh bilan ifodalangan?

A) Maqsadim – shu. B) Oltita bolani bag‘riga olgan mahkam taqachi – shu. C) A va B D) Dehqonning gaplari Luqmonga qattiq ta’sir qilibdi.

4. Qaysi gapda kesim ravish bilan ifodalangan?

A) Sizdan umidim ko‘p. B) Maqsadim – shu. C) Yaxshi ro‘zg‘or – jannat, yomon ro‘zg‘or – do‘zax. D) Sanasangiz – sanamasangiz ham hammasi qirqta.

5. Modal so‘z bilan ifodalangan kesim qatnashgan gapni toping.

A) Men gapirganda karmiding? B) Yo‘qoling, siz bilan adi-badi aytishishga vaqtim yo‘q! C) Uning Vohid Mirobidov haqidagi gaplari ham qiziq. D) Bolalar yo‘g‘on archa yonida to‘xtadilar.

6. Qaysi qatorda sodda kesim berilgan?

A) Ayozli kunlar asta-sekin o‘tib borayotir. B) Bolalar yo‘g‘on archa yonida to‘xtadilar. C) Bu hovlining teng yarmi mevazor edi. D) Uchrashuv qiziqarli bo‘ldi.

7. Murakkab kesim ishtirok etgan gapni aniqlang.

A) Ayozli kunlar asta-sekin o‘tib borayotir. B) Uchrashuv qiziqarli bo‘ldi. C) Paxta va pilladan yurt bezanadi. D) A, B

8. Qaysi qatorda murakkab fe‘l kesimli gap berilgan?

A) Taftishchi butun sirni ochib tashladi. B) Nega bu yerga tariq sepayapsan? C) Nazirjonning kelishi

jumboqni yechdi. D) Butun guruhimiz astoydil ishladi.

9. Tarkibida murakkab kesim mavjud bo‘lmagan gapni belgilang.

A) Ukam a‘lochi bo‘ldi. B) Mamlakatimizni tajovuzkor kuchlardan himoya qilishga doimo tayyor turishimiz lozim. C) Berilgan gaplardagi barcha kesimlar murakkab kesim hisoblanadi. D) Rais xonada o‘tirganlarga bir-bir qarab qo‘ydi.

10. Qaysi qatordagi gapda murakkab kesim qo‘llanmagan?

A) Vazifani o‘z vaqtida bajarish zarur. B) Mamlakatimizni tajovuzkor kuchlardan himoya qilishga doimo tayyor turishimiz lozim. C) Vatan sajdagoh kabi muqqadas ekanligini unutmaslik kerak. D) Ma‘naviyat insonga havodek, suvdek zarur.

11. Murakkab ot kesimlar qanday hosil bo‘ladi?

A) otlarga bog‘lama vazifasida kelgan yordamchi fe’lning qo‘shilishi orqali B) sifat va ravishlarga to‘liqsiz fe’lning qo‘shilishi orqali C) fe’ldan boshqa so‘z turkumlarining kesim vazifasida kelishi orqali D) A, B

12. Murakkab ot-kesim ishtirok etmagan gap berilgan qatorni toping.

A) Boshqa xonada bolalar uxlab qolishibdi. B) Sizga aytmoqchi bo‘lgan gapim shu edi. C) Hammasini aytib berishingiz darkor. D) Akam talaba bo‘ldi.

13. Bog‘lamalar haqidagi qaysi fikr noto‘g‘ri?

A) fe’l bo‘lmagan so‘zlar bilan qo‘shilib, kesimni shakllantiradi B) mayl, zamon, shaxs-son ma’nolarini ifodalaydi C) fikrni izchil va aniq ifodalash uchun yordam beradi D) barcha fikrlar to‘g‘ri

14. Bog‘lamalar berilgan qatorni toping.

A) bo‘l, qil, edi, ekan B) edi, sana-, bo‘l C) berilganlarning barchasi to‘g’ri D) emish, hisoblan-, sana-

15. Murakkab ot kesim qatnashmagan gapni toping.

A) Men kutib olishim kerak. B) Akam talaba bo‘ldi. C) Bu katta ahamiyatga ega hodisa hisoblanadi. D) barcha gapda murakkab ot kesim ishtirok etgan.

16. Kesim ibora bilan ifodalangan gapni toping.

A) Dadam qo‘li ochiq odam edilar. B) Respublikamizning eng nufuzli dargohi O‘zbekiston Milliy universitetidir. C) U birdaniga to‘nini teskari kiyib oldi. D) U sirkasi suv ko‘tarmaydigan qiz edi.

17. Kengaygan birikma bilan ifodalangan kesim qaysi qatorda berilgan?

A) Hammasini aytib berishing darkor. B) Dadam qo‘li ochiq odam edilar. C) Tarixni o‘rganishdan asosiy maqsad – milliy o‘zligimizni chuqurroq anglash. D) Bu katta ahamiyatga ega hodisa hisoblanadi.

18. Tire to‘g‘ri qo‘llangan gapni aniqlang.

A) Sharifa – ham to‘quvchi. B) Ko‘ylakning ranggi – sariq. C) Maqsadim – o‘qimoq edi. D) Har narsaga qiziqish – biz uchun eski odat.

19. Tire noto‘g‘ri qo‘llangan gapni aniqlang.

A) Tinchlik – farovon hayot manbai. B) Mening aytadigan gapim – shu. C) Uch karra uch – to‘qqiz. D) Mening opam ham – talaba.

20. Ega ko‘rsatish olmoshi bilan ifodalangan gapni aniqlang.

A) Men – mana shu minglarning biriman. B) Bu – siz uchun katta sinovdir. C) Sen – bizni ozod etuvchisan. D) Mening opam ham talaba.

21. Qaysi gapda tire noto‘g‘ri qo‘llangan?

A) Bu gul – qizil. B) Sen – bizni ozod etuvchisan. C) O‘qish – ulg‘ayish. D) Men – mana shu minglarning biriman.

22. Quyidagi qaysi gapda ega bilan ot kesim orasida tire ishlatilishi lozim?

A) Urush quyon ovi emas. B) O'g'limdan umidim ko'p.C) Hammayoq top-toza, yovoyi o'tlar yo'q. D) Qo'shnilarim ham halol odamlar.

23. Tire noto'g'ri qo'llangan gapni toping.

A) Men – mana shu minglarning biriman. B) Bu – siz uchun katta sinovdir. C) Sen – bizni ozod etuvchisan. D) Bizning sinfimiz – sakkizinchi.

24. Qanday hollarda ot kesim va ega orasida tire qo‘yiladi?

A) ot kesim kesimlik qo‘shimchalari bilan shakllanganda B) ot kesim sifat bilan ifodalanganda C) ot kesim kesimlik qo‘shimchalarisiz yoki bog‘lamasiz qo‘llanganda D) ega bilan ot kesim orasida ham yordamchisi bo‘lganda

25. Qaysi hukm noto‘g‘ri?

A) Kesim sifat yoki ravish bilan ifodalansa ega va kesim orasiga tire qo‘yilmaydi. B) Kesim harakat nomi yoki sanoq son bilan ifodalansa ega bilan kesim orasiga tire qo‘yilmaydi. C) Ega bilan kesim bu, u, mana bu so‘zlari bilan ajratilganda tire ishlatiladi. D) Ega va kesim orasida ham yordamchisi bo‘lsa tire ishlatilmaydi.

26. Qaysi gap tarkibidagi ega va kesim orasida tire ishlatiladi?

27. Yulduz a‘lochilarimizdan. 2. Taniganim do‘stlarim. 3. Eshitganlarim haqiqat edi. 4. Bu kitob qiziq. 5. Aziza tikuvchi.

A) 1, 2, 5 B) 1, 4, 5 C) 1, 2, 4, D) 2, 4, 5

28. Shaxs-son va zamon shakllaridagi fe’l kesimlar hamda bog‘lamasiz va bog‘lamali ot kesimlar…

A) nomustaqil kesimlar B) istak gaplarning kesimlari C) mustaqil kesimlar D) murakkab kesimlar

29. Tilimizdagi qaysi shakl nomustaqil kesim shakli hisoblanadi?

A) fe’lning shart mayli B) fe’lning harakat nomi shakli C) fe’lning istak mayli D) edi, ekan, emish to‘liqsiz fe’llari

30. Nomustaqil kesim shakli qo‘llangan gapni toping.

A) Qani til bo‘lsa-yu, u bilan suhbatlasha qolsa! B) Bu katta ahamiyatga ega hodisa hisoblanadi. C) Mehnat qilsang, baxting ochiladi. D) Qani hamma xotin sizday bo‘lsa.

31. Quyidagi shakllardan qaysi birlari nomustaqil kesim shaklini yasashga xizmat qiladi?

32. ko‘makchi fe‘l shakllari; 2. to‘liqsiz fe‘l shakllari; 3. buyruq mayli shakllari; 4. shart mayli shakllari

A) 1, 2 B) 1, 2, 3, 4 C) 4 D) 3, 4

33. Ega haqida keltirilgan to‘g‘ri ta’rifni aniqlang.

A) Gap kesimining qo‘shimchalaridan anglashilib turgan shaxs-son ma’nosini aniqlashtiruvchi bo‘lakka ega deyiladi. B) Ega doimo bosh kelishik shaklida bo‘ladi. C) Egalik va ko‘plik shakllarini qabul qilishi mumkin. D) Barcha javoblar to‘g‘ri.

34. Ega qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanishi mumkin?

A) ot, olmosh, ravish B) son, sifatdosh, sifat C) harakat nomi, taqlid so‘z, modal so‘z D) A, B, C

3. Olmosh bilan ifodalangan ega qatnashgan gapni aniqlang.

A) O‘zingni er bilsang, o‘zgani she’r bil. B) Sen o‘zingni maqtama, seni birov maqtasin. C) Mening opam ham talaba. D) Menga aytilgan gap yoqmadi.

35. Son bilan ifodalangan ega qatnashgan gapni toping.

A) Men – mana shu minglarning biriman. B) Sen – bizni ozod etuvchisan. C) Ikkalasi ham chiqib ketishdi. D) Bizning sinfimiz sakkizinchi.

36. Aqlli o‘zini ayblar, aqlsiz – do‘stini. Ushbu gapda ega qaysi so‘z turkumi bilan ifodalangan?

A) ravish B) olmosh C) sifat D) ot

37. Qaysi gapda ega sifatdosh bilan ifodalangan?

A) O‘qigan o‘qdan o‘zar, o‘qimagan turtkidan shoshar. B) Yaxshilar ko‘paysin, yomon qolmasin. C) Qimirlagan qir oshar. D) A va C

38. Ravish bilan ifodalangan ega berilgan gapni toping.

A) Ko‘p so‘zning ozi yaxshi, oz so‘zning o‘zi yaxshi. B) Aqlli o‘zini ayblar, aqlsiz – do‘stini. C) Aziz o‘sha kitobni tezda o‘qib tugatdi. D) Ravish bilan ifodalangan ega berilmagan.

39. Qaysi qatordagi gapda ega harakat nomi bilan ifodalangan?

A) Maqsadim – o‘qimoq. B) O‘qish jafoli, keti vafoli. C) O‘qishga borishim kerak. D) Shu vaqt yugurishga madorim yo‘q edi.

40. Taqlid so‘z bilan ifodalangan ega qatnashgan gapni ko‘rsating.

A) Qars ikki qo‘ldan chiqadi. B) Shamolning g‘ir-g‘iridan ko‘nglim yayradi. C) Otlarning dupur-dupurini eshitib uyg‘ondim. D) Men g‘ala-g‘ovur ovozdan esankirab qoldim.

41. Bor so‘zlaydi, yo‘q ko‘zlaydi. Ushbu gapda ega qanday so‘z bilan ifodalangan.?

A) taqlid so‘z B) modal so‘z C) ravish D) ushbu gapda ega ishtirok etmagan

42. Sifatdosh bilan ifodalangan ega qatnashgan gapni toping.

A) Birlashgan Arab Amirligida bo‘lib qaytishdi. B) Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar. C) Bobom o‘qiganni juda hurmat qiladi. D) Yaxshilar ko‘paysin, yomon qolmasin.

43. Ega taqlid so‘z bilan ifodalangan gapni aniqlang.

A) Shamolning g‘ir-g‘iridan ko‘nglim yayradi. B) Qo‘shni xonadan qizlarning qahqahasi eshitildi. C) Men g‘ala-g‘ovur ovozdan esankirab qoldim. D) Qushlarning chug‘ur-chug‘uri xayolimni buzib yubordi.

44. Ega ot bilan ifodalangan gap berilgan qatorni toping.

A) Ular Azizni so‘roqqa tutdilar. B) O‘qish jafoli, keti vafoli. C) Milt-milt yonib turgan chiroq bir ozdan so‘ng o‘chdi. D) U Toshkentda turadigan uzoqroq qarindoshlarining qizi edi.

45. Qaysi qatordagi gapda harakat nomi bilan ifodalangan ega berilgan?

A) O‘sha paytlar ham o‘qishga ishtiyoqim kuchli edi. B) Yugurish sportning bir turidir. C) O‘qishdan maqsadim ilmli bo‘lish. D) Maqsadim – o‘qimoq.

46. Qaysi qatordagi gapda olmosh ega vazifasida qo‘llangan?

A) Senga aytgan edim, quloq solmading. B) U yerda bo‘lganmisiz? C) U Toshkentda turadigan uzoqroq qarindoshlarining qizi edi. D) Ularni baxtli ko‘rib, dilim quvnadi.

47. Kengaygan sifatdoshli birikma bilan ifodalangan ega berilgan qatorni aniqlang.

A) Qush sayrashi orom berar dillarga. B) Ibn Sinoga kasalning joni chiqmagan bo‘lsa bas, uni tuzatar ekan. C) Musobaqada birinchi o‘rinni olganlar to‘rga chiqishdi. D) Bu xabarni eshitgan Gulruhning tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi.

48. Qaysi qatorda egali gap berilgan?

A) Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi. B) Jo‘jani kuzda sanaydilar. C) Topshiriqni o‘z vaqtida bajarishi kerak. D) Yo‘lda biroz to‘xtashga to‘g’ri kelib qoldi.

49. Keltirilgan gaplardan egasiz gapni aniqlang.

A) Shaftolizor bog‘larni ko‘rdim. B) Bugungi ishni ertaga qo‘yma. C) Derazadan ko‘chaga tikilaman. D) Topshiriqni o‘z vaqtida bajarish kerak.

50. Qaysi gap tarkibida ega qo‘llangan?

A) Birovni, ayniqsa, ayolni so‘kish gunohdir. B) Manzilga mana shu yo‘ldan boriladi. C) Yaqin kunlarda

yakuniy test topshiramiz. D) Topshiriqni o‘z vaqtida va puxta bajarishdi.

51. Egasi yashiringan gap berilmagan qatorni toping.

A) Hurmat qilsang, hurmat ko‘rasan. B) Yaqin kunlarda yakuniy test sinovlaridan o‘tamiz. C) Bu yerda o‘rtoq Ergashevning hushyorligiga tan berish kerak. D) Ko‘p o‘tmay tandir kabobni ochish marosimini boshlashdi.

52. Egasi umumlashgan gapning kesimi qaysi shaxsda bo‘ladi?

A) II shaxsda B) II, III shaxsda C) I, II shaxs birlikda D) III shaxsda

53. Shaxsi ma'lum gapni toping.

A) Eshik ochiq bo‘lsa ham, so‘rab kir. B) Kitoblarni kutubxonaga topshirgani ketdi. C) Hayotni go'zalliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. D) Keksalikni ko'prikka tashbeh qiladilar.

54. Qaysi qatorda egasi yashiringan gap berilgan?

A) Topshiriqni o‘z vaqtida bajaring. B) Ko‘nglida armon qolmasin deb, chilyosin ham qildirishga to‘g‘ri keldi. C) Hovliga orqa eshikdan chiqiladi. D) To‘garakka borish kerak.

55. Shaxsi noma’lum gap berilgan qatorni aniqlang.

A) Bahor. Kunlar iliqlashgan. B) Sog‘ligingiz yaxshimi? C) Yo‘lda biroz to‘xtashga to‘g’ri kelib qoldi. D) Uy ichida odam ko‘p edi.

56. Egasiz gaplarda…

A) ega yashiringan bo‘ladi B) ega umuman bo‘lmaydi C) ega kesimning shaxs-son shakllaridan ma’lum bo‘lib turadi D) ega umumlashgan bo‘ladi

57. Qaysi qatorda egasiz gap berilgan?

A) Sayrga chiqishdi. B) Bu yerda o‘rtoq Ergashevning hushyorligiga tan berish kerak. C) Uning tez-tez darsga kelmay qolishi hammani taajjublantirdi. D) Bu kitobni Anvardan olgan bo‘lsang kerak.

58. Shaxsi noma’lum gap qo'llangan qatorni aniqlang.

A) Qo'rqoq hamma narsadan mahrum bo'ldi. B) O'tgan narsa hamisha totli. C) Yetmish go'zallikning biri – mehnat. D) Toshdan gavharni farq qilish kerak.

59. Egasiz gaplar qanday turlarga bo‘linadi?

A) shaxsi umumlashgan, shaxsi noma’lum gap B) shaxsi noma’lum gap, atov gap, so‘z gap C) shaxsi topilmas, shaxsi noma’lum gap D) bir bosh bo‘lakli gap, ikki bosh bo‘lakli gap

60. Qaysi qatorda atov gap berilgan?

A) Rahmat. Tuzukman. B) Bo‘pti, ma’qul. C) Hamon yodimdadir, gul chog‘i erdi. D) Albatta, Shuhrat keladi.

61. Atov gap haqidagi qaysi fikr noto‘g‘ri?

A) Atov gaplar faqat birgina so‘zdan iborat bo‘ladi. B) Atov gaplar

aniqlovchilar bilan kengayib kelishi mumkin. C) Atov gap egasiz gapning bir ko‘rinishi hisoblanadi. D) Atov gaplar, asosan, aniqlik maylining hozirgi kelasi zamon shaklida bo‘ladi.

62. So‘z gaplar…

A) ko‘pincha bir so‘zdan iborat bo‘ladi B) so‘roq, inkor, tasdiq, taajjub kabi ma’nolarni ifodalaydi C) ko‘proq diologik va ba’zan monologik nutqqa xos bo‘ladi. D) barcha javoblar to‘g‘ri

63. So‘z gap qo‘llangan qatorni toping.

A) – Mayli, – dedi Fazliddin. B) – Assalomu alaykum, hormang, ota. C) – Rahmat. Tuzukman. D) A, B, C

64. Undov so‘z bilan ifodalangan so‘z gap berilgan qatorni toping.

A) – Bo‘pti. Ma’qul. B) Oh-o! Savollaringiz tugamaydi-ku. C) – Mayli, – dedi Fazliddin. D) Teshavoy, soy bo‘yida kutib turmoqchimisiz? – Ha.

65. Qaysi qatorda so‘z-gap qo‘llangan?

A) - Ulardan xat keladimi? Keladi, keladi. B) – Sening bundan xabaring bormi, Ali? – Yo‘q, ustod. C) Siz qayerdan, mehmon? – Toshkentdan. D) Shu voqeadan so‘ng kuyovingiz aniq kelganmi edi? – Kelgan edi, qizim.

66. Tasdiq so‘z-gaplar guruhiga mansub so‘zni toping.

A) aslo B) xo‘sh C) to‘g‘risi D) albatta

67. qani so‘zi so‘z-gaplarining qaysi turiga mansub?

A) tasdiq so‘z-gaplar B) taklif so‘z-gaplar C) undov so‘z -gaplar D) inkor so‘z-gaplar

68. Qaysi qatorda otlashgan sifat bilan ifodalangan to‘ldiruvchi berilgan?

A) Mansurov odamlar bilan xayrlashdi. B) Bilmagandan bilgan yaxshi, to‘g‘ri ishni qilgan yaxshi. C) Yaxshiga qora yuqmas, yomonga el boqmas. D) Beshni beshga qo‘shsak, o‘n bo‘ladi.

69. To‘ldiruvchi modal so‘z bilan ifodalangan gapni toping.

A) Oh-o, savollaringiz tugamaydi-ku. B) Xo‘p, qani, Malika, masalani Akromga tushuntirib bering. C) Qani aytchi, darsni tinglamay, nimani o‘ylayotgan eding? D) Yo‘qni yo‘q deydi, borni bor deydi.

70. Qaysi bo‘lak kesimga boshqaruv yo‘li bilan birikadi?

A) aniqlovchi B) to‘ldiruvchi C) hol D) izohlovchi

71. Gapda to‘ldiruvchi vazifasida kelgan so‘z qanday shakllarda bo‘lishi mumkin?

A) tushum, chiqish, jo‘nalish, o‘rin-payt kelishigi shaklida yoki ko‘makchi bilan shakllangan holda B) qaratqich, tushum, jo‘nalish, chiqish, o‘rin-payt kelishigini olgan holda C) vositasiz to‘ldiruvchi ko‘makchilar

bilan shakllangan bo‘lishi mumkin D) faqat tushum kelishigi shaklida yoki ko‘makchilarni olgan holda

72. Birikmali holda ifodalangan to‘ldiruvchini aniqlang.

A) Birni birov beradi, ko‘pni – mehnat. B) Men uning go‘zal siymosida qalbim ko‘zgusini, visol orzusini, umidim gulshanini ko‘rardim. C) Hammani kuldirish uchun ataylab shunday antiqa kiyindi. D) Vodiylarni, tog‘larni oshib, dalalarda yolg‘iz adashib, kelib qoldi yurtingga Omon.

73. Vositasiz to'ldiruvchi qatnashgan gap qaysi qatorda berilgan?

A) Undan allaqanday tiniq bir go'zallik barq urib turardi. B) To'satdan onamning jahli chiqib ketdi. C) Shu ondayoq ot kishnagani, tuyoqlarning asfaltga taraqlab urilgani eshitildi. D) Faridaning onasi billur savatchada shokolad, kumush taqsimchada asal, mayiz keltirib qo'ydi.

74. Qaysi qatordagi gapda vositasiz to‘ldiruvchi ishtirok etgan?

A) So‘rashdan uyalma, bilmaslikdan uyal. B) Qarilari kutadi mehmon, pazandasi yopadi shirmon. C) Chaqmoqning yalt-yultidan bola qo‘rqdi. D) Qishloqqa avtobusda ketadigan bo‘ldim.

75. Qanday to‘ldiruvchilar vositasiz to‘ldiruvchi sanaladi?

A) faqat belgisiz tushum kelishigi shakli bilan ifodalangan to‘ldiruvchilar B) faqat belgili tushum kelishigi shakli bilan ifodalangan to‘ldiruvchilar C) belgili va belgisiz tushum kelishigi shakllari bilan ifodalangan to‘ldiruvchilar D) jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishigi shakli bilan ifodalangan to‘ldiruvchilar

76. Vositasiz to‘ldiruvchi haqidagi qaysi hukm noto‘g‘ri?

A) vositasiz to‘ldiruvchi kimni, nimani so‘roqlariga javob bo‘ladi B) vositasiz to‘ldiruvchi belgili va belgisiz qo‘llanishi mumkin C) vositasiz to‘ldiruvchi bilan birikma hosil qilgan fe’l o‘timsiz fe’l hisoblanadi D) vositasiz to‘ldiruvchi faqat tushum kelishigidagi so‘z bilan ifodalanadi

77. Ko‘makchi orqali shakllangan vositali to‘ldiruvchini toping.

A) Hamma ustozlar yaxshi fikr bildirdilar. B) Maktabimiz direktori a’lo o‘qish, intizom to‘g‘risida gapirdi. C) Bu kitobni ukamga oldim. D) Kuzning oltin barglari suv yuzida suzar edi.

78. Qanday to‘ldiruvchilar vositali to‘ldiruvchi sanaladi?

A) belgisiz tushum kelishigi shakli bilan ifodalangan to‘ldiruvchi B) belgili tushum kelishigi shakli bilan ifodalangan to‘ldiruvchi C) belgili va belgisiz tushum kelishigi shakllari

bilan ifodalangan to‘ldiruvchi D) jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigi shakllari yoki ko‘makchilar bilan ifodalangan to‘ldiruvchi

79. O‘rin-payt kelishigi bilan ifodalangan so‘z gapda qanday to‘ldiruvchi bo‘lishi mumkin?

A) vositali to‘ldiruvchi B) vositasiz to‘ldiruvchi C) o‘rin-payt kelishigi bilan ifodalangan so‘z gapda doim o‘rin holi vazifasida keladi D) belgili qo‘llangan vositasiz to‘ldiruvchi

80. Qaysi gapdagi kelishikli to‘ldiruvchini ko‘makchili to‘ldiruvchiga almashtirib bo‘lmaydi?

A) Qishloqqa avtobusda ketadigan bo‘ldim. B) Xat qizil qalamda yozilgan edi. C) Bekorchidan xudo bezor. D) Sayohat vaqtida ko‘rganlarimdan batafsil gapirdim.

81. Aniqlovchi qaysi gap bo‘laklariga bog‘lanadi?

A) ega, ot kesim, to‘ldiruvchi, hol B) ega, izohlovchi, to‘ldiruvchi, hol C) ot kesim, hol, ega D) ega, fe’l kesim, to‘ldiruvchi

82. Qaysi gapda aniqlovchi holga bog‘lanib kelgan?

A) Salimjon – a’lochi o‘quvchi. B) Ilg‘or ishchilarga mukofotlar topshirildi. C) Mehnat faxriylari bilan yangi bog‘da uchrashdik. D) Kumush qishdan, zumrad bahordan, qolishmaydi kuzning ziynati

83. Aniqlovchi qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?

1) qanday; 2) qachon; 3) nechanchi; 4) kimni; 5) qay tarzda; 6) nimaning; 7) qayerda; 8) qaysi

A) 1, 2, 3, 4, 6 B) 1, 3, 6, 8 C) 1, 6, 8 D) 1, 3, 6

84. Zarur ishlarni bitirdik. Ushbu gapdagi sifatlovchi aniqlovchi qaysi so‘z turkumi bilan ifodalangan?

A) ravish B) modal so‘z C) ot D) fe’l

85. Sifatlovchi aniqlovchi taqlid so‘z bilan ifodalangan gapni toping.

A) Taqir-tuquringni yig‘ishtir. B) Yomg‘ir tomchilari deraza oynasiga tars-tars uriladi. C) Zavodning mashina bo‘limidan gurs-gurs zarb uzluksiz eshitilib turardi. D) Qars ikki qo‘ldan chiqadi.

86. Qaysi qatorda sifatlovchi aniqlovchi ibora bilan ifodalangan?

A) Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur. B) Og‘zi bo‘shning ichida gap yotmas. C) Bolali uyda g‘iybat yo‘q. D) O‘rinbosarning bunday xushomadlar oldida og‘zining tanobi qochadigan odati bor edi.

87. Otlashgan sifatdosh bilan ifodalangan qaratqich aniqlovchi berilgan qatorni toping.

A) Birining ko‘zi qora, ikkinchisining ko‘zi ko‘k edi. B) Bizning eshon – kabobpazlarning piri. C) Yaxshining yaxshiligi tegar har yerda, yomonning yomonligi tegar har joyda. D) So‘raganning bir yuzi qora, berganning ikki yuzi qora.

88. Qaysi qatordagi gapda qaratqich aniqlovchi qo‘llangan?
A) Ko‘chalardagi yangroq qo‘shiq va do‘mbira sadolari bizni erta tongda uyg‘otib yubordi. B) Mana bu albomni o‘quvchilar tayyorlagan. C) Vokzal bayroqlar, rasmlar, gullar bilan bezatilgan. D) Bir xonada Dadaxonni keksaroq oriqqina, xushchaqchaq odam kutib oldi.
89. Belgisiz qo‘llangan qaratqich aniqlovchi mavjud gapni toping.
A) Birining ko‘zi qora, ikkinchisining ko‘zi ko‘k edi. B) Ko‘m-ko‘k g‘ozalar hosilga kirib, nishonasi gulga, guli ko‘sakka aylanmoqda. C) Osmondagi umid yulduziga boqib, hayot chashmasini qidiraman. D) Uning ziyrak, qo‘ng‘ir ko‘zlarida horg‘inlik bor edi.
90. Izohlovchi ko‘proq qaysi so‘z turtkumlari bilan ifodalanadi?
A) ot B) ot, olmosh C) sifat, ot D) ot, ravish, sifat
91. Qaysi qatorda izohlovchi mavjud emas?
A) professor Nosirov, generalsiz armiya B) Usta Qodir, professorona tashxis C) kosibning hunari, gulchi Nizom D) kosib yigit, professorning nevarasi
92. Unvon, amalni ifodalagan izohlovchi berilgan qatorni toping.
A) Nizom va duradgor Vahobjonlar yetib kelishdi. B) Anjumanda direktor Xoliqov ham qatnashdi. C) O‘sha kuni Mavjuda xola bilan Sobir amaki foydali nasihatlar qildilar. D) Jalil sovuq, Juman pishiqlarning askiyalarini eshitdik.
93. Gapdagi biror bo‘lak bilan hokim-tobelik aloqasiga kirishmaydigan bo‘laklar berilgan qatorni toping.
A) undalma B) kiritma gap C) kiritma D) A, B, C
94. Kiritmalar gapning o‘rtasida kelganda gapdan qanday tinish belgilar bilan ajratiladi?
A) vergul, qavs B) vergul, tire C) tire, qavs D) A va B
95. Murakkab kiritmalar qaysi birikmalar bilan ifodalanadi?
A) so‘z gaplar, so‘z birikmalari B) uyushiq bo‘laklar va kengaygan birikmalar C) so‘z birikmalari, birikmalar va gaplar D) gaplar
96. Gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmagan so'z qaysi gapda qo'llangan?
A) To'g'ri, o'zbek adabiyotining tarixi ming yillar bilan belgilanadi. B) Qirlar bag'rini hali ko'm-ko'k, saf-saf pistalar, do'lanalar bezab turibdi. C) Asal ta'sirida yuzda qizillik, bilakda kuch, ko'zda nur yetarlicha bo‘ladi. D) Ba'zi vaqtda, sug'orish paytlarida, kechalari ham tinim bo'lmas edi.
97. Kiritma gap qo‘llangan qatorni toping.
A) Afsuski, hali o‘zlashtirilmagan yerlar bor. B) Yaxshi hamki, yomg‘ir yog‘madi. C) Dadam shu atrofdan –

qishloqning chiqaverishidan – do‘kon qidirdi. D) Musobaqalarda Rahimberdi (siz uni taniysiz) peshqadamlik qilmoqda.

98. Qaysi qatorda kiritma gap ishtirok etmagan?

A) Chinorning yonish voqeasi (uning tafsilotini ikkinchi bobda bayon qilgan edik) jamoaga asta-sekin maqbul bo‘la boshladi. B) O‘tkan kunlar (siz bu romanni o‘qigansiz, albatta) o‘zbek romanchiligi tarixida alohida o‘rin egallaydi. C) To‘g‘ri, u aravani quruq olib qochadigan maqtanchoqlardan emas. D) Barcha gaplarda kiritma gap ishtirok etgan.

99. Qaysi turdagi asarlarda kiritma gaplar ko‘proq qo‘llanadi?

A) dostonlarda B) dramatik asarlarda C) epik asarlarda D) lirik asarlarda

100. Kiritma ishtirok etgan gapni toping.

A) Bir vaqtlar siz ham, Temir Akbarovich, xato qilishdan qo‘rqmasdik, deb gapirar edingiz. B) Lekin o‘rinsiz haq so‘zdan, nazarimda, sukut yoki bezarar yolg‘on yaxshiroq. C) Bektemirga, sobiq cho‘ponga, komandrning fikri g‘oyat yoqdi. D) Sizga, o‘rta bo‘yli qizga, atlas juda yarashibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamroyev M. va boshqalar Ona tili. T.: Iqtisod-Moliya, 2007.
2. Ikromova R. va boshqalar Ona tilidan mashqlar to‘plami (o‘quv qo‘llanma) TDPU, Toshkent, 2009.
3. Hamroyev M. Ona tilidan jadvalli mashqlar to‘plami. Nizomiy nomidagi TDPU, T. 2019
4. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent – O‘zbekiston – 2016.
5. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent O‘zbekiston” – 2016.
6. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.: Talqin, 2005.
7. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. T.: Universitet, 2006.
8. Hamrayev M. Ona tili fanidan lisoniy tahlil qoidalari. T.: Sharq, 2015.
9. Nurmonov A.va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.: Ilm ziyo, 2013.
10. Atajonova A. va boshqalar. Ona tili va adabiyot fanidan mashq va testlar majmuasi. T.: Bayoz 2018

MUNDARIJA

Fonetika bo‘limi. Til ijtimoiy, doim rivojlanib turuvchi hodisadir.....3
Milliy va adabiy til…….....4
Fonetika va fonologiya…….....6
Unli tovushlar….....9
Undosh tovoshlar.....10
Nutqning fonetik bo‘linishi haqida.....11
Nutq tovushlarining fonetik o‘zgarishlari….....13
Grafika bo‘limi. Orfoepiya haqida ma’lumot 15
Grafika….....15
Ona tili imlosi va uning asosiy tamoyillari….....17
Leksikologiya….....18
Ona tili lug‘at tarkibining ma’no jihatdan tavsiflanishi….....20
Lug‘at tarkibining shakl va ma’no munosabatlari jihatidan tavsiflanishi…..21
Lug‘at tarkibidagi so‘zlarning kelib chiqishi, ijtimoiy guruhlar tomonidan qo‘llanishi jihatidan tavsiflanishi…….25
Lug‘at tarkibidagi ajralmas birikmalar-frazeologik birikmalarning ma’no va tarkib jihatdan tavsiflanishi……..…26
Leksikografiya……...28
Morfemika bo‘limi. Morfemika va morfema haqida ma’lumot ……29
O‘zbek tilida so‘z yasalishi……...31
Morfologiya bo‘limi. Grammatika va Morfologiya haqida ma’lumot. So‘zlarni turkumlarga ajratish tamoyili 32
Otning leksik-grammatik xususiyatlari. Otning ma’no turlari 34
Otlarning lug‘aviy shakllari…….35
Otlarning aloqa-munosabat shakllari. Kelishik va egalik shakllari……37
Otlarning yasalishi va tuzilishiga ko‘ra turlari ……..…39
Sifat so‘z turkumi haqida…….40
Sifatlarning yasalishi va tuzilishiga ko‘ra turlari …….41
Son so‘z turkumi haqida……...42
Olmosh so‘z turkumi……..……44
Fe’l so‘z turkumi sifatida. Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar……46
Fe’lning nisbat kategoriyasi…… .47
Fe’llarning mayl kategoriyasi……. .49
Fe’llarning zamon kategoriyasi……51
Fe’lning shaxs-son kategoriyasi……53

Fe’lning vazifa shakllari…….54
Fe’llarning tuzilishi jihatdan turlari 56
Ravishning ta’rifi, leksik grammatik xususiyatlari, ma’no guruhlari 58
Yordamchi so‘zlar. Ko‘makchilar…… 60
Alohida guruh so‘zlar……..62
Sintaksis. So‘z birikmasi sintaksisi……..64
Gap sintaksisi. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari.....66
Gap bo‘laklari haqida umumiy ma’lumot. Gapning bosh bo‘laklari.....68
Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari haqida ma’lumot. To‘ldiruvchi va uning ifodalanishi……...71
Aniqlovchi va uning ifodalanishi…….73
Hol va uning ifodalanishi, turlari.....74
Gapning uyushiq bo‘laklari……76
Gap bo‘laklari sanalmaydigan birliklar…….....77
Egasi topiladigan gaplar: shaxsi aniq, shaxsi noaniq. shaxsi umumlashgan gaplar. To‘liq va to‘liqsiz gaplar…….78
Qo‘shma gap va uning turlari. Bog‘langan qo‘shma gaplar…….79
Ergashgan qo‘shma gap va uning turlari……. 81
Ko‘chirma gap va uning turlari…….. ...83
Testlar bilan ishlash.....86
Foydalanilgan adabiyotlar.....125

Qaydlar uchun

1	
2	
3	
4	
5	
6	
7	
8	
9	
10	
11	
12	
13	
14	
15	
16	
17	
18	
19	
20	

AZIMOV AKBARJON

ONA TILI FANIDAN

MASHQLAR TO‘PLAMI

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun

o‘quv qo‘llanma

Andijon “Hayotnashri-2020” nashriyoti

Muharrir: B.Marasulov
Tex.muharrir: R.Umurzaqov

Musavvir: Z.Umurzaqova

Musahhih: A.Moydinov

Kompyuterda Sahifalovchi: R.Umurzaqov

E-mail: Tezkor_nashr@mail.ru Tel: +998 91 288-33-40

№ 2023-01
Bosishga ruxsat etildi: 06.11.2023
Bichimi 60x84 1/16. “Times New Roma” garniturasi
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i: 24,5. Nashriyot bosma tabog‘i:24,0
Adadi: 50dona. Buyurtma raqami № 01-2023